

**Dilnoza Otaxanova**

**XORIJIY TILNI  
INTENSIV  
O'QITISH**

O'quv qo'llanmada xorijiy tilni intensiv o'qitish texnologiyalari asosida talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, nofilologik yo'naliш talabalarining xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, ingliz tilidagi og'zaki nutqni rivojlantirishda gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarining uзвиyligi va psixolingvistik jihatlari, xorijiy og'zaki nutqni rivojlantirishda monologik va dialogik nutq shakllari, ularning lingvistik-psixologik-ekstralengvistik xususiyatlari, ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion usullarning o'rni kabi masalalar yoritiladi.

Mazkur qo'llanma oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim bakalavr yo'naliшhi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan boshqa yo'naliш talabalari, shu bilan birga, o'rta umumta'lim maktablari o'qituvchilari, malaka oshirish tizimi tinglovchilari ham foydalanishlari mumkin.

**Mas'ul muharrir:**

**M.Sobirova** – pedagogika fanlari doktori (DSC), professor

**Taqrizchilar:**

**Nazirova Go'zalxon**, Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Atamirzaeva E'zoza**, Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar yo'naliшlar bo'yicha chet tillar kafedrasи mudiri

Mazkur o'quv qo'llanma Namangan davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashi yig'ilishida (2023-yil 28-avgustdagи 1-sonli bayonnaoma) ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Oliy ta’lim muassasalari nofilologik yo‘nalishlaridagi chet tillarini o‘qitish tizimi uzluksiz kasbiy ta’limning majburiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Unda chet tillarni o‘qitish kursi kasbga yo‘naltirilgan bo‘lib, kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltiriladi. Biroq, ushbu yo‘nalish talabalarida, filolog-tilshunos talabalardan farqli ravishda OTMga kirish imtihonlari negizidagi jarayonlarda xorijiy tilni o‘rganishga maxsus tayyorgarlik ko‘rilmaydi va bu jarayon oliy ta’lim bosqichiga kelib dolzarblik kasb etadi. Natijada birinchi bosqichda ularda mavjud nazariy bilim poydevori past ko‘rsatkichda bo‘lib, til ko‘nikmalari (o‘qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish) oliy o‘quv yurtlari xorijiy til o‘qitish standartlarida talab etadigan B1/B2 (CEFR) darajasiga mutanosib bo‘lmaydi. Oliy o‘quv yurtlari nofilologik ta’lim yo‘nalishlari talabalarini chet tillariga o‘qitishning hozirgi holati tahlili ushbu ishning dolzarbligini belgilaydigan bir qator yo‘nalishlarni aniqlashga imkon beradi.

2012-yil 10-dekabrida “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1875-sonli Prezident qarori qabul qilindi<sup>1</sup>. Unda asosiy vazifa etib O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o‘qitishni kengaytirish dasturini ishlab chiqish belgilab qo‘yilgan. Xususan, qarorda oliy o‘quv yurtlarida ayrim maxsus fanlarni (texnika va xalqaro mutaxassisliklar bo‘yicha) o‘qitish chet tillarida olib borilishi; ta’lim standartlari, o‘quv rejalar, dasturlar va o‘quv darsliklarini qaytadan ishlab chiqish, ta’lim jarayoniga yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ko‘zda tutilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’limni rivojlantirish konsepsiyanlarida insonparvarlik, ayniqsa, talaba yoshlarning umuminsoniy, ijtimoiy, madaniy, tarbiyaviy va estetik fazilatlarini rivojlantirish, kasbiy mahorat bilan birga ma’naviy va

---

<sup>1</sup> “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1875-сонли Президент қарори. 2012 йил 10 декабрь

shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, chet tillarni chuqur va atroflicha bilish nazarda tutilgan. Ushbu talablarni qondirish uchun mazkur yo‘nalishda, aynan chet tillarini o‘qitish metodikasida jahon tajribalarini hisobga olgan holda chuqurlashtirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, izlanishlar samaradorligini oshirish asosiy vazifalar sirasiga kiradi.

Oliy o‘quv yurtlaridagi nofilologik fakultetlarda, xususan, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishining ta’limi mazmuniga qo‘yiladigan talablar kelajakda yetishib chiqadigan mutaxassislarni chet tillaridagi nutq ko‘nikmalarini erkin muloqot darajasiga olib chiqishni hamda og‘zaki nutq (tinglab tushunish hamda gapirish) ko‘nikmalarini talabalarning kasbiy faoliyatiga yo‘naltirishda ustuvorlik berilishini o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan ta’lim mazmuni quyidagi kategoriyalarni ta’minalashni nazarda tutadi: milliy urf-odatlar va jahon madaniyatining integratsiyalashuvi; xorijiy muloqotning spontan, haqqoniy va ortiqcha tayyorgarliksiz yuzaga kelishida ustunlik berilishi; dars jarayonida AKT va pedagogik ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanish; talabaning til o‘rganish ehtiyojlarini – preferensiylarini inobatga olish va b.

Til kitob va boshqa o‘quv materiallari vositasida emas, balki tabiiy va haqiqiy – real vaqt kesimida, turli muammoli vaziyatlar, o‘quv jarayonlari va kundalik yumushlarda foydalanilganda tezroq hamda sifatliroq egallanadi.

Ta’kidlash joizki, talabalar bilim va ko‘nikmalarining y e tarli darajada rivojlantirilmaganligi holatlarida olis tuman va qishloqlardagi o‘rta maktablarda xorijiy til o‘qituvchilari tanqisligi holatlarining ta’siri borligini ham inobatga olish lozim.

Muammoning yana boshqa jihatli oliy ta’lim tizimida nofilologik fakultetlarda ingliz tili va boshqa chet tillari fanining haftadagi ulushi atigi 2 (ba’zida 4) soatni tashkil etishi, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning talab darajasida tashkil etilmasligi, ularga ijodiy yondashilmasligi, shuningdek, talabalarda avtonomlik – mustaqil o‘z ustida ishslash ko‘nikmalarining yetishmasligi kabi sabablar ham nazarda tutilishi lozim. Nofilologik ta’lim yo‘nalishini tanlagan

talabalar ta’lim jarayonida xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmasini o‘z kasb sohalari doirasida rivojlantirishlari, maxsus terminlar vositasida muloqot qilishlari, ulardan muloqot jarayonida erkin foydalanishlari talab etiladi. Biroq, ularda zarur til ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllantirilmaganligi, leksik va psixologik to‘siqlar va boshqa tashqi ta’sir etuvchi (muayyan profildagi maxsus va mukammal darajadagi o‘quv adabiyotlari, darslik va qo‘llanmalarning yetarli emasligi) faktorlar bu jarayonga to‘siq bo‘layotgan sabablardan hisoblanadi.

Ana shu jihatlarni nazarda tutib tayyorlangan ushbu qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha «Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi»<sup>2</sup> Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’oriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga muayyan darajada xizmat qiladi.

## **I BOB. TALABALARING XORIJIY TILDAGI OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK- LINGVODIDAKTIK ASOSLARI**

---

<sup>2</sup> 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги фармон

## **1.1. Nofilologik yo‘nalish talabalarining xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari**

Dunyo hamjamiyatida o‘qituvchi faoliyati, uning ijodkorligi, innovatsiyali texnologiyalar, g‘oyalar, maktablar, yo‘nalishlar borasida izlanishlar jadal ketmoqda. Jumladan, xorijlik olimlardan I.Johnson<sup>3</sup> (San-Franciko) ijodiy ta’limni tashkil etish, Bandura A., Paulson Stone (Massachusetts, USA) ona tilini o‘rganishda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati, Hernan Avila (Kolumbiya) ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda sinfdan tashqari ishlar, Jocelyn Howard (USA) o‘qituvchi faoliyatini loyihalashning metodik imkoniyatlari, Lars Yacob (Britaniya) o‘qituvchi va o‘quvchi istiqbollari, Mariya Bajaras (Ispaniya, Erasmus +, Strategic Partnerships for higher education, 2017-2019 Project

---

<sup>3</sup> Creative Teaching: Using Creative Teaching Methods in a Student-centered ESL Environment. Ivy Johnson. ivy.m.johnson@gmail.com; Bandura A. (Ed.). Self-efficacy in changing societies.- New York: Cambridge University Press, 1995.; John H. Holland Redwood City, California.- Addison-Wesley, 1998; Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L. C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. №2. - P.176-188.; A professional development program for the mother tonguebased teacher: addressing teacher knowledge and attitudes about mtbmle A Dissertation Presented by Rebecca Paulson Stone [https://scholarworks.umass.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1593&context=open\\_access\\_dissertations.](https://scholarworks.umass.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1593&context=open_access_dissertations.); Avila, H. A. (2015). Creativity in the English class: Activities to promote EFL learning. HOW, 22(2), 91-103. This article is licensed under a Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License. License Deed can be consulted at <http://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0./>; Mario Barajas, Frédérique Frossard (University of Barcelona). Docent - digital creativity enhanced in teacher education. Framework of digital creative teaching competences. This project has been funded with support from the European Commission.; Larsen, Lars Jacob Ege, "Teacher and student perspectives on a blended learning intensive English program writing course" (2012). Graduate Theses and Dissertations. 12375. <https://lib.dr.iastate.edu/etd/12375>; UNIVERSITAT ROVIRA IVIRGILI THEACHER TRAINING IN ICT-BASED LEARNING SETTINGS. DESING AND IMPLEMENTATION OF AN ON-LINE INSTRUCTIONAL MODEL FOR ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. DOCTORAL THESIS. Maria del Mar Camacho i Mart. ISBN: 978-84-690-7634 / DL: T.1394-2007; Peter Edelenbos, Richard Johnstone. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners Languages for the children of Europe. Published Research, Good Practice & Main Principles; Amiri F. IT-literacy for language teachers: should it include computer programming System, Volume 28, Issue 1, 2015, -P. 7784.; Demetriadis S. "Cultures in negotiation": teachers' acceptance/resistance attitudes considering the infusion of technology into schools, Computers and Education, Volume 41, Issue 1, 2013, -P. 19-37.; Wong S.L., Ab Jalil H., Fauzi Mohd Ayub A., Abu Bakar K., Tang S.H. Teaching a discrete information technology course in a constructivist learning environment: is it effective for Malaysian pre-service teachers? The Internet and Higher Education, Volume 6, Issue 2, 2003. -P. 193-204.

number: 2017-1-IT02-KA203- 036807) ta’limda raqamli ijodkorlik, Maria del Mar Camacho Marti (Nyu York) AKTga asoslangan sharoitda o‘qituvchining faoliyatini loyihalash, Peter Edelenbos, Richard Jonstone (Yevropa ta’lim va madaniyat komissiyasi) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda tilga o‘rgatish, F.Amari o‘qituvchilar dasturiy vositalardan foydalanish, S.Wond o‘qituvchilar fe’l-atvori va muloqotga kirishish darajasi, S.Demetriadis ona tili ta’limida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish bo‘yicha qator tadqiqotlarni amalgalashishga.

O‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, muammoli ta’lim, ta’limni ijodiy tashkil etish, bolalar ijodkorligi, intuitsiya, diskursiv fikrlash “harakat va tafakkur”, bolalar ijodkorligi kompleks psixologik hodisa sifatida T.S.Krasota, N.A.Lashkarova, T.I.Shamova, I.P.Volkov, I.V.Dorno, V.V.Matkin, M.I.Maxmutov, F.Y.Baykov, L.A.Venger va A.L.Venger, Y.A. Ponomarevlar<sup>4</sup> tadqiq qilgan.

Xorijiy tilni intensiv o‘qitishni o‘rgatishdan asosiy maqsad – bo‘lg‘usi mutaxassislarda kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida chet tili yoki bir necha tillardan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlash. Shu bilan birga, ularda vatanparvarlik hissini rivojlantirish, mustaqil izlanish, bilim va ko‘nikmalarini darsdan tashqari, OTMni bitirganlaridan keyin ham rivojlantirish malakalarini hamda umumbashariy va sohaga oid ilmiy mavzularda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar ilgari suriladi:

- talabalarning nutqiy (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til

---

<sup>4</sup> Красота Т.С. Методика активизации мыслительной деятельности учащихся при изучении темы “Имя существительное” в 5-классах. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ленинград, 1979. -18 с.; Лашкарова Н.А. Роль межпредметных связей в повышении самостоятельности к творческой активности учащихся на уроках русского языка. – М.: 1970. -142 с.; Шамова Т.И. Активизация обучения школьников. – М.: Педагогика, 1982. -208 с. Вольков И.П. Учим творчеству // Педагогический поиск. – М.: Педагогика, 1987. -с. 101-140.; Дорно И.В. Проблемное обучения в школе. – М.: Просвещение, 1984. -31 с.; Маткин В.В. Межпредметные проблемные познавательные задачи как средство формирования интереса к творческой деятельности школьников. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. –М.: 1977. -28 с.; Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. –М.: Просвещение, 1977. -240 с.; Байков Ф.Я. Учение и творчество. – Л.: Лениниздат, 1979. - 149 с.; Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления. – М.: Знание, 1985. -80 с.; Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика. М.: Педагогика, 1976. -280 с.

(leksik, grammatik), ijtimoiy- madaniy va pragmatik kompetensiyalarini DTS talablariga binoan rivojlantirish;

– ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog‘liq mavzular yuzasidan og‘zaki va yozma ravishda bayon etish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

– umumbashariy va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, madaniyatlararo bag‘rikenglik va millatlararo hamdo‘stlik hislarini singdirish;

– ilmiy va kasbiy faoliyatda qo‘llaniladigan termin va atamalarni o‘rgatish;

– talabalarning ilmiy va sohaviy yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarini tashkil etish.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyida keltirilgan talablar qo‘yiladi. Davlat ta’lim standartlariga ko‘ra chet tili bo‘yicha B2 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar asosida zaruriy kompetensiyalarni egallash ko‘zda tutilgan.

Ma’lumki, og‘zaki nutq – nutq faoliyatining bir turi bo‘lib, tovushlar orqali yuzaga keluvchi va ushbu oqimni tushunish (tinglab tushunish) va xuddi shu tarzda tovushlar yordamida o‘z fikrlarini bayon qilish (gapishtirish) ko‘nikmasini o‘z ichiga oladi. Og‘zaki nutq doimiy ravishda nutq vaziyati orqali yuzaga chiqadi. Ilmiy adabiyotlarda og‘zaki nutq ko‘nikmasi va malakasi tushunchalari mavjud.

Xorijiy og‘zaki nutqni o‘qitish tizimining poydevori sifatida A.A.Leontev ushbu ikki tushunchalar ta’rifiga alohida to‘xtalib o‘tadi: „ko‘nikma – nutq operatsiyalarini, malaka – nutq faoliyatini amalga oshirish bilan belgilanadi, bunda nutq faoliyati – o‘zida muayyan vaziyatdan kelib chiqqan maqsadni qamrab olgan muloqotning minimal birligi demakdir”.

Demak, nutq ko‘nikmasi deganda, avtomatlashtirilgan operatsiyalarini muayyan darajada amalga oshirish qobiliyatini tushunamiz.

Ko‘nikma – takrorlash orqali mukammal darajaga yetkazilgan bilimlar majmuasi. Bunda har qanday faoliyat usuli, mustaqil harakat qila olish bosqichidan o‘tgan holda doimiy takrorlashlar natijasida

ko‘nikmaga aylanadi. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini avtomatlashgan holda boshqarish ushbu jarayonda yuqori sifat darajasida yetgandagina yuzaga keladi hamda mazkur pog‘onada nutq faoliyati turlari, ya’ni gapishtirish va tinglab tushunish malakalarini rivojlantirish imkoniy yaratiladi. Ko‘nikma psixolingvistik fenomen sifatida ongli va avtomatlashganlik, o‘zgaruvchanlik va chidamlilik, takrorlash va aniqlik kabilalar bilan xarakterlanadi.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalari tushunchasi doirasida biz gapishtirish – nutqning produktiv faoliyat turini, shuningdek, muloqotning ikkinchi ajralmas retseptiv kismi bo‘lgan tinglab tushunish ko‘nikmalarining mujassamligini tushunamiz. Zero gapishtirish ko‘nikmasi tinglab tushunish ko‘nikmasi bilan uyg‘unlikda og‘zaki nutq muloqot jarayonini yuzaga keltiradi. Og‘zaki nutq asosida gapishtirish va tinglab tushunish ko‘nikmalari yotadi.

Ko‘nikma – mukammallik, xatosiz bajarish darajasida yetkazilgan operatsiya turidir.

Nutq ko‘nikmalari – nutq faoliyatini amalga oshiradi, u esa o‘z o‘rnida nutq operatsiyalari va nutqiy harakatlarni o‘z ichiga oladi. Nutq ko‘nikmasining asosiy hususiyatlari kuyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) avtomatlashganlik – faoliyatning muayyan tezlikda amalga oshirilishi, uning butunligi, til o‘rganuvchida jarayonga qo‘shilish uchun tayyorgarlik darajasi;

2) moslashuvchanlik – o‘rganuvchi tomonidan ko‘nikmani yangi kutilmagan vaziyatlarda qo’llay olish, yangi til materialiga tarqatish uchun malaka;

3) chidamlilik – mustahkamlik;

4) ongli ravishda bajarish – muayyan xatolik yoki fikrlarni ifodalash jarayonida qiyinchilik paydo bo‘lishida o‘rganuvchi tomonidan anglangan nazorat qilish faoliyati.


O‘z o‘rnida «nutq kompetensiyasi» tushunchasi ham mavjud bo‘lib, uni tadqiqotchilar Azimov va Щукин "bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlar va fazilatlarning birikmasi (shaxsiy va kasbiy jihatdan), shuningdek, yangi bilim va tajribaga ega bo‘lish qobiliyati va ularni hayotga tadbiq etishga tayyorlik" sifatida izohlasa, I.A.Zimnya uni — bilimga


asoslangan, intellektual va shaxsga asoslangan ijtimoiy va kasbiy hayotiy faoliyat sifatida ta’rif beradi.

Nutq kompetensiyasi – nutq faoliyati turlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarning yig‘indisi sifatida tushuniladi, nutqiy kompetentlik esa, ushbu faoliyatni bajarish qobiliyatini aks ettiruvchi omil sifatida qaraladi. Demak, nutq kompetensiyasi – nutqiy amaliyotni bajarish uchun zarur bo‘lgan deklarativ va operatsion bilim, ko‘nikma va fazilatlarni safarbar qilish malakasi va tayyorgarligi, nutqiy faoliyatga yo‘naltirilgan harakatlarni amalga oshirish va ushbu faoliyatni egallash tayyorgarligini ta’minlovchi ajralmas komponent bo‘lib, unda kasbiy tayyorgarlik va o‘z-o‘zini takomillashtirish pirovard maqsad sifatida tushuniladi.

Xorijiy til ta’limidagi *kompetensiya* tushunchasi tor ma’noda chet tilini o‘qitish jarayonida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi bo‘lsa, keng doirada til bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy yo‘naltirilgan egallash darajasi demakdir. Biz kompetensiyani ma’lum ko‘nikma va malakalarni kompleks rivojlantirishni nazarda tutuvchi xorijiy til bilim, ko‘nikma va malakalarning umumiyligi komponenti deb ta’riflaymiz. Buni quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

### Kompetensiyaning tashqi tuzilishi





Og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish o‘z ichida tinglab tushunish va gapishtik ko‘nikmasini qamrab oladi. Gapishtik ko‘nikmasining asosiy komponentlari monologik va dialogik nutq ushbu jarayonning asosiy komponentlaridir. Xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirish masalasi va uning psixologik komponentlari taniqli jahon psixologlari P.Y.Galperin, V.V.Davidova, L.V.Zankova, A.N.Leontev, D.B.Elkonina, Vigotskiy, Artyomova, Jinkina va boshqalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, ushbu jarayonning lingvovidaktik jihatlari Galskova, Bim, Spatskiy kabi yetakchi tilshunos olimlar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Olib borgan ilmiy izlanishlarimiz hamda kuzatishlarimizdan shunga amin bo‘ldikki, oliy o‘quv yurtlarining filologiya bo‘lmagan talabalarida chet tilida so‘zlash malakalarini rivojlantirishga bir qancha psixologik, lingvistik va didaktik omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni tushunish o‘qituvchilarga o‘quvchilarning nutq qobiliyatini oshirish uchun samarali o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Chet tilida so‘zlashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy pedagogik va psixologik, lingvistik va didaktik asoslari mavjud.

### **Pedagogik va psixologik asoslar:**

1. Motivatsiya: motivatsiya til o‘rganish va nutq mahoratini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tilga shaxsiy qiziqish yoki tilda maqsadli so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish istagi kabi ichki motivatsiya talabalarning nutq qobiliyatlarini oshiradi. O‘qituvchilar ichki motivatsiyani rag‘batlantiradigan va tildan foydalanish uchun mazmunli kontekstlarni ta’minlaydigan ijobiy ta’lim muhitini yaratishi kerak.

2. O‘ziga ishonch va samaradorlik: o‘rganuvchilarda chet tilida gapishtiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash juda muhimdir. Talabalarda xato qilish yoki boshqalar tomonidan tanqid qilinishidan qo‘rqish, o‘ziga ishonchsizlik bo‘lishi mumkin. Qo‘llab-quvvatlovchi va tanqidsiz auditoriya muhitini yaratish til o‘rganuvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga yordam beradi va o‘z fikrlarini og‘zaki ifoda yetishda qulayroq bo‘ladi. Ortib borayotgan fikr-mulohazalarni tan olish ularning gapishtiga bo‘lgan ishonchini oshirishi mumkin.

3. Nutq jarayonidagi hayajonni boshqarish: chet tilida to‘g‘ri so‘zlash tashvishi talabalarning rivojlanishiga to‘sinqilik qilishi mumkin. O‘qituvchilar talabalarga tashvishlarni boshqarishda yordam berish uchun strategiyalarni qo‘llashlari kerak, masalan, ularni asta-sekin nutq faoliyatiga jalb qilish, aniq ko‘rsatmalar va kutishlarni ta’minlash, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish. Chuqur nafas olish mashqlari, vizualizatsiya va ijobiy o‘z-o‘zidan gapishtiga kabi texnikalar ham o‘rganuvchilarga tashvishlarni kamaytirishga yordam beradi.

### **Lingvistik asoslar:**

1. Fonetika va talaffuz: to‘g‘ri talaffuz va intonatsiya qoidalarini ishlab chiqish samarali og‘zaki muloqot uchun juda muhimdir. Filolog bo‘limgan talabalar o‘rganilayotgan tilning fonetik xususiyatlarini o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. O‘qituvchilar fonetik tovushlar, ritm, urg‘u va intonatsiyani aniq ko‘rsatma, boshqariladigan amaliyot va tinglash faoliyati orqali o‘rgatishlari kerak.

2. Lug‘at va grammatika: fikr va g‘oyalarni ravon ifodalash uchun lug‘at va grammatikada mustahkam poydevor zarur. Filolog bo‘limgan talabalar lug‘at va grammatik tuzilmalarni o‘zlashtirish bo‘yicha aniq ko‘rsatma va amaliyotni talab qilishi mumkin. O‘qituvchilar kommunikativ nutq faoliyati orqali talabalarning so‘z boyligini kengaytirish va grammatikani mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar yaratishi kerak.

### **Didaktik asoslar:**

1. Kommunikativ yondashuv: kommunikativ yondashuv real hayotdagi muloqot uchun tildan foydalanishga urg‘u beradi. Bu interfaol va mazmunli nutq faoliyatini targ‘ib qiladi, bu yerda talabalar haqiqiy

vazifalar va almashinuvlar bilan shug‘ullanadilar. O‘qituvchilar real vaziyatni tanqid qiladigan va talabalar uchun maqsadli tilda o‘z fikrlarini ifoda yetishga undaydigan kommunikativ vazifalarni ishlab chiqishlari kerak.

2. Vazifaga asoslangan ta’lim: vazifalarga asoslangan ta’lim maqsadli tildan foydalangan holda aniq maqsadlarga erishish yoki vazifalarni bajarishga qaratilgan. Talabalarning ilmiy va kasbiy sharoitlariga mos keladigan va maqsadli nutq vazifalarini ishlab chiqish ularning motivatsiyasi va faolligini oshirishi mumkin. Vazifalar rolli o‘yinlar, taqdimotlar, bahs-munozaralar va muammoli ishlarni o‘z ichiga oladi, bu o‘rganuvchilarga nutqni mazmunli tarzda mashq qilish imkoniyatini beradi.

3. Juftlik va guruhli ish: filolog bo‘lmagan talabalar hamkorlikda nutq amaliyoti imkoniyatlaridan foydalanadilar. Juftlik va guruhdagi ishlar o‘zaro munosabatlarni rivojlantiradi va o‘rganuvchilarga bir-biridan o‘rganish imkonini beradi. O‘qituvchilar talabalar o‘rtasida hamkorlik, muzokaralar va munozaralarni talab qiladigan tuzilgan nutq vazifalarini ishlab chiqishlari, tengdoshlarining o‘zaro ta’siri orqali nutq qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak.

4. Haqiqiy materiallar: audioyozuvlар, videolar, maqolalar va hayotiy matnlар kabi haqiqiy materiallardan foydalanish nofilologik yo‘nalishdagi talabalarni maqsadli tildan tabiiy foydalanishga olib boradi. Haqiqiy materiallar mazmunli nutq amaliyoti uchun kontekstni ta’minlaydi va talabalarni asl til vositalari, so‘z boyligi va madaniy jihatlari bilan tanishtiradi.

5. Texnologiya integratsiyasi: til o‘rganishga texnologiyani kiritish nutq qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Raqamli vositalar, til o‘rganish ilovalari va onlayn resurslar o‘rganuvchilarga interaktiv mashqlar, virtual suhbatlar va multimedia kontenti orqali so‘zlashni mashq qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Video konferentsiya platformalari, shuningdek, ona tilida so‘zlashuvchilar yoki til almashinuvi bo‘yicha hamkorlar bilan real vaqtida muloqotni osonlashtirishi mumkin.

Pedagoglar yuqorida muhokama qilingan psixologik, lingvistik va didaktik asoslarni hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasalarining filolog bo‘limgan talabalarida chet tilida so‘zlashish malakalarini rivojlantirish uchun samarali o‘qitish usullarini ishlab chiqishlari mumkin. Qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish, mazmunli nutq vazifalarini taqdim etish va individual ehtiyojlarni qondirish talabalarga maqsadli tilda ishonchli va malakali so‘zlashuvchi bo‘lishga yordam beradi.

A.N.Shukin til o‘rganish jarayoni asosini mehnatni rivojlantirish, o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi tomonidan ta’lim jarayonini teng boshqarish va o‘z ustida ishslash qobiliyatini shakllantirish; atrof-muhitdagi real voqeа-hodisalarning mashg‘ulotlarda aks etish imkoniyatlarini tashkil qilishini qayd etadi. A.A.Mirolyubov o‘z ishida gumanistik pozitsiyada qo‘llab-quvvatlagani holda o‘qituvchi tomonidan pedagogik ta’sir nafaqat ta’lim oluvchining bilim va ko‘nikmalariga, shu bilan birga ta’lim sifati rivojlanishi uchun tashqi sharoitlar (ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar tizimi, darsdan tashqari ta’lim komponentlari va boshqalarni yaratishga yo‘naltirilishni yoqlab chiqadi.

I.K.Bekasov xorijiy til o‘rganish, unda erkin muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish doirasida, talabalar bilan chet el tilida real aloqani ta’minlay oladigan internet texnologiyalarini (Skype dasturi, videokonferentsiyalar) joriy etish asosida chet tillarini o‘qitish jarayonini takomillashtirish jarayonini ko‘rib chiqdi. Bugungi kunda talabalar va til o‘rganuvchilar tomonidan chet tillarini rivojlantirishning maqbul vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Shu bilan birga ushbu texnikani joriy etish, psixologik va texnik sharoitlar kombinatsiyasi yaratilganligi jarayonga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi deb ta’kidlaydi.

Oliy ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishning asosiy maqsadlari til o‘rganuvchilarning bilim darajasiga, kasbiy yo‘nalishiga qarab farqlanadi. Oliy o‘quv yurti talabalariga ingliz tilini o‘qitish ularning ta’lim yo‘nalishlarini nazarda tutgan holda I bosqichda o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishga, o‘z kasbiy sohasi doirasida xorijiy adabiyotlarni o‘qib tushunishni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Biroq ta’lim oluvchi har qanday chet tilini o‘rganish jarayoniga kirishishi bilan,

birinchi navbatda, unda ushbu tilda so‘zlashish ehtiyoji paydo bo‘ladi.

Tabiiy muloqot - so‘zlovchilarda gapisish uchun zarurat hosil bo‘lganda, vaziyat yoki holat ushbu jarayonni yuzaga keltirgandagina paydo bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotlarida esa motiv vaziyat shartiga ko‘ra emas, ko‘pincha o‘qituvchining buyrug‘i ostida hosil bo‘ladi. Natijada faqat shakl jihatidan mavjud bo‘lgan fiktiv nutq yuzaga keladi. Ta’kidlash joizki, ko‘nikmaning shakllanishi hamda

Rivojlanishida motivatsiya sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Demak, ushbu jarayonning muvafaqqiyatli bo‘lishida motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash hamda uni kuchaytirish zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Xorijiy og‘zaki nutqni o‘qitish metodikasi tarixida ushbu masalaga turli davrlarda turlicha yondashilganini ko‘rish mumkin. Buni bir qancha davrlarda jamoat tomonidan chet tilidan foydalanishda ijtimoiy talabning o‘zgarib turganligi bilan bog‘liqdir.

XX asr boshida ziyoli oilalarda farzandlarga xorijiy tillarni o‘rgatishga ahamiyat qaratilgan bo‘lsa, Sovet Ittifoqi davriga kelib til o‘qituvchilari tomonidan xorijiy tilni fan sifatida saqlab qolish uchun maxsus tizimlar ishlab chiqishga to‘g‘ri kelgan. 90-yillarga kelib o‘rta maktablarda xorijiy til ta’limi yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda texnologiya va axborot dunyosida ijtimoiy tarmoqlar, xalqaro a’loqalar, hususan, talabalar almashinuvi, xorij mamlakatlarida o‘qish, ishslash va tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi talabalarning madaniyat va millatlararo muloqot qilish vazifasini ilgari surmoqda. Tabiiyki, kasbiy mutaxassisligidan qat’iy nazar oliv o‘quv yurti talabalari, shu jumladan, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarning o‘rganilayotgan chet tilida muloqot qilish ko‘nikmasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tildagi og‘zaki nutqni rivojlantirish vazifasi chet tili o‘qitish metodikasining bugungi kun bosqichida eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan deyishimiz uchun yetarlicha asos bo‘la oladi.

Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyati – ularda o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish xamda suxbatdosh tomonidan uzatilayotgan xabar yoki ma’lumotlarni eshitish orkali kiyinchiliklarsiz

tushunish, ya’ni tildan kommunikativ maksadlarda foydalana olish darajasiga olib chiqish, o‘z kasbiy mutaxassisligi doirasida muloqot qilishga o‘rgatish hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish quyidagi nutq malakalarini o‘zlashtirishni nazarda tutadi:

- muloqot jarayonida yuzaga keladigan nutq vaziyatlariga to‘g‘ri va tezda moslasha olish ;
- muloqotni adekvat yuzaga keltirish, qo‘llab-quvvatlash hamda yakunlash;
- bayonotning maqsadini aniqlash, uni mantiqiy va uzviylikda tuzish;
- fikrni ifodalashda to‘g‘ri vositalardni tanlash kasbiy atamalar (terminlardan) foydalanish;
- o‘z nuqtai nazarini bayonot maqsadidan kelib chiqqan holda isbotlay olish, himoya qilish hamda muhokama qila olish;
- munozara va bahslarda, real vaqt kesimida sodir bo‘layotgan jarayon voqeа-hodisalar haqida o‘z munosabatini tasvirlash;
- o‘rganilayotgan xorijiy tildan o‘z kasbiy sohasi doirasida foydalanish.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini oliy ta’limning boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida rivojlantirish mazkur kasbiy yo‘nalish profilidan kelib chiqqan holda quyidagi og‘zaki nutq malakalarini nazarda tutadi:

- tinglab tushunish orqali qabul qilingan ma’lumotlarni xabar, ma’ruza, xulosa, bayonot ko‘rinishida og‘zaki ifodalay olish;
- o‘rganilayotgan xorijiy tildan o‘z kasbiy mutaxassisligi doirasida loyiha ishlari, statistik bayonotlar tuzishda, biznes-uchrashuvlarda, foydalana olish;
- turli manbalardan yig‘ilgan ma’lumotlarni umumlashtirish va undan hulosa chiqara olish.

Ushbu og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borilishi nazarda tutilishi lozim:

- autentik materiallar (audio matn, videomaterial, axborot tinglash; xorijiy ommaviy axborot vositalari, tematik lavhalar) bilan ishslashda lug‘aviy-fraezologik ishlar;
- turli mavzularda monologik bayonot tuzishga o‘rgatish mashqlari;

- nutq vaziyatlarida yaratilgan harakat va holatlar ustida dialogik muloqot qilishni rivojlantirish;
- amaliy ingliz tili distsiplinasida xorijiy til mashg‘ulotlarini boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligini faollashtirish.

Tilshunos-psixologlar tomonidan xorijiy tilni o‘zlashtirishning muhim elementi sifatida ko‘rsatma quollariga ham alohida ta’rif beriladi. Ular yordamida til o‘rganuvchilarga psixologik vizual ta’sir o‘tkaziladi va dars jarayoniga o‘zgacha ruh kiritiladi. Bunda talabalarda til o‘rganishga qiziqish ortadi va til materiallari soni kengayadi. Ko‘rgazmali vositalar keng ma’noda barcha o‘quv vositalari – rasm, diagramma, matn, film, audio-vizual effektlar bilan bir qatorda, ma’lumotni yetkazib beruvchi hamda o‘zida nutq va kommunikativ maqsadlarni aks ettirgan shart-sharoitlarni yaratishni ham tushunish mumkin.

Psixologik omillarga ta’sir etuvchi ba’zi fiziologik omillar ham mavjudki, bularga talabaning yoshi, sog‘lig‘i, aqliy va jismoniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari kabilar kiradi. Shuningdek, ta’limiy o‘yin turlaridan, munozara, ma’ruza, intervyu shakllarini ham uyg‘unlashtirgan holda tadbiq etish mumkin.

Xorijiy tilni o‘qitishda ta’limiy o‘yinlarning o‘rni va samaradorligi g‘oyatda muhim. Ular tilni tabiiy ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy o‘yinlar boshqa turdan farqli jihatni unda tizimlilik bilan bir qatorda kutilmagan vaziyatlar — spontanlik xos bo‘ladi. Bunda talabandan xorijiy tildagi so‘zamollik, tasodifiy savollarga tezkorlik bilan javob qaytarish talab etiladi.

Xorijiy til mashg‘ulotlarida o‘yinlardan foydalanish tildan tabiiy va ixtiyoriy foydalanishga, “xorijiy til muhiti”ni yaratishga yordam beradi. Ta’limiy o‘yinlarda talabalar real hayotdagi vaziyatlarni o‘zga tilda aks ettirib bera olishga harakat qilishadi. O‘yinlar vositasida darsdagi qo‘rquv, guruh oldida so‘zlash va xato qilib qo‘yishdan uyalish kabi psixologik bar’erlarni bartaraf etiladi. Guruh a’zolarida o‘z kuchiga bo‘lgan ishonch va g‘alaba sari mas’uliyat hissi uyg‘onadi. Darsda har bir talabaning bilim darajasidan qat’iy nazar tenglik ta’minlanishi,

guruhda do'stona muhit yaratish xorijiy tilda erkin muloqot jarayonining asosiy poydevori hisoblanadi.

Og'zaki muloqot jarayonida tinglovchi va so'zlovchi doimiy ravishda nutq tovushlari orqali ifodalanayotgan xabar va ma'lumotlarni tushunish hamda bunga javoban o'z fikr-mulohazalarini bildirishi taqozo etiladi. Demak, ishtirokchilardan og'zaki nutqning har ikki shaklini gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini mukammal egallashlari talab etiladi.

Og'zaki nutq ikki qirrali murakkab jarayon bo'lib, so'zlovchi va tinglovchining diqqat-e'tibori bir tomondan o'zganing nutqini tinglab tushunishga, boshqa tomondan esa unga javoban o'z fikrlarini ifodalab olishda namoyon bo'ladi. Bunda so'zlashish uchun tayyorgarlik darajasi qaydarajada bo'lishidan qat'iy nazar, o'zga nutqini anglash jarayoni bilan bir vaqtda sodir bo'ladi.

Ushbu ketma-ketlik orasidagi interval suhbatdoshning nutqini tinglab tushunish uchun, shuningdek, javoban tematik va nutqiy javob qaytarishga tayyorlanishga safarbar etiladi. Shu jihatdan og'zaki nutq ustida ishslashda nutq hosil bo'lishi va qabul qilinishi, ularning o'zaro ta'sir mexanizmining psixologik xususiyatlarini nazarda tutish talab etiladi.

Afsuski, oliy ta'limning nofilologik yo'nalish talabalariga xorijiy tillarni o'qitishda og'zaki nutqning ushbu jihatlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmaydi. Xorijiy til mashg'ulotlarida, matn asosiy ta'lim vositasi sifatida, o'qish orqali ma'lumot olish, yozish uchun namuna, so'zlashish ko'nikmasini rivojlantirishda mazmunini gapirib berish, muhokama qilish manbai bo'lib xizmat qiladi. Matnning ta'limiy ahamiyati muhim ekanligini ta'kidlagan holda biz oliy ta'imning nofilologik yo'nalish talabalariga xorijiy til o'qitishda kommunikativ faoliyatni tashkil qilishning mazkur ko'rinishida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish talab darajasida amalga oshirilmaydi.

Tinglab tushunish va gapirish faoliyati til o'rganuvchilarning muloqot jarayonining tashqi ekstralengvistik faktorlar, ko'rish orqali vaziyatni idrok etish, tasavvur, mantiq kabi psixofiziologik jihatlarini ham qamrab olishni taqozo etadi. Ayniqsa, tinglab tushunish

ko‘nikmalarini rivojlantirish nutq analizatorlarining sinteziga asoslanadi, qabul qilinayotgan xabar va ma’lumot nafaqat eshitish, shu bilan birga, ko‘rish orqali namoyon bo‘ladi, asl mohiyat anglab yetiladi.

Davlat ta’lim standartlarida \_OTM talabalarining xorijiy tilda turli munozara va muhokamalarda ishtirok etishi, unda o‘z pozitsiyasini dalillab bera olishi va boshqa fikrlarga tanqidiy fikr bildirishi asnosida so‘zlashuv faoliyatining monolog, dialog va polilog shakllarini egallashi nazarda tutiladi. Nofilologik yo‘nalish talabalarining umumiyligi minimumda *350 ta aktiv hamda 350 ta passiv, kasbiy leksikasida 100 ta aktiv – jami 800 ta leksik minimumga* (nutq ko‘nikmalari, turg‘un so‘z birikmalari, nutqiy va kasbiy terminlar) ega bo‘lishi talab etiladi. Ushbu jihatlar nofilologik talabalarning xorijiy tildagi og‘zaki nutqini rivojlantirish dolzarbligini, ushbu ko‘nikmalarni takomillashtirishda til o‘rganuvchilarning o‘z fikr- mulohaza- larini ifodalash va tanlangan til materiallari birligini yo‘naltirilgan holda faollashtirish orqali o‘zgalar fikrini tinglab tushunish maqsadlarini birlashtirgan holda muloqot amaliyotiga alohida ahamiyat qaratilishini taqozo etadi.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalari nutqning faqat og‘zaki muloqot jarayonida ishtirok etuvchi faoliyat turlarini (gapishtirish va tinglab tushunish) nazarda tutgani holda grammatik va ushbu jarayonda asosiy qiyinchilik tug‘dirishini hisobga olgan holda fonetik ko‘nikmalarni kontekst (vaziyat) nuqtai nazaridan to‘g‘ri, aniq avtomatlashgan, kommunikativ-yo‘naltirilgan, muvozanatlash- gan tarzda foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Og‘zaki nutq nutqiy faoliyat turi sifatida quyidagi parametrlari bilan xarakterlanadi:

**motiv** – gapishtirish yoki so‘zlashishga bo‘lgan ehtiyoj;

**funksiya** – tinglovchiga ta’sir o‘tkazish xarakteri; o‘z fikrlarini ifoda etish usullari;

**predmeti** – o‘zining yoki o‘zganining fikri;

**tuzilishi** – faoliyat va harakat mahsuli;

**mexanizmlari** – fikrlash, anglash, ilhomlanish, qo‘shish- aralashtirish;

**vositasi** – til va nutq materiallari;

**maxsuli** (natijasi) – monologik bayonot; dialogik nutq turlari  
**yuzaga chiqish shartlari** – nutqiy vaziyat, tayanchning mavjud yoki yo‘qligi.

Gapirish nutq faoliyati – og‘zaki nutqning ma’lumotlar uzatish shakli bo‘lib, u suhbatdoshlar orasida aloqa o‘rnatish, muloqot ishtirokchilariga kommunikativ maqsadda ta’sir o‘tkazish hamda xatolarsiz, avtomatlashgan tarzda fikrlarni bayon etishni o‘z ichiga oladi. Gapirish nutq faoliyati fikrlash va xotira ishtiroki darajasiga qarab turli murakkablik bosqichlarida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarda murakkablik darajasidagi farqlarga asosan quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Assotsiativ nutq. Ko‘pincha to‘liq anglab yetilmagan, turli vaziyatlarga asoslangan, yodlab olingan matn parchalarini bayon etish orqali ifodalangan nutq turi bo‘lib, undan fikrlar-mulohazalarini shakllantirish va rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish imkonsizdir.

2. Taqlidiy-imitativ nutq – ma’no-mazmun jihatlari anglangan holda qabul qilingan nutqni takrorlash.

3. Reaktiv yoki javoban bayon etilgan nutq – tashqi stimulga reaktsiyani namoyon etadi. Ichki ehtiyoj bunda butunlay talab etilmaydi yoki ikkinchi darajali o‘rin tutadi.

4. Initsiativ yoki spontan nutq. Undan foydalangan holda so‘zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda til belgilarini mutanosib tarkib bilan ongli ravishda birlashtiradi. Fikr-mulohazalarini shakllantirishda so‘zlovchi shaxsiy tashabbusdan\_kelib chiqqan holda til materiallarini va tilning ifoda vositalarini mustaqil belgilaydi.

Og‘zaki nutq mahsuli nafaqat shakl jihatdan balki mazmunan kutilgan darajada, yuqori saviyada bo‘lishi uchun uning yaratilishi hamda rivojlanishi jarayonida motiv bo‘lishi talab etiladi, ya’ni so‘zlovchining muloqotga ishtirok etish istagi. Bu istak paydo

bo‘lishi uchun xorijiy til mashg‘ulotlarida nutqiy vaziyat yaratib berish zarur. Xorijiy tildagi og‘zaki nutq jarayonida esa nofilologik yo‘nalish talabalari butun diqqatini — nimani aytishga emas, qanday aytishga qaratgani holda o‘z mulohazalarini izohlash, tanqidiy tahlil qilishni taqozo etuvchi nutq vaziyatlarida bayonotning tarkibiy

tarkibiga e'tibor qaratish vazifasini uddalay olmaydi. Nofilologik yo'naliш talabalari uchun ushbu jarayondagi eng asosiy masala (ba'zi o'rnlarda to'sqinlik qiluvchi omil) o'z fikrlarini to'liq, izchil va mantiqiy uzviylikda ifodalash hamda uni tashkil etishda lisoniy vositalardan to'g'ri va samarali foydalana olish hisoblanadi. Muammoning tub mohiyati shundaki, talabalarning ona tilida bayon etilgan nutqida asosiy e'tibor tarkibga – ya'ni, nimani aytishga va qay tartibda aytishga qaratiladi. Kerakli til vositalarini tanlash va foydalanish ularni operativ xotirada saqlash – avtomatlashgan tarzda – so'zlovchining ongli nazoratisiz amalga oshadi.

Nutqiy vaziyat – bu so'zlovchida gapirish uchun turtki bo'la oladigan, uni bu jarayonga qiziqtiradigan vaziyat turi hisoblanadi. Og'zaki nutq uni rivojlantiruvchi vaziyat va shart-sharoitlar bilan chambarchas bog'liqdir, ya'ni muloqotning maqsad va motivi, muloqot ishtirokchilarining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy mavqeい, yoshi, aqliy salohiyati, ekstralivingistik va boshqa shu kabi aniq tarkibiy jihatlar.

Yuqoridagilarning barchasi muloqot vaziyatini belgilangan rejaga asosan zarur hamda yetarli bo'lgan nutqiy hamda nutqqa oid bo'limgan shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unligini taminlaydi.

Yuqori darajada rivojlantirilgan ko'nikma deyarli nutq jarayonida ongli ravishda amalga oshirilmaydi, biroq muayyan kommunikativ qiyinchiliklarga duch kelinganda yana qayta ong orqali ishga tushadi. Aksincha yetarli darajada avtomatizm bosqichida rivojlantirilmagan nutq ko'nikmalari talabalarning og'zaki muloqot jarayonida muammolarga duch keltirganida aqliy diskursiv-mantiqiy operatsiyalarining psixologik asosiga tayangan lisoniy ko'nikmalar yordamga keladi. Xorijiy til ta'limida ushbu turdagи lisoniy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish muayyan lingvistik bilimlarga asoslangan turli diskursiv til operatsiyalarini bajarish jarayoniga tayanadi.

Og'zaki nutq ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini quyidagi ichki va tashqi kriteriyalar asosida aniqlash mumkin:

**a) tashqi kriteriyalar:** nutqning soғligi (og'zaki bayonotni tuzishda lisoniy va nutqiy ko'nikmalarning mukammalligi va sifati (xatosizligi); temp (alohida operatsiyalarini bajarish tezligi, o'z ona tili bilan

taqqoslaganda chet tilidagi so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatish va qo‘llashda uzviylik, kontekst mazmunidan kelib chiqib tartib bilan foydalana olish);

**b) ichki kriteriyalar:** faoliyatni bajarish shaklida ongning yo‘naltirilganligi; jarayonda zo‘riqmaslik va oraliq talaffuz operatsiyalarini bajarishda musbatlik.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalarining mukammal rivojlanish darjasи (uzoq muddatli xotiradagi xorijiy tildagi so‘zlardan foydalanish ko‘nikmasi; so‘zlarni tanlay olish, ya’ni xorijiy sinonimiyanı ishlata olish ko‘nikmasi; operativ xotirada muayyan hajmdagi xorijiy til birliklarini saqlab tura olish qobiliyati; berilgan savolga to‘g‘ri reaksiya ko‘rsatish ko‘nikmasi). Talabalar og‘zaki bayonida yuzaga keluvchi xatolar sonining kamligi va nutqning yuqori tempda bo‘lishini taqozo etadi.

Chet tilida o‘z fikrlarini ifodalashda talaba o‘z ona tilisidan tarjima qilish zaruratining tug‘ilishi – nutqni hosil qilishda ko‘proq ichki nutq (xorijiy tildagi) asosiy o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Bu esa talabadagi nutq ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlantirilmaganligi dalolatidir. Og‘zaki nutq ko‘nikmalari tarkibidagi operatsiyalar avtomatlashganlik bosqichda bo‘lishi, uning nutq vaziyatlariga muvofiq tarzda ishlatalishi, yangi(viriativ) sharoitlarda o‘z sifatini saqlab qola olishi rivojlanganlik xususiyatini tasdiqlay oladi.

Ta’kidlash joizki, oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda kommunikativ yondashuv og‘zaki nutq ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda quyidagi asosiy shartlarni ilgari suradi:

- muntazam nutqiy amaliyot (amalda qo‘llash);
- mashg‘ulotlarda nutqiy muloqotning barcha shakl va turlarini tashkillashtirish
- bunda talabalarning ehtiyoj va talablaridan kelib chiqqan holda yondashish va hokazo.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasida o‘rganilayotgan chet tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilishni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligi, shuningdek, talabalarning tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan tanishish va uni muloqot jarayonida taqdim eta olishni nazarda tutadi. Bunda ta’lim jarayoni asosiy ikki bosqichga – umumiy va

kasbga yo‘naltirilganlik bosqichlarda olib borilish belgilanadi.

Umumiy bosqichda talabalar avvalgi ta’lim bosqichlarida egallagan nutqiy va lisoniy ko‘nikma hamda malakalar korretsiyalash bo‘yicha kasbiy muloqotga tayyorlash maqsad qilinadi.

Nutq ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, uni shakllantirish bosqichlari bilan o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Ya’ni ushbu ikki jarayon ketma-ket emas, sinxron tartibda amalga oshirilishi zarur. Ko‘nikmadagi asosiy ikki xususiyat – o‘zgaruvchanlik va chidamlilik nutq ko‘nikmalarini hamda malakalarini paralell tarzda olib borishga imkon beradi. Birinchi (tanishitiruvchi)

va ikkinchi (standartlashtiruvchi – situativ) bosqichlarda ko‘nikma va malakalar shakllantirilsa, uchinchi (farqlanuvchi – variativ – situativ) bosqichda og‘zaki nutq ko‘nikmalari nutq malakalari bilan hamohanglikda rivojlantirib boriladi.

Nofilologik yo‘nalish talabalarining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda, bajarilayotgan mashq va vazifalarning yakuniy natijasiga ahamiyat qaratish orqali motivatsiya uyg‘otish zarur. Til o‘rganuvchi xorijiy tilda muloqot qilishdek murakkab va uzoq jarayonning maqsadi hamda undan o‘ziga beriladigan imkoniyatlarni anglash barobarida muvaffaqiyatga erishi mumkin. Shu orqali unda o‘z ustida ishslash, avtonomlik komponentlari asnosida o‘quv-bilish kompetensiyasi shakllanadi. Bunda tilchi talabalardan farqli ravishdanofilologik yo‘nalish talabalari uchun tez fursatda erishiladigan natija yoki uning kelajakda o‘z samarasini berishida ishonch bo‘lishi zarur.

## **1.2. Ingliz tilidagi og‘zaki nutqni rivojlantirishda gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarining uzviyligi va psixolingvistik jihatlari**

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va ilm-fan hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar, ustuvorliklar va maqsadlar tizimi nafaqat ta’lim mazmunini, balki ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini, xususan, oliy ta’limni takomillashtirishga yangicha yondashuvni ham talab qilmoqda. Boshqa mamlakatlar bilan turli sohalardagi xalqaro aloqalar, mazkur jarayonning makroiqtisodiy makonga kirishi har qanday murakkablikdagi professional masalalarni hal

qilishga qodir yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga zarurat tug‘dirmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining vazifasi mamlakatni tegishli miqdorda va zarur yo‘nalishlar bo‘yicha kadrlar potentsiali bilan ta’minlashdir. Shu munosabat bilan, kasbiy tayyorgarlik tarkibida kommunikativ til ko‘nikmalari va ayniqsa chet tilida erkin so‘zlashishga qodir, til o‘rganish jarayonidagi turli to‘sıqlar va monokultural fikrlash bilan cheklanmaydigan mutaxassislarini y e tkazib berish alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda chet tili darslarida ta’lim mashg‘ulotlarining mazmuni kengaygani sayin unda erkin muloqot qilish qobiliyati, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida xorijiy til darslari o‘qitilishidan asosiy maqsad shaxsni ijtimoiy shakllantirish va uni chet tilida o‘z kasbiy potentsialidan kelib chiqqan holda erkin muloqot qila olish qobiliyatini kuchaytirishga qaratilgan. Shu jihatdan bu jarayon, kommunikativlik (chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishi); shaxsni shakllantirish (ta’limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi); kasbiy yo‘naltirilganlik kabi maqsadlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Har bir vazifani amalga oshirishda mavjud to‘sıqlarni yengib o‘tish va muayyan muammolarni hal qilish talab etilgani asosida ushbu sohada oldimizda bir qancha maqsad va vazifalar, muammo va yechimlar mavjud. Bunda asosan talabalarning, aynan nofilologik ta’lim yo‘nalishida mavjud til ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ijtimoiy-psixologik yoki ta’lim jarayonidagi boshqa to‘sıqlar sabab etib ko‘rsatiladi.

Inson uchun nafas olish naqadar muhim bo‘lgani kabi muloqot uning shaxs sifatida shakllanishida salmoqli ahamiyat kasb etadi. Atrofdagilar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish orqali insoniyat rivojlanishning yuqori cho‘qqisiga chiqa oldi. Muloqotsiz shaxsning ichki va tashqi rivojlanishi, uning ta’lim va tarbiyasi, intellektual o‘sish imkoniyati mavjud emas. Bir qarashda muloqot sodda tushuncha bo‘lib ko‘rinishiga qaramasdan, u murakkab va mavhum jarayondir.

A.A.Leontev ta'kidlaganidek, adabiyotlarda bu tushuncha haqida turli bir-biridan farq qiluvchi izohlar mavjud bo'lib, ushbu masala ustida turli soha va ilm-fan vakillari, shu jumladan, filosof, psixolog, lingvist, sotsiolog va madaniyatshunos olimlar shug'ullanib keladi. O'z o'rnida muloqotning yuzaga kelishida asosiy omil bo'lib og'zaki nutq xizmat qiladi.

Xorijiy tillarni o'qitish zamonaviy metodikasi uzlucksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, oliy ta'limda ham og'zaki nutqni rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratishni kuzda tutadi. Bugungi kunda ta'lim oluvchilar nafaqat o'rganilayotgan chet tilidagi erkin muloqot qilish malakasiga, shuningdek, millat va madaniyatlararo munosabatlar, hamkorlik qilishga tayyorlash ham muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi hamda bu jarayonda turli nutq faoliyati ko'nikma va malakalarini rivojlantirish borasida ko'plab xorijiy tilshunos olimlarning ilmiy-nazariyishlarida yoritib beriladi: I.L.Bim, L.V.Щерба, R.Lyuis, Y.N.Solovova, R.Xeller, T.Xindl, V.G.Kostomarova, Y. D.Polivanova, A.A.Brudnogo, R.P.Mirluda, Y.I.Passov, Y.S.Polat, I.V.Raxmanova, I.A.Gruzinskoy, L.S.Vyigotskiy, A.N.Leonteva, S.L.Rubinshteyn, A.R.Luriya, N.I.Jinkina, I.A.Zimney, A.M.Shaxnarovicha, A.A.Leontev, P.Y.Galperina G.I.Voronina, N.M.Gubina, Pogova kabi.

Bunda xorijiy tildagi nutq ko'nikmalarini turli xil usul va texnologiyalardan foydalangan holda rivojlantirish L.V.Abduraxmanova, I.K.Bekasova, L.V.Bondarenko, O.A.Vasilenko, L.A.Verbitskaya, M.V.Maso, L.I.Pechinskaya, O.V.Flerova, A.V.Schepilova, N.I.Almazova, K.E.Bezukladnikov, N.D.Galskova, O.G.Oberemko, E.R.Porshneva, V.V.Safonova, I.I.Xaleva, A.N.Shamov, Rogova va boshqa tadqiqotchilar o'z ishlarini olib borgan.


O'zbek tilshunos olimlaridan D.D.Djalolov, T.K.Sattarov, V.I.Andrianova, M.Djusupov, U.K.Yusupov, G.X.Bakiyeva, M.X.Toxtaxodjayeva, D.U.Xashimova, L.T.Axmedova, X.Saynazarov. Y.Temirov, M.Choriyev, V.Normurodova, X.Maxmatkulov,

Z.X.Botirova, N.A.Mamadjanova kabilar chet tillarini o‘qitish metodikasini rivojlantirish bo‘yicha izlanishlar olib borishgan. So‘nggi yillarda esa yosh olimlarimiz tomonidan asosan xorijiy tillarni o‘qitishda turli yondashuvlar, pedagogik vositalarning qo‘llanilishini, o‘quv jarayonini tashkil etish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘proq olib borilmoqda. Shu jumladan, xorijiy tildagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasida Tadjibaev G‘ayratjon Shoydorovich “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv”, Gulyamova Mavluda Xamitovna “Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuv”, Rahmanov Azizzon Bositovxonovich “Formirovanie kommunikativníx navýíkov uchenikov sredstvami informatsionno-kommunikativníx texnologiy” mavzularida, chet tili ko‘nikmalarini baholashda Kamola Muradkasimova Shuhratovna “Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning ko‘nikmalarini va malakalarini baholash”, Qurbanbayev Javod Aminbayevich “Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarida nutq omilkorligini nazorat qilish metodikasi” mavzularidagi tadqiqotlar olib borishgan.

Og‘zaki nutq so‘zlashuv ko‘nikmasini o‘z ichiga olgani holda boshqa til ko‘nikmali bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlantirilishini taqozo etadi. Lingvistik hamda psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki xususiyatlarini inobatga olgan holda og‘zaki va yozma nutq shakllari bir-biridan ajratiladigan tizimlar sifatida ko‘rilmaydi; aksincha muloqotning yagona retseptiv va produktiv turlari hisoblanadi. Gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarining psixolingvistik qiyosiy xarakteristikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular ichki nutqqa tayangan hamda prognozlash mexanizmiga asoslanadigan murakkab fikrlash faoliyati sifatida xarakterlanadi. Asosiy farq sifatida ularning tugash nuqtasini ko‘rsatish mumkin – gapirish jarayonida ma’lumotlar shifrlansa, tinglab tushunish jarayonida esa u qayta ochiladi. Uzatilayotgan xabarni kodlash jarayoni tilning fonetik tizimidan yaxshi foydalana olishni talab etadi.

Yozish malakasi talaffuz etilgan nutq bazasida yuzaga kelib, og‘zaki ifoda etilgan ma’lumotning yozma saqlanish usulidir. O‘qish esa gapirish (so‘zlashish) ko‘nikmasining o‘zgacha shakldagi talqini bo‘lib, unda har ikki turdagи xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Ushbu nutq faoliyati turlarining har qaysisi bir qancha analizatorlarning umumiylilikda faoliyat ko‘rsatishi natijasida yuzaga keladi. Biroq har bir nutq faoliyatining funktsiyasi bir-biridan farq qiluvchi muayyan differentsiyal qoidalarga bo‘ysunadi.

Analizatorlar orasidagi bog‘liqlik esa dinamik, harakatchan va bir nutq faoliyati shaklidan boshqasiga o‘tganda o‘zgarish xususiyatlariga egadir.



### **1.1.2 rasm. Og‘zaki nutq hamda uning tarkibiy qismlari**

Demak, og‘zaki nutq va eshitish analizatorlari o‘rtasidagi bog‘liqlik absolyut emas, balki unda birinchi navbatda aqliy faoliyatning murakkablik darajasi, shuningdek, muloqot turi (og‘zaki yoki yozma), matn tiliga oid qiyinchiliklar, o‘rganilayotgan xorijiy va ona tilida talabalarning mavjud til tajribasi kabi faktorlarga tayanadi. Bunda og‘zaki nutq hamda uning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Gapirish ko‘nikmasidan ajratilgan holda tinglab tushunish malakasini rivojlantirish eshitish qobiliyatining noto‘g‘ri yo‘naltirilishiga va akustik artikulyatsion ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni murakkablashishiga olib keladi. Og‘zaki muloqot shakllarining qisqacha qiyosiy tahlili gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarining yaqin aloqada ekani, o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi ahamiyatga egaligini ko‘rsatish barobarida ularning o‘qish va yozish kabi yozma nutq shakllari bilan ham organik bog‘liqlikda ekanligini ko‘rsatadi.

Gapirish ko‘nikmasini ifoda etishda ushbu faoliyatning mustaqil va programmalashtirilganlik darajasiga qarab **initsiativ** (faol), **reakтив** (muloqotga javoban) va reproduktiv nutq turlariga ajratiladi. Gapirish dialogik, monologik yoki har ikkisining murakkab bog‘liq formasida yuzaga kelishi mumkin. Yuqoridagilarning har biri psixologik va lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lib, xorijiy tildagi og‘zaki nutqni rivojlantirishda nazarda tutilishi lozim. Bu monologik va dialogik nutq turlarini rivojlantirish, materialning tashkil qilinishi va u bilan ishslashning usullarida differential yondashuv taqozo etilishi bilan izohlanadi.

Talabada tinglab tushunish ko‘nikmasi qanchalik yaxshi egallanilgan bo‘lsa, gapirish ham shuncha tezlik bilan rivojlanadi, aks holda teskarisi bo‘ladi. Inglizcha ma’lumotni qabul qila olgan talaba ingliz tilida uning mazmuniga moslashtirib ma’lumot beradi. Talaba mazmunni tushuna olmasa, javob qaytarishi qiyin. Tinglab tushunishda ma’lumot qabul qilinib, ichki nutq sodir bo‘lsa, gapirishdan oldin ichki nutq, so‘ng tashqi nutq yuzaga chiqadi. Ikkalasida ham talqin qilinadi, lekin gapirishdan oldin bo‘lsa, tinglab tushunishda esa keyin bo‘ladi. Ichki nutqlarda tafakkur, xotira, idrok muhim o‘rin tutadi.

Gapirish jarayonining lingvistik tahlilida, og‘zaki muloqotni

amalga oshiruvchi nutq faoliyati sifatida tahlil qilishda DTS nofilologik yo‘nalish talabalari uchun rivojlantirish maqsadlari ko‘zda tutilgan. Ya’ni xorijiy tilni o‘rganishdan asosiy maqsad – bo‘lg‘usi mutaxassislarda kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida chet tilida yoki bir necha tillardan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlash. Shu bilan birga, ularda bilim va ko‘nikmalarni OTMni bitirgandan keyin ham rivojlantirish malakalarini hamda umumiy va sohaga oid ilmiy mavzularda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Ma’lumki, gapirish ko‘nikmasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga so‘zlashuv ko‘nikma va malakalari hamda ular haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Uning negizida produktiv (talaffuz) yoki ifoda etish (ritmik-intonatsion) va leksik-grammatik ko‘nikmalar yotadi. Gapirish nutk faoliyati murakkab integral ko‘nikmalardan iborat bo‘lib, u so‘zlovchining maqsadli, faol va mustaqil faoliyat turi sifatida ajralib turadi. Unga fikrlash, evristik va situativlik xosdir. Gapirish jarayonining asosiy tarkibiy qismi bu fikrlarning tashqi nutqda tovushlar yordamida ifoda etilish jarayonidir. Bunda nutqning tashqi tuzilishini ko‘rib chiqish lozimdir. Bular:

**a) motivatsion** – uyg‘otuvchi qism og‘zaki nutq bayonidan nima uchun (zarurat) nega (motiv, suhbатdoshni muloqotga tortish) va nimani (maqsad) kerakligini o‘zida aks ettiradi;

**b) analitik** – sintaktik qismda og‘zaki nutqning maqsadini yuzaga chiqarishga tayyorgarlik bosqichidir. O‘rganilayotgan chet tilida og‘zaki nutqqa kirishish uchun talaba o‘z xotirasida saqlanib qolingan so‘zлarni tanlay bilishi (**analiz**) hamda ular orqali o‘z fikr-bayonlarini ifoda etish (**sintez**)da foydalana olishi lozim.

So‘zlar xotirada saqlanib qolishi uchun talabada paradigmatic va sintagmatik aloqalar shakllantirilgan va oliy ta’lim bosqichda ularni rivojlantirish talab etiladi. Ushbu aloqalar qanchalik mustahkam bo‘lsa, og‘zaki nutqda so‘zlardan oqilona foydalanish uchun tayyorgarlik shu daraja yuqori bo‘ladi. Paradigmatik aloqa so‘zлarning turli xususiyatlariga qarab (qarama-qarshi yoki aksincha yaqin ma’no kasb etishi kabi) ajratgan, taqqoslagan holda assotsiatsiya qilishni taqozo

etadi. Nutq ikkinchi bosqich analitik-sintetik jarayonda yuzaga keladi. Bu bosqichda fikr va xulosalar til vositasida shakllantiriladi hamda gapisish jarayoni amalga oshiriladi. Til materiallarini bilmay turib tashqi nutqni shakllantirib bo‘lmaydi. Bunda monologik, dialogik nutq shakllaridan har biri turli lingvistik va boshqa xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi.

Sintagmatik aloqada bir so‘zning boshqalari bilan mos kelishiga e’tibor qaratiladi. Og‘zaki nutqni rivojlantirishda asosiy ahamiyat kasb etgani xolda sintagmatik aloqa tahlil jarayonini amalga oshiradi. Bunda sistematik ravishda og‘zaki nutqda qo‘llanilishiga tayyor bo‘lgan xorijiy til birliklari tanlanadi (**I know the answer; I want to go out; let me think** kabi), motorik xotira ishga tushadi hamda verbal vositalar yodga olinadi. Sintez jarayonini konstruktsiyalash, kombinatsiya qilish, iboralarni qurish yoki qayta qurish, ya’ni uni grammatik tuzishni o‘z ichiga oladi. Aynan mana shu jarayon xorijiy tildagi og‘zaki nutqni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Talaba muloqotga kirishishda dastavval xotirasida saqlanib qolgan iborani yodga oladi, nutqiy vaziyatga uning qay darajada mos kelishini tahlil qiladi (masalan I am ready for the given homework), zarurat tug‘ilganda ko‘plik shakliga o‘tkazish lozimligini tushunadi va ma’lum fe’l zamonlariga transformatsiya qiladi (I=We; am=are), ya’ni interferentsiya hodisasi ro‘y beradi.

Nazorat qiluvchi-bajaruvchi qism – og‘zaki bayonotning tashqi ko‘rinishini tartibga keltirish va nazorat qilish jarayonidir. Uning vazifasi yo‘l qo‘yilgan xatolar haqida habar berish va ularni to‘g‘irlashdan iborat. U til ustida muntazam ishlash, aynan og‘zaki nutqdan muntazam foydalanish amaliyoti jarayonida yuzaga keluvchi etalon sifatida xizmat qiladi.

Mazkur nutq faoliyatida avvalambor uch turdagি ko‘nikmalar: leksik, grammatik hamda talaffuz faollashganini ko‘ramiz. Ular o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, nutqiy bayonot komponentlaridan birining rivojlanmay qolishi – kodsizlantirish jarayoni, ya’ni kommunikatsiyaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan leksik ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘z o‘rnida so‘zning barcha nutq

faoliyati turlarida grammatik hamda semantik nuqtai nazardan to‘g‘ri tushunilishi va optimal tarzda ishlatilishini taqozo etadi. Chet tili o‘qitish metodikasida ushbu qarashlarga nisbatan leksik-grammatik ko‘nikmalarning birgalikda ko‘rib chiqilishi fikrimizni isbotlab beradi.

Leksiko-grammatik ko‘nikmalarning leksik komponenti so‘z birikmasi va gap darajasidan qisman avtomatlashgan leksik-semantik bog‘liqlik shaklida namoyon bo‘ladi; grammatik komponent esa so‘z birikmalari va aynan gap tarkibidagi so‘zlarning sintaktik bog‘lanishi ifodasi va leksemalarning morfologik tuzilishi jarayonidagi avtomatlashganlik shaklida bo‘ladi.

G.V.Rogova gapishtirishda rivojlantirishda muloqotni yaratish hamda uni stimullashning quyidagi *asosiy komponentlarini* sanab o‘tadi:

gapishtirishda “motiv”ning mavjudligi, situativlik, shaxsga yo‘naltirilganlik

Yuqoridagi omillar birgalikda nutqqa kommunikativ xususiyat beradi. Amerikalik psixolog Rivers xorijiy tildagi og‘zaki nutq jarayonining biringchi va muhim sharti aynan ichki istak va ehtiyoj omilini e’tirof etadi. Til mashg‘ulotlarida muloqot qilish uchun nutqiy vaziyatni -vaziyatga “in qurban” motiv kabi yaratish va undan shu tarzda foydalanish lozim. Nutqni yuzaga chiqaruvchi ta’limiy vaziyatni yaratish uchun esa uning ichki tuzilishini bilish va nazarda tutish talab etiladi.

G.V.Rogova ta’limiy nutq vaziyatini quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb ko‘rsatadi:

verbal yoki ko‘rsatmali vositalar yordamida aniq tasavvur uyg‘ota oladigan (nutqiy yoki nutqiy bo‘lmagan vaziyat yuzaga keladigan aniq joy va vaqt, harakat-holatning aniq tavsifi) hayotiy reallikning bir qismi;

ishtirokchi tomonlar (so‘zlovchilarining nutq maqsadlarini, bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini muayyan xususiyat-xarakterlarini mujassam etgan muloqot ishtirokchilari).

Bunda nutqiy vaziyatni talabalarning mavjud muammo va ehtiyojlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tanlash uning hayotiy va qiziqarli bo‘lishiga katta ta’sir o‘tkazadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan nutq vaziyatlarini yaratish aqliy faoliyat bilan bir qatorda til o‘rganuvchilarning ichki his-tuyg‘ularini ham dars jarayoniga jalb etadi. Shu sababli og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda rolli o‘yinlar, improvizatsiya va dramalashtirilgan sahnalar juda qo‘l keladi.

Xorijiy til o‘qitish metodikasida til o‘rganish bosqichidan kelib chiqib, og‘zaki nutq tayyorlangan va tayyorgarliksiz darajalarga ajratiladi. Tayyorgarlik asosida nutq yaratish avvaldan til materiallari bilan tanishib chiqishni talab etsa, tayyorgarliksiz nutq esa tashqi yordamchi vositalarsiz, erkin muloqot darajasi deb malakalanadi.

Oliy ta’lim bosqichida talabalarning avvalgi olingan bilim poydevorlari asnosida ko‘proq tayyorgarliksiz, nutqiy vaziyat stimuliga asoslangan, hayotiy voqeа-hodisalar haqidagi shaxsiy, tanqidiy fikrlarini bayon etish malakalariga e’tibor qaratiladi. Tayyorgarliksiz nutq darajasiga chiqishda butun ta’lim jarayoni davomida kompleks tayyorgarliklar ko‘rib boriladi, tayyorgarlik asosida muloqot qilish bosqichi bunda o‘ziga xos stimul vazifasini bajaradi.

O‘quv yurtlarida tinglab tushunishni o‘rgatish ham vosita, ham maqsaddir. U vosita bo‘lganda til materialini og‘zaki o‘rgatish, tushuntirishda boshqa nutq faoliyatlarini o‘rgatishda vositachilik qiladi, maqsad bo‘lganda esa nutqni tinglab ma’lumot olish ko‘zda gutiladi. Tinglab tushunishning eng asosiy maqsadi, vazifasi, tanish til materiallari asosida tuzilgan notanish mazmunli matnni, nutqni tinglab tushunishdir. Tinglab tushunishni o‘rgatishda dastavval tayyorlov mashqlari qo‘llaniladi. Bu mashqlar bir yoqlama uchraydigan qiyinchiliklarni, ayniqsa, lingvistik qiyinchiliklarni yo‘qotishga qaratilsa, nutq mashqlari asosan biryoqlama, notanish mazmunli nutqni yoki matnni tinglab tushunishga qaratiladi.

G.V.Rogova ham mashqlarni tayyorlov (drill exercises) va nutq (speech exercises) mashqlariga bo‘ladi.

Tayyorlov mashqlari:

- 1) fonetik mashqlar, so‘zlarni tinglash (quyidagi desk, pen, ten, bag, so‘zlari ichida [ae ] tovushi bor so‘z bo‘lsa, qo‘l ko‘taring kabi);
- 2) leksik mashqlar (quyidagi so‘zlarni tinglang, ichidan «a boy»

so‘zini toping: a baby, a box, a toy, a boat, a boy, a girl kabi);

3) grammatik mashqlar (so‘zlarni tinglang va ko‘pliqdagisini toping: a desk, tables, a book, a box, pens, books kabi).

Tayyorlov mashqlariga xotirani rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ham kiritish mumkin. Masalan: *so‘zlarni tinglang va esda saqlashga harakat qiling yoki tinglang, so‘zlarni qaytaring.*

Shuningdek, nutq mashqlari ham ko‘rsatib o‘tiladi:

1) mazmunni tushunishni o‘rgatishga qaratilgan mashqlar.

Masalan: a) matnni tinglang, asosiy fikrni aniqlang;

b) matnni tinglang, hikoyaga reja tuzing kabilar.

**Tayyorlov mashqlariga** shuningdek:

1) tinglab bilib olish;

2) tinglab e’tibor berish,

3) tinglab farqlash,

4) tinglab yodda tutish,

5) tinglab takrorlash kabilarni kiritish mumkin.

**Nutq mashqlariga:** 1) tinglab tushuning; 2) tinglab hikoya qiling; 3) tinglab savol bering; 4) tinglab gaplarni so‘roq, inkor shakllarga o‘zgartiring; 5) tinglab tarjima qiling; 6) tinglab qo‘sishma qiling, davom ettiring mashqlarini qo‘sish mumkin.

G.V.Rogovaning fikricha, til o‘rganuvchi tinglab tushunishga o‘rgatilayotganda ularda qabul qilish ko‘nikmasi (perceptive skills)ni hamda tushunish, talqin qilish (comprehension and interpreting skills) ko‘nikmalarini hosil qilish, shakllantirish, rivojlantirish zarurdir. Birinchisiga so‘zlarni, gaplarni qabul qilib, taniy olish, ohangni aniqlash, gaplarni sintagmalarga - ma’nodor guruhlarga ajratish, ikkinchisiga esa ularning mazmunini tushunish, talqin qilish kiradi. Talaba notanish mazmunli nutqni tinglaganda esa:

1) ayrim so‘zlarni, gaplarni, jumlalarni tushunishi (fragmenting comprehension);

2) asosiy dalil-fikrlarni yuzaki tushunishi (over all comprehension);

3) hamma dalil, fikrlarni to‘liq tushunishlari (comprehension in details);

4) tanqidiy tushunish (critical comprehension) sodir bo‘ladi.

O‘qituvchi tinglab tushunishni o‘rgatayotganda yuqoridagi mexanizmlarni, ya’ni 4 xil tushunishni hisobga olishi kerak. Bunda tinglab tushunish mazmunini 3 qismga bo‘lish mumkin. Bular:

1. Lingvistik qism. Bunga til va nutq materiali kirgiziladi.

2. Psixologik qism. Bu ovozli nutqni tinglash, tushunish malaka, ko‘nikmasiga erishtirishdir.

3. Metodik qism. Tinglash, tushunish yo‘l-usullarini o‘rgatish hamda tinglab tushunish texnologiyasi orqali uni qonun-qoida, tamoyillar, metodlar, vositalar orqali o‘rgatish aniqlanadi.

Ma’ruza, axborot, yangiliklar, kisqa metrajli filmlar va boshqa turdagи audio-vizual xabarlarni doimiy ravishda muntazam tinglab borish nafaqat tinglab tushunish, balki gapirish ko‘nikmalarining ham mutanosiblikda rivojlanishida xizmat qiladi. Eshitish va nutqiy motorik namunalarning yetarli bazasiga ega bo‘lish orqali gapirish faoliyati shakllanadi va rivojlantirilib boriladi. Tinglab tushunishning muvaffaqiyatli kechishi tinglovchidagi xotira, diqqat, motivatsiya darajasiga; nutq shart-sharoitlariga: xabarning davomiyligi va soniga,temporal xususiyatlarga hamda lingvistik faktorlarga – nutqning lisoniy va struktur-kompozitsion murakkablik darajasi talabaning nutqiy bilim va tajribalariga mosligi kabilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Tajriba-sinov va so‘rovnomalar o‘tkazish jarayonida aniqlanishicha, tinglab tushunish orqali ma’lumotlarni qabul qilishda har 10 talabandan 8 tasida mazmun saqlanib qolgani holda asosiy xabar va detallar yo‘qotiladi(70-80 %). Bunda sub’ektiv faktor sifatida oliy o‘quv yurtlari nofilologik yo‘nalish talabalarida xorijiy til bilim va malakalarini egallah, bilim darajasining turlicha bo‘lishi va asosan til o‘rganuvchining tinglovchi sifatida mustaqil pozitsiyasi – e’tiborlilik, ma’lumotni qabul qilishga bo‘lgan intilish va qiziqish, xabarning ahamiyati va eshitish jarayonidagi ob’ektivlik muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, talimning ushbu bosqichida til o‘rganuvchilarning yosh xususiyatlarida ma’lumotni qabul qilish orqali erishiladigan natija va uning dolzarbligini anglash eshitilgan xabar yoki og‘zaki matnning qay darajada tinglab tushunilishida beqiyos ahamiyatga ega. Mazkur

jihatga e'tibor qaratish materialning tarkibiy xususiyatlarini anglash, ob'ektlarni esda saqlab qolish va ma'noviy guruhlarga ajratish hamda intensiv fikrlash malakalariga tayanch vazifasini o'taydi.

Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning maqsadi – talabalarning turli sotsial-determinant vaziyatlarda amalga oshirishi kerak bo'lgan og'zaki muloqot ko'nikma va malakalarini hamda ushbu jarayondagi motivatsiyani rivojlantirish, amalda qo'llashdan iborat. Demak, oliy o'quv yurti bitiruvchisi xorijiy tilda erkin muloqot qila olishi, suhbatdoshning nutqiga qarata verbal va noverbal vositalar yordamida javob qaytara olishi, o'z mutaxassisligi doirasida kasbiy atamalardan foydalangan holda nutq (monolog yoki dialog) yarata olishi, nutqiy vaziyatlarda o'quv dasturlarida belgilangan tematikalar asosida xorijiy tilda muloqot qila olishi lozim. Shuningdek, tayyorgarliksiz nutq – ya'ni o'zi va atrof-muhit, unda sodir bo'layotgan real vaqt kesimidagi voqeahodisalar haqida adekvat og'zaki munosabat bildirish qobiliyatiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tinglab tushunganlarni baholash ma'lumotlarni umumlashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, kontekstdagi erkin (orientatsiya) yo'naliш va materialni mustaqil boshqarish imkoniyati tayyorgarliksiz nutq sifatini yangi darajasiga olib chiqadi. Bu esa o'z o'rnida nofilologik yo'naliш talabalarining xorijiy og'zaki nutqida o'z bayonotlarini tahlil qilish va tanqidiy baxolash malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga asoslanadi.

### **1.3. Talabalarning xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda "diskurs" tushunchasining o'rni va ahamiyati**

Jahonda til - biror bir jamiyatning shaxsiyatini, millatini va undagi kelajak avlod yoshlarini ma'daniy-ma'naviy shakllantirishning asosiy elementidir. Tillar nafaqat aloqa vositasi, balki millatning ajralmas qismidir, ma'lum bir jamiyatgagina tegishli bo'lgan boylikdir. Shu sababdan ham inson intellektual va ma'naviy ta'limning ahamiyatini anglashi uchun chet tilini mukammal bilishi talab etiladi. Yuqori salohiyatli kadrlarning millat va

madaniyatlararo aloqada bo‘lishi, farovonlik sari rivojlanib borayotgan har qanday mamlakat uchun xalqaro munosabatlarning ahamiyati salmoqli ekanligi barchamizga ma’lum.

Bugungi kunda ta’limga e’tibor haqiqiy ijtimoiy qiymatga ega bo‘ldi. Xorijiy tillarni va o‘zga madaniyatlarni o‘qitish va o‘rganish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqaga kirishish va tajriba almashinish muhim o‘rin tutmoqda. Kun sayin iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda xorijiy tillarni o‘zlashtirishning ahamiyati jadal o‘sib bormoqda.

Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”<sup>5</sup> -O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga qilgan murojaatida ham fan nuqtai nazaridan aloqalarning yildan-yilga samaradorligi ortib borayotganligi, bugungi kundagi globallashuv jarayonlari, axborot oqimi, internet va undagi asosiy manbalarning aynan ingliz tilida ekanligi, qolaversa, ushbu tilning XXI asrning keng tarqalgan chet tillari sirasiga kirishi, mamlakatimizda ingliz tilini o‘rganishga qaratilgan e’tibor va yoshlarning bu tilni o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini izohlab berdi.

Bu o‘z o‘rnida ushbu sohada yangi izlanishlarni, nafaqat miqdor, shu bilan birga sifat jihatdan takomillashtirishni taqozo etadi. Bunda til o‘rganish, shuningdek, og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayonida nafaqat ta’limiy balki tarbiyaviy, ijtimoiy, psixologik komponentlarni qamrab olgan holda unda ta’lim printsiplarini mujassamlashtirish, o‘quv jarayonini fanlararo loyihalashtirish, kasbga yo‘naltirish hamda bunda xalqaro standartlarni aks ettirish lozimdir. Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasalarida yetishib chiqayotgan ertangi kunimiz bo‘lgan yosh kadrlarni keng ommalashgan xorijiy tillarda erkin muloqot darajasiga olib chiqish ushbu soha mutaxassislari – amaliyotchilar, o‘qituvchi-professorlar hamda ilmiy izlanuvchilar oldida turgan katta vazifadir. Shu jumladan, oliy ta’lim muassasalari talabalarining xorijiy tildagi (ingliz tili misolida) og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirish, ularni ushbu tilda o‘z ta’lim yo‘nalishlari

---

<sup>5</sup> [https://aza.uz/posts/nazhot-talimda-nazhot-tarbiyada-nazhot-bilimda\\_447142](https://aza.uz/posts/nazhot-talimda-nazhot-tarbiyada-nazhot-bilimda_447142)

doirasida erkin muloqot qilish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish masalasi tilshunos metodistlar, ilmiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Xorijiy tildagi og‘zaki nutqni rivojlantirishda “**diskurs**” tushunchasi og‘zaki nutq ifoda qolipidan tashqari so‘zlovchi, tinglovchi ularning ijtimoiy mavqeい, xarakter xususiyatlari va sotsial vaziyatning boshqa jihatlarini ham qamrab oluvchi murakkab nutq bayonoti sifatida talqin etish lozim. Unda matnga xos bo‘lgan lingvistik xususiyatlardan tashqari ekstrolingvistik parametrlar ham mavjud bo‘lib, bu orqali talabalarda hayotiy, real vaziyatlarga yaqin muhit yaratib beriladi.

M.Makarovga ko‘ra, diskursiv kompetensiyani shakllantirish talabalarning nutq xatti-harakatlarini xorijiy kommunikatorning xulqatvoriga mos ravishda qurish qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan, ya’ni sotsial-madaniy kontekstga, suhbatdoshning individual va shaxsiy xususiyatlariga, kommunikativ vazifalarga, shuningdek, o‘zaro tushunishga erishish uchun o‘rganilayotgan til madaniyati elementlarini diskursiv aloqada tanlay olish va yetarli darajada idrok etish qobiliyati deb tushuntiradi.

Diskursning chet tilidagi og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish uchun, avvalo, ushbu tushunchaning tub mohiyatiga aniqlik kiritib olish lozim. Diskurs atamasi lotin tilida — Discursus - "suhbat, muhokama" ma’nosini bersa, frantsuz tilidan tarjima qilganda — nutq so‘zlash, omma oldida chiqish qilish demakdir.

“Oxford English Dictionary” izohli lug‘atida Discourse terminiga quyidagicha ta’rif beriladi: “—**communication in speech or writing**”, ya’ni “og‘zaki yoki yozma muloqot”; “**a speech or piece of writing about a particular, usually serious subject**” – odatda muhim bo‘lgan biror mavjud hodisa yoki belgi haqidagi nutq yoki yozuv.

<https://www.merriam-webster.com/> da —diskurs atamasi

**1:** —interchange of ideas *especially* orally, ya’ni fikr-mulohazalarini asosan og‘zaki shaklda baham ko‘rish;

**2:** “formal and orderly and usually extended expression of thought on a subject connected speech or writing — o‘z mulohazalarini og‘zaki yoki yozma ravishda adabiy, tartibli shaklda va odatda to‘liq formatda

ifoda etish;

**3:** “a linguistic unit (such as a conversation or a story) larger than a sentence — lingvistik birlik ko‘pincha bir gapdan ortiqroq (suhbat yoki hikoya kabi) shaklda deb ta’riflanadi.

Shuningdek, ushbu so‘zning ma’nodosh (sinonim)lari sifatida quyidagilar keltiriladi: chat – suhbat (v: fe’l-suhbatlashmoq); colloquy – rasmiy muloqot; conversation – muloqot; converse – bayon; dialogue – dialog; discussion — muhokama exchange – fikr almashish; declaim – bayon etmoq; descant – tanqid qilmoq; expatriate – fikr yuritmoq; harangue (BrEng) – ommaga murojaat qilmoq; lecture – ma’ruza qilmoq; orate – nutq so‘zlamoq; speak — gaplashmoq; talk – suhbatlashmoq.

Demak, turli tillarda ushbu tushuncha mazmunan yaxlit nutq so‘zlash, muhokama qilish, suhbatlashish ma’nolarida keng ishlataladi va tildagi og‘zaki nutq jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Diskurs tilshunoslikning turli fan jabhalarini qamrab oladi: lingvistika, antropologiya, literaturovedenie, etnografiya, sotsiologiya, sotsiolingvistika, filosofiya, psixolingvistika i kognitivnaya psixologiya kabi. Masalan, psixolingvistik nuqtai nazardan, diskurs – nutq jarayonida so‘zovchining ijtimoiy-psixologik roli, uning o‘rni va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda fikr-mulohazalarini ichki kodlash jarayonidan boshlab, tashqi nutq hosil bo‘lish davriga qadar og‘zaki nutqni shakllantirish va talqin qilishni qamrab olsa, lingvo-madaniy izlanishlar diskursni ma’lum bir etnik guruh ichidagi aloqa xususiyatlarini o‘rganish, va umuman, etika va nutq xatti-harakatlarining modellarini aniqlashga qaratiladi.

Fransuz tilshunos olimi Emile Benvenist o‘zining lingvistik kontseptsiyasida diskursni birinchilardan bo‘lib terminologik jihatdan tavsiflab, uni "nutq" sifatida belgilaydi. U diskursni ob’ektiv baholab, uni "vaqt va makon kesimida, muayyan nutq vaziyatida real hayotiy voqelikka yaqin nutqni yaratish" deb ta’riflaydi.

V.I.Karasik uni "nutq, aloqa, lingvistik atributlar va aloqaning tub asosida saqlanib qoladigan, nutq va matn o‘rtasidagi oraliq tartib

fenomeni" deb hisoblasa, M.Baxtin "diskurs bu – og‘zaki muloqotning haqiqiy birligi" deb ta’kidlaydi hamda nutqning jozibadorligini diskursning muhim atributi sifatida ko‘rib chiqadi.

Diskursiya tushunchasidan foydalanishning kengayishi uning xorijiy tillarni o‘qitish nazariyasiga kirib borishiga olib keldi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, tilshunoslik sohasiga "diskurs" atamasining paydo bo‘lishi juda muhim qadam, chunki chet tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyotida uzoq vaqt davomida xizmat qilgan asosiy tushuncha matn bo‘lib, uning asosida o‘quv jarayoni qurilgan, materiallar kiritilgan, mashqlar tizimi ishlab chiqilgan va hokazo. Hozirgi vaqtida chet tilida muloqot qilish, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda faqat matn tushunchasidan foydalanish bilan cheklanib qolish mumkin emas, chunki unda og‘zaki nutqning barcha xususiyatlari nazarda tutilmaydi.

Unda matnga xos bo‘lgan an’anaviy lingvistik parametrlardan tashqari unda ijtimoiy kontekst, aloqa ishtirokchilari va ularning xususiyatlari, shuningdek, xabarni bayon etish va idrok etish jarayonlari haqida ma’lumot beradigan funksiya mavjud. Diskursning asosiy xususiyati uning dinamik tabiatи, matnni aktuallashtirish qobiliyati, shuningdek, ekstralolingvistik jihatlari bilan ifodalanadi.

Demak, diskurs tushunchasi matndan bir qancha keng bo‘lib, xorijiy og‘zaki nutqni rivojlantirishda, ta’limning hozirgi kommunikativlik printsipidan kelib chiqqan holda o‘ta ahamiyatlidir. Zero, bunda matnning mazmuni va lisoniy shakli emas, balki so‘zlovchining kommunikativ maqsadlariga erishishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli diskurs xorijiy og‘zaki nutqni rivojlantirishda muhim tarkibiy qism sifatida ko‘rib chiqish kerak.

Muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchining kim ekanligi, ular o‘rtasidagi munosabatlar, nutq jarayoni qanday vaziyatda amalga oshirilayotgani va ushbu faktorlardan kelib chiqqan holda muloqotning keyingi oqimi haqida muayyan tasavvur bo‘ladi. Demak “**diskurs**” og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayonida muloqotga hayotiylik baxsh etadi. Bu esa o‘z o‘rnida uning sifat darajasiga ta’sir etmay qolmaydi.

Diskurs tushunchasini „matn“ va „og‘zaki nutq“ kategoriyalari

bilan taqqoslash asosida uning xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda ahamiyatli bo‘lgan quyidagi asosiy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz. Matnga ham hos bo‘lgan mukammallik, tugallanganlik (to‘liqlik) va uzviylik jihatlari bilan bir qatorda diskursda quyidagi qo‘srimcha xususiyatlar mavjud:

I. Muayyan turga tegishlilik (xoslik). Bilamizki, muloqot jarayonida turli tipdagi diskurslarga duch kelishi mumkin. Ammo uzatiladigan produktiv va qabul qilinuvchi (retseptiv) diskurs turlarini muayyan guruhlarga ajratish mumkin va ularning har qaysisida o‘ziga xos umumiy va xususiy parametrlari mavjud. Og‘zaki nutq xorijiy muloqot jarayonida kommunikativ vaziyatlardan to‘g‘ri foydalanish uchun diskurs turlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish talab etiladi.

II. Diskurs kontekstdan, nutq vaziyatidan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas. Vaziyatning biror parametrida o‘zgarish bo‘lishi o‘z o‘rnida diskursda ham o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Diskursni yaratishdan avval murojaat qiluvchi (so‘zlovchi) nutq vaziyatiga moslashishi, muloqotning qanday vaqt va makonda amalga oshirilishi va ekstralingvistik faktorlarni hisobga olishi va shundan so‘ng muloqot strategiyasini shakllantirishi mumkin. Ushbu jihatlardan kelib chiqqan holda og‘zaki nutqni rivojlantirishda talabalarni, ya’ni bo‘lajak soha mutaxasislarni kasbiy yo‘nalishidan kelib chiqib, muloqotning ehtimoliy vaziyatlari bilan tanishtirish va ular asnosida u yoki bu turdagи diskursni yaratish ko‘nikmasini ham rivojlantirib borish talab etiladi.

III. Diskurs tushunchasining ta’rifi va uni aniqlashtirishda tadqiqotchi-olimlarning fikri qanchalik bir-biridan farq qilmasin, ularning barchasida bitta g‘oya ilgari suriladi: “diskurs – bu nutq, muloqot”dir. Hayotiy va tirik nutq harakatidan mustasno holatda diskurs mavjud bo‘la olmaydi.

IV. Muayyan og‘zaki bayonotni yaratish va uni rivojlantirishda zarur bo‘lgan barcha elementlar, intonatsiyaning mavjudligi, muloqot ishtirokchilarining bazaviy bilim, ko‘nikmalari va ma’lum ichki ekstralingvistik faktorlar – diskurs asosida yuzaga chiqadi. Ushbu bilim va malakalar, mavjud realiya – hayotiy vaziyat va muloqotning butun bir holat va harakati kommunikantlar uchun tezaur bo‘lib xizmat qiladi

hamda diskursning poydevori hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, xorijiy tildagi og‘zaki nutqni rivojlantirishda diskursning ahamiyati va uning tabiiy xususiyatlari birinchidan, muloqotning ichida (jarayonning o‘zida), ikkinchidan, nutq vaziyati, muloqot kontekstidan kelib chiqqan holda, uchinchidan esa ekstralivingistik vazifalarni amalga oshirishida nazarda tutilishi lozim.

O‘rganilayotgan xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda talabalarning bo‘lajak kasbiy mutaxassisliklarga xos bo‘lgan diskurs turi va uning xususiyatlarini o‘rganish, uning shakli va tarkibini tahlil qilish jarayonning samarali olib borilishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim talabalarining kasb yo‘nalishi doirasida qaysi diskurs turiga ahamiyat qaratish talab etilsa, o‘sha jabhadagi fikr maydoniga kirib boriladi. Ushbu muayyan soha asosidagi maxsus atama va terminlardan foydalangan holda ushbu mutaxassislikka oid muloqot vaziyatlariga so‘zlashish, o‘z pozitsiyasini to‘g‘ri tushuntirish, muhokama va munozara qilish diskursiga ega bo‘lish mumkin. Ba’zi diskurs turlari boshqalariga nisbatan ko‘proq foydalaniladi, ammo ularning har birining maxsus yo‘nalishi mavjud. Har bir kasb sohasidagi diskursda kommunikantlarning maqsad va vazifalariga qarab maxsus til materiallari va vositalari tanlanadi. Shu sababdan diskursni o‘qitishdan avval, talabalar uchun oliy o‘quv yurti va ta’lim yo‘nalishidan kelib chiqqan holda diskurs turlariga va uni tanlashga ahamiyat qaratish zarur. Bunda mutaxassislik sohasi doirasiga mansubligi muayyan hamda nutq muloqot vaziyatlariga asoslaniladi.

Uning samaradorligi tilni bilishdan tashqari, - muloqotning madaniyati hamda shart-sharoitlari, etiket qonun qoidalari , noverbal (yuz ifodasi, qo‘l va tana harakatlari kabi) vositalardan foydalanish hamda ularni tushunish va shu kabi boshqa ikkinchi darajali (orqa fondagi ) chuqur bilim va malakalarni egallashga tayanadi. Ushbu faktorlar til materiallari bilan umumlashtirilgan holda, nutqiy tarzda ifodalanishi – ayni diskurs tushunchasini taqozo etadi, uning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga xorijiy tilni o‘qitishda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida diskursni muloqot birligi sifatida tadbiq etish, amaliyatda ta’lim jarayoniga gumanistik printsipini joriy etishga yo‘l ochib beradi. Bu esa o‘z o‘rnida talabalarni shaxs sifatida ma’naviy rivojlantirish, ularni tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati va ijtimoiy muhiti bilan tanishtirish, xalqaro maydonda o‘z mutaxassisligi doirasida alohida o‘ringa ega bo‘lish uchun muloqot va muzokaralar olib borish imkoniyatini ochib beradi.

Diskursning xorijiy tildagi og‘zakini rivojlantirishdagi ahamiyatini nazarda tutgan holda uni quyidagi tur klassifikatsiyalarga ajratish mumkin:

So‘rov  
Hisobot  
Ma’ruza  
Statistik tahlil  
Xabar  
Muhokama  
Suhbat

V.I.Karasik diskursning ikki asosiy turi mavjud deb ko‘rsatadi, ya’ni shaxsiy va institutsional. U institutsional diskursni maxsus yo‘naltirilgan diskurs turi deb ta’riflaydi. Unda muloqot ishtirokchilari ijtimoiy shart-sharoitlar asosida ma’lum vaziyat va vazifalarga ko‘ra o‘zaro og‘zaki aloqaga kirishishlari talab etiladi. Ya’ni o‘qituvchi tomonidan ma’lum maqsadlarga yo‘naltirilgan nutq vaziyatida til o‘rganuvchilarning muloqotga kirishishi ham shu jumladandir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda diskurs tushunchasining xorijiy tildagi og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

- turli bilim sohalaridagi ilmiy-nazariyalar va kashfiyotlar odamlarga ijtimoiy diskursni tan olishga va egallahsha yordam beradi, chunki bu tushuncha, madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tartibga soladi, bu esa muloqot ishtirokchilarining bir birlarini tushunishlari, fikr almashishlari va ijtimoiy munosabatlarga kirishlari uchun yagona yo‘ldir;

- nutq protsessuallik, dinamiklik, dolzarblik bo'lsa, matnning asosiy parametrlari esa aksincha tarkibiylik, mahsulotga yo'naltirilganlik, statistik komponentdir.

Chet tilini o'qitishda diskursiyaning quyidagi xususiyatlariga e'tibor berishimiz kerak degan fikrdamiz:

- tematik bog'lanish – og'zaki nutq bo'limi mazmuni (monologik yoki dialogik) ma'lum bir mavzu atrofida to'planishi;

- vaziyatni mo'’tadillashtirish - nutq xatti-harakatlarini ma'lum bir kommunikativ vaziyatda yangilab borish;

- dinamizm – bir xil kommunikativ vaziyat sharoitida ham mavzularni o'zgartirib borish;

- ijtimoiy yo'nalish – og'zaki nutq komponentlarida ijtimoiy aloqaning eng muhim toifalari tanlanadi: talabaning ijtimoiy mavqeい, kommunikativ rollar, kommunikativ munosabatlar, suhbatdoshning qiziqishi;

- tuzilish - tilga ham, nutqqa ham taalluqli bo'lmagan omillar munozarada aktuallashtirilganligi sababli og'zaki muloqotning funktional va kognitiv jihatlari og'zaki nutq parametrlarida namoyon bo'lishi;

- noaniqlik - og'zaki nutqning ajralmas mahsuli sifatida diskursiya chegaralarining noaniqligi (matndan farqli o'laroq, nutq noaniqlik, cheksizdir).

Diskursiv kompetensiya og'zaki muloqot ishtirokchilarining bir-biriga e'tiborini, umumiylar denotativ makonga, milliy-madaniy stereotiplarga qaratib, o'z nutqini, hissiyotlarini, munosabatlarini, baholarini ta'sirchan ifoda etishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, diskurs - TIL tushunchasining rivojlanish darajasini aniqlash mezonlaridan biridir, chunki u axborot almashinish vositalaridan foydalanish, matnli ma'lumotlarni tashkil etish, tilning janr-tarkibiy elementlarini ma'lum darajada egallash kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi.

Diskurs xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun, bir qator ta'lim vazifalarini bajarishga yordam beradi:

- xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmasi umumiylar faoliyat turi va

og‘zaki nutq rivojlantirishning boshqa kriterialariga mosligini aniqlash;

- chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish jarayonining tartibliligi, tizimliligi, uzlucksizligi va mantiqiyligini ta’minlash;

- ta’lim jarayonida xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirsh motivlarni shakllantirish;

- talabani taxesil olayotgan OTM ta’lim yo‘nalishi, va kasbiy mutaxassisligi doirasida fikr yuritishi, nutqiy faoliyati va tayyorgarlik darajasini tayyorlash.

## **II BOB. INGLIZ TILINI O'QITISHDA TALABALARING OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

### **2.1 Xorijiy og'zaki nutqni rivojlantirishda monologik va dialogik nutq shakllari, ularning lingvistik-psixologik-ekstralolingvistik xususiyatlari**

2012 yil 10 dekabrida “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1875-sonli Prezident qarori qabul qilindi<sup>6</sup>. Mazkur farmonning qabul qilinishi bu sohada tub burilish yasab berdi. Bu vaqtga kelib o‘rta maktab, kasb-hunar kolleji, akademik litsey va oliy ta’lim bosqichlarida til o‘rganuvchilarda asosan nazariy bilimlarni shakllantirishga ahamiyat qaratilgani sababidan ham chet tillaridagi amaliy darslar ma’ruza shaklidagi an’anaviy (Grammar Approach) mashg‘ulotlariga aylanib qolgani hammamizga ma’lum. Yetishib chiqqan kadrlar, mavjud ta’lim tizimini tahlil qilish, qolaversa, jahon tajribasi ushbu yo‘nalishning samarasiz ekanligini ko‘rsatib berdi.

Shu sababdan ham bugungi kunda ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarda tilni aynan nazariy bilim emas, muloqot quroli sifatida tadbiq etishga ahamiyat qaratilmoqda. Ularda yuqori salohiyatli va shu bilan bir qatorda zamonaviy fikrlovchi, xalqaro miqyosda o‘z bilim va tajribalarini oshirib, o‘z ustida ishlay oladigan, yuqori natijalar ko‘rsata oladigan kadrlarni y e tishtirib chiqarish maqsad qilib olingan. Bunga erishishda ta’limning mahsuldor usullaridan foydalangan holda o‘zida kommunikativlik, tanqidiy fikrlash va oshkoraliq printsiplarini mujassam etgan ilmiy ishlar yaratilmoqda.

Og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirish kompleks jarayon bo‘lib, dastlabki shakllantirish bosqichida talaffuz ko‘nikmalari, leksik va grammatik bilimlar hamda tinglab tushunish malakasi poydevor bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi til o‘rganuvchilarni yangi struktura bilan tanishtiradi, yangi so‘z va so‘z birikmalari o‘rganiladi, fonetik qoidalar

<sup>6</sup> “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1875-сонли Президент қарори. 2012 йил 10 декабрь

takrorlanadi. Mazkur bilimlar strukturasi yetarli darajada bo‘lganda, ulardan kichik monolog va dialogik nutqdan foydalanish imkoniyati tug‘iladi. Oliy ta’lim bosqichida ushbu shakllar erkin muloqot o‘rnatish uchun asos vazifasini o‘taydi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi til o‘rganuvchilarida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish ingliz tilini o‘qitishning hal qiluvchi jihatni hisoblanadi. Samarali og‘zaki muloqot qobiliyatlari talabalarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari, boshqalar bilan muloqot qilishlari, turli akademik va ijtimoiy kontekstlarda faol ishtirok etishlarida ko‘rinadi zarurdir. Ingliz tilini o‘qitishda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

1. Auditoriya muhiti: og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda auditoriya muhiti muhim rol o‘ynaydi. Qo‘llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhit talabalarni ingliz tilida o‘zlarini qulay his qilishga undaydi. O‘qituvchilar kommunikativ va interfaol muhitni yaratib, talabalarga munozaralar, guruh faoliyati va taqdimotlar o‘tkazish uchun imkoniyatlar yaratishi kerak.

2. O‘quv rejasи va pedagogika: o‘quv dasturi va qo‘llaniladigan o‘qitish usullari og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yaxshi ishlab chiqilgan o‘quv dasturi og‘zaki muloqotni asosiy komponent sifatida o‘z ichiga olishi kerak, bunda ravonlik va aniqlik ta’kidlanadi. U rolli o‘yinlar, bahslar, taqdimotlar va guruh muhokamalari kabi turli xil nutqiy faoliyatni o‘z ichiga olishi kerak. Talabalarga nutqni mashq qilishda keng imkoniyatlar yaratish uchun o‘qitishning interfaol usullaridan juftlik va guruhli ish kabilardan foydalanish kerak.

3. Talaffuz va intonatsiya: aniq talaffuz va mos intonatsiya qoidalarini ishlab chiqish samarali og‘zaki muloqot uchun juda muhimdir. O‘qituvchilar dastlabki bosqichlardan boshlab to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyani o‘rgatishga e’tibor qaratishlari kerak. Doimiy ravishda fonetika, tinglash mashqlari va taqlid mashqlari o‘rganuvchilarning talaffuz ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

4. Lug‘at va grammatika: talabalar o‘z fikrlarini to‘g‘ri va ravon ifodalashlari uchun keng lug‘at boyligi va grammatika tuzilmalarini

mustahkam egallahash zarur. O‘qituvchilar so‘z boyligini kengaytirish va grammaticadan foydalanish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berishlari kerak, ularni nutq faoliyatiga qo‘sishlari kerak. Talabalarni so‘zlashuv tilida yangi lug‘at va grammatic tuzilmalardan foydalanishga undash ularning og‘zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Nutq imkoniyatlari: talabalar og‘zaki nutq qobiliyatlarini mashq qilish uchun keng imkoniyatlarga muhtoj. O‘qituvchilar o‘rganuvchilarni turli kontekstlarda nutq so‘zlashga undaydigan tadbirlarni loyihalashtirishlari kerak, masalan, rasmlarni tasvirlash, taqdimotlar qilish, bahslarda qatnashish yoki rolli o‘yinlarda qatnashish. Bu mashg‘ulotlar maqsadli, qiziqarli, talabalarning qiziqishlari va tajribalariga mos bo‘lishi kerak.

6. Xatolarni tuzatish va fikr-mulohazalar: konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish va xatolarni tuzatish talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini oshirish uchun juda muhimdir. O‘qituvchilar eng muhim xatolarga e’tibor qaratgan holda talaffuz, grammatica va lug‘at bo‘yicha tuzatuvchi fikr-mulohazalarni taklif qilishlari kerak. Bundan tashqari, tengdoshga fikr-mulohaza va o‘z-o‘zini baholashni rag‘batlantirish talabalarning o‘z nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘z-o‘zini takomillashtirishga yordam beradi.

7. Texnologiya integratsiyasi: texnologiyani ingliz tilini o‘qitishga integratsiyalash og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim dasturlari, onlayn resurslar va til o‘rganish platformalari qo‘sishma nutq amaliyoti va interaktiv mashqlarni taqdim etishi mumkin. Virtual aloqa vositalari, shuningdek, ingliz tilida so‘zlashuvchilar yoki turli mamlakatlardan kelgan talabalar bilan real vaqt rejimida muloqot qilishni osonlashtirishi mumkin, bu esa o‘rganuvchilarni turli xil nutq kontekstlariga tayyorlaydi.

8. Baholash: samarali baholash amaliyoti og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga mos kelishi kerak. Taqdimotlar va og‘zaki imtihonlar kabi an’anaviy baholashlardan tashqari sinf muhokamalari va guruh faoliyati kabi formativ baholashlar o‘rganuvchilarning muvaffaqiyati haqida qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Rubrikalar va nazorat ro‘yxatlari og‘zaki muloqotning

turli jihatlarini, jumladan, talaffuz, raxonlik, so‘z boyligidan foydalanish va o‘zaro muloqot qobiliyatlarini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

Umuman olganda, o‘rganuvchilarida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish auditoriya muhiti, o‘quv dasturini loyihalash, pedagogik strategiyalar, keng so‘zlashuv imkoniyatlari, fikr-mulohazalar mexanizmlari va texnologiya integratsiyasini qamrab oluvchi har tomonlama yondashuvni talab qiladi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda o‘qituvchilar talabalarga ingliz tilida ishonchli va malakali so‘zlashuvchi bo‘lish imkoniyatini beradigan qo‘llab-quvvatlovchi va interfaol o‘quv muhitini yaratishi muhimdir.

Ma’lumki, xorijiy tillarni o‘qitishda til o‘rganuvchilar uni o‘z ona tilisi bilan muayyan o‘rinlarda qiyoslash, taqqoslash orqali o‘zlashtirishi ijobiy samara beradi. Talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda gapishtirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuzaga keladigan tipik xatolar, mavjud muammo va kamchiliklar aspektlarni dastavval alohida ko‘rib chiqish lozim. Nutqning o‘ta yuqori darajadagi situatsion va hissiyotliligi ham shu jumladandir. Vaziyatning y e tarli lisoniy vositasi bo‘lmaganda og‘zaki nutq to‘liq aloqa vositasiga aylanmaydi, og‘zaki nutq kodi asosida qurilgan va kommunikativ vazifani bajarmaydigan faqat akustik signallar turiga o‘tadi. Chet tilidagi og‘zaki nutq ko‘nimasini rivojlantirish, ona tilidagidan ko‘pgina jihatlardan farq qiladi. Masalan, ingliz tilida mavjud ayrim grammatik qonun-qoidalarning o‘zbek tilida mavjud emasligi (interferentsiya-transpozitsiya jihatlari); ta’limning avvalgi bosqichlarida yaratilgan bilim poydevorining nomutanosibligi; og‘zaki nutqni rivojlantirishda gapishtirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini birgalikda, o‘zaro mutanosiblikda olib boruvchi darsliklar va qo‘llanmalar, shuningdek, mashq va vazifalar tizimining ishlab chiqilmaganligi; maxsus, muayyan o‘quv profiliga yo‘naltirilgan o‘quv adabiyotlarining yetarli emasligi yoki umuman mavjud emasligiga boshqalar. Chet tilini o‘qitish jarayonida ona tili va xorijiy tillardagi tafovutlarga (grammatik, fonetik, leksik kabi) alohida e’tibor qaratish lozim, chunki bizning tadqiqotlarimizga ko‘ra

aynan ushbu faktorlar talabalarning chet tilidagi muloqot jarayonida ko‘proq qiyinchilik tug‘diradi. Xorijiy og‘zaki nutqni o‘qitish kasbiy yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak, chunki OTM ma’lum bir sohada yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashi nazarda tutiladi.

Nofilologik yo‘nalishlarda talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasi dars jarayonida intensiv (faol), interaktiv va kommunikativ shartlariga javob bera oladigan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Umumishtirok ta’lim texnologiyasidan foydalanish oliy ta’lim muassasalari talabalarining nutqiy, shu bilan bir qatorda, shaxsiy rivojlanishida kompleks yondashuvni qamrab olishi mumkin. Xorijiy til ta’limi jarayonini tabiiy amalga oshirish til o‘rganuvchilarda avtonomlik, mustaqil qaror qabul qilishni nazarda tutadi.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayoni uning tarkibiy qismlari sifatida monologik va dialogik nutq shakllarini xam mutanosiblikda olib borishni talab etadi. Shunday bo‘lsa-da, har ikki nutq shaklining dolzarbligini nazarda tutgan holda dialogik nutq shakli malaka va ko‘nikmalari ustuvorlik qilishini ta’kidlash lozim. Muloqot jarayoni dialogik yoki polilog shaklda qurilishi bu fikrimizni isbotlaydi.

Xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, uning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lmish monolog, dialog hamda polilog nutq shakllari orqali amalga oshiriladi. Xorijiy til amaliyotida ushbu shakllardan kompleks tizimda, ketma-ketlikda uyg‘unlashtirgan holda foydalaniladi.

Ko‘plab tilshunos olimlar dialogik nutqni og‘zaki nutqning nisbatan tabiiy shakli sifatida tavsiflashadi. Shu sababdan xorijiy tildagi og‘zaki nutqni rivojlantirishda dialogik shakldan monologik nutqqa qarab o‘qitish strategiyasi qo‘llaniladi. Shunday bo‘lsa-da, amaliyotda muloqot jarayonini rivojlantirish har ikki shaklni uyg‘unlashtirgan holda olib boriladi. Monologik va dialogik nutq shakllarini rivojlantirish talabalarning mulokot jarayonida o‘z fikrlarini mantiqan, uzviy, ketma-ketlikda, to‘liq, kommunikativ-yo‘naltirilgan to‘g‘ri tilda ifoda etish ko‘nikmalarini takomillashtirish orqali erishiladi. Og‘zaki nutq shaklining har ikki turida o‘ziga xos lingvistik, ekstralinguistik va

psixologik xususiyatlar mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, monologik va dialogik nutq shakllarining mazkur xususiyatlarini nazarda tutgan holda xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda vazifa va topshiriqlarni tashkil qilishda ushbu jihatlarga asoslaniladi.

Monologik nutq lingvistik jihatdan bir shaxs (so‘zlovchi) tomonidan, boshqa (tinglovchiga) yoki bir necha shaxslarga o‘z fikrlarini ifodalash, voqeа-xodisa yoki tushunchaga nisbatan tasviriy-baholovchi harakterdagi to‘liq yoki qisqa mazmundagi nutqi deb ta’riflanadi. U suhbat, bayonot, ma’ruza va hisobot shaklida ifoda etilishi mumkin. Ichki tuzilishi jihatidan mazmunan tugallanganlik, mantiqiylik, butunlik, ifodalilik va mukammalligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, monologik qobiliyat (ko‘nikma) mavjud bo‘lib, bunda kommunikativ-maqsadli va til materiallaridan to‘g‘ri foydalangan holda o‘z fikr-mulohazalarini bayon etish malakasi tushuniladi.

Monolog tarkibiy jihatdan – tasviriy, xabar beruvchi (hikoya qiluvchi), munosabat bildiruvchi turlarga bo‘linib; tashkil qilishda so‘zlovchining mustaqil ishtirokiga qarab – reproduktiv, reproduktiv – produktiv va produktiv turlarga; tayyorgarlik ko‘rish darajasiga qarab – tayyorgarliksiz va tayyorgarlik ko‘rilgan nutqqa ajratiladi. Oliy o‘quv yurti talabalarining xorijiy tildagi og‘zaki nutqni rivojlantirishda monologik nutq bosqichma-bosqich ravishda; tayyorgarliksiz, produktiv, voqeа-hodisalarga o‘zining shaxsiy hamda tanqidiy munosabatini bildirishga yo‘naltiriladi. Monologik nutqning produktiv ifodalanishi til o‘rganuvchilarining tanqidiy fikrashi, leksik-gramatik materiallarni mantiqiy tahlillashiga yordam beradi.

Oliy o‘quv yurti talabalarining monologik va dialogik rivojlantirishda, til o‘rganuvchilarining qanday nutqiy ko‘nikmalarga egaligi va qaysilari ustida qo‘sishimcha ishlash lozimligini aniqlaniladi. Bu bosqichda talabalarining nutq faoliyatida produktiv shaklni rivojlantirish muhim. Murakkab kombinatsiyalashgan so‘z birikmalari va gaplar orqali nutq yaratishda kasbiy atamalardan ham unumli foydalanish nazarda tutiladi. Ta’kidlash joizki, produktiv monologik nutq darajasi, so‘zlovchining fikr ifoda etishdagi strukturasi va til

materialini tanlashda mustaqil harakat qilishi, uni tuzishda ijodiy yondashuv va o‘z nutqiga baho bera olish malakasining mukammal rivojlanishi va rivojlantirilishini taqozo etadi.

Murojaat shakli monologik nutqning asosiy xususiyatlaridan biridir. Dialogik nutq bilan taqqoslaganda monologik nutq ixtiyoriy ravishda rejalashtirilishi uzviy va to‘liqligi, tanaffuzlarsiz bayon etilishi bilan ajralib turadi. Unda yaratiladigan mahsul – monologik bayon – yagona diqqat markazida bo‘ladi. Monologik nutqning asosiy kommunikativ vazifalaridan (informativ, his-hayajon- baholovchi, reguliyativ) kelib chiqqan holda oliy o‘quv yurti talabalariga ingliz tilini o‘qitishda uning quyidagi funktsional turlariga ahamiyat qaratiladi:

tasvirlovchi monolog – voqeа-hodisa yoki holat, ob’ektning xarakteristikasi haqida fikr va mulohazalarni ifodalovchi, uning xususiyati, belgi va sifatini tasvirlaydigan tur.

monolog-xabar – (hikoya, bayon) voqeа-holat va jarayonning rivojlanishi haqida ma’lumot beradi.

monolog-munosabat – ushbu turdagи nutqda so‘zlovchi mavjud xabar va voqeа haqida mantiqiy munosabatda bo‘ladi va tahlil qilish, xulosalash asnosida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

E.N.Sololova xorijiy tildagi og‘zaki nutqni monologik shaklining quyidagi asosiy xususiyatlariga tayangan holda rivojlantirish lozimligini quyidagi tarzda ta’kidlab o‘tadi:

- nutqiy faoliyat vazifasiga muvofiqligi;
- mantiqiylik;
- mustaqillik;
- ifodalilik.

Dialogik nutq – og‘zaki muloqot jarayonini umumiylidka o‘zida mujassam etib, ikki yoki undan ortiq bo‘lgan shaxslarning birma-bir xabar almashinuvini taqozo etadi. Ushbu nutq shaklining asosiy maqsadi muloqot ishtirokchilarining o‘zaro og‘zaki nutq jarayonida kommunikativ munosabatlarda bo‘lishidir. Muloqot ishtirokchilarining vazifasi nutqiy muloqot jarayonida funktsional-kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Bunda nutqiy muloqot faoliyatları (umumiylid asosida biriktirilgan

situativ – tematik bayonotlar) fikr va ma'lumotlar almashish nutq etiketi normalariga amal qilgan holda emotssional baho berishga qaratiladi. Dialogik nutqning psixologik xususiyatlari hamda uni bayon etish jarayonidagi shart-sharoitlar, tuzilishi jihatidan uning ko'pgina o'ziga xos jihatlarini yoritib beradi. Ya'ni, suhbatdoshga butun diqqat-e'tiborni qaratish, nutqiy muloqot jarayonini ta'sirchan va samarali qilishga intilish; muloqotdagi ko'pmavzulik (bir mavzuning boshqasiga tez-tez o'zgarib turishi), fikrning oxiriga yetkazilmay qolishi, suhbatdoshning fikr-mulohazalarini qo'llab-quvvatlash kabi ajralib turuvchi o'ziga xos xususiyatlari shu jumladan.

Tabiiy hamda jonli dialogik nutqda fikr almashinish – suhbat jarayoni qisqa fursatda bo'lishi sababli spontan, tayyorgarliksiz nutq yuzaga keladi hamda bu til materialining yuqori avtomatlashgan holatda bo'lishini talab etadi. Shu sababdan E.N.Sololova talabalarda dialogik nutqqa alohida to'xtalib, uni rivojlantirish monologik nutqqa nisbatan murakkabroq vazifa ekanini ta'kidlaydi hamda ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy ikki to'siq sifatida dialogik nutqdagi reaktivlik va situativlik xususiyatlarini ko'rsatadi.

Ingliz tilidagi dialogik nutq tugallanmagan, to'liqsiz gaplardan keng foydalaniishi, qat'iy struktura va normalaridan holi ekanligi, ibora va stilistik bo'yoqlarga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Unda ekstralingvistik vositalar (yuz ifodasi, qo'l harakatlari) nutqiy-verbal vositalar bilan teng o'rinda turadi. Ingliz tilidagi dialogik nutqda, tilning ichki tuzilishi va imkoniyatlari jihatidan quyidagi omillar ustuvorlik qiladi:

Intonatsiya  
Elliptiklik  
Nutqiy klischelardan foydalanish  
Modal so'zlar  
Undov, qisqartmalar  
Umumiyl so'zlashuv uslubi.

Dialog nutqni rivojlantirish jarayonida dialogik birlik (replika-stimul va replika-reaktsiyalar juftligi)ni uyg'unlashtirish usullari turlichay bo'lib, funksional tipologiyaga asoslanadi. Ularga quyidagilar kirishi

mumkin:

- Savol – javob
- Javob – kontrjavob
- Xabar – savol
- Xabar – javob xabar
- Taklif (iltimos) – rozilik (rad etish)
- Xabar (buyruq) – emotsional ta'sir
- Iltimos – xabar
- Xabar – iltimos

Yuqoridagi dialogik birliklardan kelib chiqqan holda oliy o'quv yurti talabalarining og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv dasturiga tayangan xolda eng muvofiqlari tanlab olinadi. Bunda asosan tuzilish jihatdan, shuningdek, murakkab va yuqori salohiyat talab etuvchi, samarali bo'lmish – suhbat (juftlik yoki guruhda), munozara, muhokama kabi turlariga murojaat qilinadi. Xorijiy tillarni o'qitishda dialogik nutqning eng yirik tarkibiy struktur birligi bu – mikrodialog (mantiqiy mazmuniy jixatdan bog'liqlikda bo'lgan yakka tipdagi dialogik birliklar asosida) hamda tematik makrodialog bo'lib, u o'z ichiga bir muloqot vaziyatiga birlashgan bir qancha mikrodialoglarni qamrab oladi. Shuningdek, xorijiy og'zaki nutqni rivojlantirishda erkin hamda standart (etiket hususiyatiga ega dialog) turlari ham ajratiladi.

Standart tur aniq rejajashtirilgan mavzu va rollar asosida (bemorshifokor, sotuvchi-xaridor kabi) stereotip til materiallaridan foydalanishni taqozo etadi. Talabalarning muloqot ko'nikmalari ustida ishlashda erkin dialoglar ko'proq muvofiq bo'lib, ularda og'zaki muloqot jarayonida sotsial o'rinalar belgilanmaydi, suhbat mantiqiy izchillikda, real-hayotiy mavzular va muammoli vaziyatlarni erkin, tanqidiy fikr bildirish orqali olib boriladi (munozara, muhokama, debat va intervyular shular jumlasidandir). Erkin dialog shaklini tanlashda talabalarning mavjud bilim-ko'nikmalari hamda o'quv dasturida ko'zda tutilgan tematikani inobatga olgan holda foydalanish tavsiya etiladi.

Og'zaki nutq til belgilarining ifoda etilayotgan ma'lumot va axborot oqimi talabidan kelib chiqqan holda muayyan qoidalar asosida berilishi bo'lib, ruhiy-fiziologik artikulyatsion, ijtimoiy, madaniy

faoliyatlar natijasi hisoblanadi. Shu boisdan har qanday tildagi og‘zaki nutq jarayoni va uning rivojlantirilishi tilshunoslik va psixologiya-psixolingvistika ob’ekti hisoblanadi.

Tilshunoslikda so‘zlashuvni nutq faoliyatining til maxsuli sifatida o‘rganilsa, psixologiya uni muayyan individga xos bo‘lgan nutqiy jarayon deb hisoblaydi. Nutq tilshunoslik nuqtai nazaridan og‘zaki va yozma kabi ikki asosiy turga ajratiladi. V.V.Vinogradov bu jarayonda quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi:

“Yozma nutqdan ko‘ra og‘zaki nutqning ustuvor jihat shundaki, unda intonatsiya, mimika va imo-ishoralar orqali so‘zlovchi tinglovchiga vaziyatning ikir-chikirlarigacha axborot bera olishi mumkin.”


Lingvistikada nutqning stilistik bo‘yoqlari, undagi ekspressiv-modal vositalar, fraezologik birliklarning o‘z o‘rnida ishlatalishi nazarda tutiladi. Ayniqsa xorijiy tildagi gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda neologizm va boshqa yuqoridaagi vositalarning ortiqcha ishlatalishi kommunikativ muammolarni keltirib chiqaradi.

Xorijiy tilda muloqot jarayonini yo‘lga qo‘yish ba’zi psixologik funktsiyalarga borib taqaladi. Talaba chet tilida muloqotga kirishishi va o‘zga tildagi nutjni tinglab tushunishi uchun unda ushbu jarayonga nisbatan ehtiyoj bo‘lishi, va ular asnosida til o‘rganuvchilarda motivatsiya yuzaga kelishi shart. Psixolog A.A.Leontev va L.S.Vigotskiylarning ta’kidlashicha, motivdan so‘ng so‘zlovchida ichki nutq fazasi, keyin esa motivni amalga oshirish – ya’ni tashqi nutq fazasi amalga oshadi. L.S.Vigotskiy, «Ichki nutq bu – so‘zlarning fikrlarga aylanish jarayoni, tashqi esa – aksincha fikrlarning so‘zga almashinushi» deb yozadi. Shuningdek u, ichki nutqning psixologik tabiatini to‘g‘ri anglamasdan turib, fikrlarning yuzaga chiqishi, ya’ni so‘zga aylanish jarayonini o‘rganishga, uni rivojlantirishga yo‘l yo‘q deb ta’kidlaydi.

Xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning psixologik omillariga tilda muloqot qilishning maqsadlari, ichki motivatsiyaning mavjudligi, mutanosib muhitning yaratilishi, haqiqiy real hayotga yaqin bo‘lgan (autentik) muloqot vaziyatlarini yaratib bera olish kabilarni kiritish mumkin. Xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib

chiqqan xolda quyidagi psixologik omillarni hisobga olishni ta'kilash lozim:

### **1.1.2. Xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy psixologik omillari**



Har qanday og‘zaki muloqot jarayoni ma’lum bir maqsadga yoki boshqa motiv, intilish, istak va qiziqishlarni ro‘yobga chiqarishga qaratiladi. L.S.Vigotskiy fikricha, motivsiz hech qanday nutq jarayoni yuzaga kelmaydi. Talaba nega muloqot qilayotganini ongli ravishda tushunishi kerak. Xorijiy tilni o‘rganayotgan talabada – nega? (maqsad – motiv) va – nima uchun?(vazifa) bu tilda muloqotga kirishim kerak degan savollarga javob bo‘lishi kerak , ya’ni ulardagi asosiy psixologik faktor bu – ushbu xorijiy tilda so‘zlashishga xohish va istak bo‘lishi shartdir. Har qanday og‘zaki muloqot jarayoni ma’lum bir maqsadga bir yoki boshqa motiv, intilish, istak va qiziqishlarni ro‘yobga chiqarishga qaratiladi. L.S.Vigotskiy fikricha, motivsiz hech qanday nutq jarayoni yuzaga kelmaydi. Demak, talaba nega muloqot qilayotganini ongli ravishda amalga oshirishi kerak.

N.D.Galskova va N.I.Gez xorijiy tillarni o‘qitish va undagi og‘zaki nutqni rivojlantirishning mazmun-mohiyati quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak deb hisoblaydi: ta’lim yo‘nalishi sohalariga mos ravishda tanlangan mavzular, kasbga yo‘naltirilgan nutq faoliyati va nutq

materiallari; til materiallari (fonetik, leksik, grammatik, imlo), uni tuzish qoidalari va ular bilan ishlash ko‘nikmalari; muammoli vaziyatlarni muloqot vositasi sifatida yaratish, shu jumladan, madaniyatlararo tushunchalar va farqlarni ham chet tilini amaliy bilish darajasini tavsiflovchi maxsus nutqiy ko‘nikmalar majmuini yaratish; o‘rganilayotgan tilning milliy-madaniy xususiyatlari va vogeliklarini bilish tizimi; ta’lim va moslashish ko‘nikmalari, aqliy mehnatning interaktiv usullari, xorijiy tilda muloqot qilish va o‘z tinglovchisini hurmat qilish madaniyatini ta’minlash.


L.S.Vigotskiy jarayonning psixologik hamda pedagogik jihatlarini ko‘rib chiqqan holda ushbu jarayon inson taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, unda til o‘rganuvchining aqli bilan bir qatorda shaxsiy rivojlanishini ta’kidlab o‘tadi. Uning yozishicha, psixologiya nuqtai nazaridan mashg‘ulotlar o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro faol ta’sir ostida bo‘lishi hamda bir-birlarini to‘ldirib turish shartini o‘z ichiga oladi. Unda erkin va do‘stona muhit, o‘zaro tenglik hissi hukmronlik qilgandagina jarayon ijobiy tus olishi mumkin.

Xorijiy tilni o‘qitishda ta’limiy o‘yinlarning o‘rni va samaradorligi g‘oyatda muhim. Ular tilni tabiiy ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy o‘yinlar boshqa turdan farqli jihatni unda tizimlilik bilan bir qatorda kutilmagan vaziyatlar — spontanlik xos bo‘ladi. Bunda talabadan xorijiy tildagi so‘zamollik, tasodifiy savollarga tezkorlik bilan javob qaytarish talab etiladi.

Xorijiy til mashg‘ulotlarida o‘yinlardan foydalanish tildan tabiiy va ixtiyoriy foydalanishga, “xorijiy til muhiti”ni yaratishga yordam beradi. Interfaol metod va usullar, ta’limiy o‘yinlarda talabalar real hayotdagি vaziyatlarni o‘zga tilda aks ettirib bera olishga harakat qilishadi.


Quyida interfaol metod va usullarning ayrimlari grafik organayzerlardan foydalanib, quyidagi tarzda ko‘rsatiladi:



O‘yinlar vositasida darsdagi qo‘rquv, guruh oldida so‘zlash va xato qilib qo‘yishdan uyalish kabi psixologik bar’erlarni bartaraf etiladi. Guruh a’zolarida o‘z kuchiga bo‘lgan ishonch va g‘alaba sari mas’uliyat hissi uyg‘onadi. Darsda har bir talabaning bilim darajasidan qat’iy nazar tenglik ta’minlanishi, guruhda do‘stona muhit yaratish xorijiy tilda erkin muloqot jarayonining asosiy poydevori hisoblanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda xorijiy til o‘rganish samaradorligini oshirishda turli interfaol metodlar, masalan, “Klaster” metodi qo‘l keladi.


„Klaster” metodi (bunda O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi millat vakillari nomlaridan yoziladi. Shu millatning o‘ziga xosligini ingliz tilida aytish so‘raladi. Buning uchun guruhlarga oq qog‘oz beriladi va vaqt belgilanadi )



Yoki “O‘rnini top” metodida har bir qatordagi harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib millat nomlarini hosil qilish kerak bo‘ladi, guruhlarga varaqlar tarqatilib, sifatli bajarishlari uchun vaqt belgilanadi.

“Dunyo xaritasi” usulida esa rivojlangan davlatlarni xaritadan ko‘rsatib, shu davlatlar haqida fikrlarini inglizchada aytish talab etiladi.





“Matn ustida ishlash” usuli asosida ham til o‘rganish, olingan bilimlarni sinash-tekshirish, ham milliy istiqlol g‘oyasini singdirish maqsadini qo‘yish mumkin. Buning uchun quyidagi matnlardan foydalanish, belgilangan vaqt ichida uni inglizchaga tarjima qildiish, talabalar tomonidan qilingan tarjima to‘g‘riligini elektron doskada ko‘rsatilgan to‘g‘ri tarjimaga qiyoslab to‘g‘rilatish mashg‘ulot samaradorligini oshiradi.

### ***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI-MUSTAQIL DAVLAT***

*Mustaqillik - eng ulug‘ ne’mat. Mustaqil davlat xalqi erkin va ozod bo‘ladi. shuning uchun ota-bobolarimiz asrlar davomida mustaqillik uchun kurash olib borganlar.*



*1991-yil 1-sentabr -O'zbekiston mustaqillikka erishgan tarixiy sana. Shu kundan boshlab mamlakatimiz taraqqiyot yo'liga chiqdi. Bugungi kunda erishgan yutuqlarimiz mustaqillik tufaylidir.*

*Mustaqillik yillarida yosh avlodning komil insonlar bo'lib yetishishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Yorug' va shinam o'quv xonalari, sport inshootlari, ijod markazlari barpo etildi. Yoshlar bu imkoniyatlardan foydalanib, o'z iqtidorlarini ro'yobga chiqarishlari mumkin.*

*Bugungi kunda o'zbekistonlik yoshlari har sohada ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, dunyoga tanilmoqdalar.*

*Har bir inson o'z Vataniga xizmat qilishi, uning gullab-yashnashiga hissa qo'shishi lozim.*

*O'zbekiston ramzlarini sanalmish bayroq, gerb, madhiya va Konstituttsiya mustaqilligimizning asosiy belgilaridir.*

Xorijiy tilni intensiv usulda o'rgatishda "Sinkveyn" metodi ham qo'l keladi.



### **"SINKVEYN" METODI**

*"Sinkveyn" fransuzcha so'z bo'lib, "besh qator" degan ma'noni bildiradi, ya'ni "besh qatorli qofiyasiz she'r".*

1. Ot (1 so'z)
2. Sifat (2 so'z)
3. Fe'l (3 so'z)
4. Ibora, Tasviriy ifoda (gap bilan ta'rifi beriladi)
5. Sinonimi (1 so'z yoziladi)  
1-qatorda yozilgan so'z bilan ma'nosi bir xil bo'lsin).

#### *Sinkveyn metodiga misollar:*

- 1.Maqol.
  - 2.Ibratli, nasihatomuz.
  - 3.O'rgatadi, tarbiyalaydi, nutqni bezaydi.
  - 4.Xalq hikmatlarining qaymog'i hisoblanadi.
  - 5.Ibrat.
- 
- 1.So'z.
  - 2.Ta'sirchan, jozibador.
  - 3.Ruhlantiradi, hayot baxsh etadi, hayotga muhabbatni so'ndiradi.

4.Ma'dani inson guhari so'zdurur.

5.Kalom.

Ingliz tilidan “So‘z boylikni oshirish” usulini qo‘llashda quyidagi rasm qo‘l keladi:



“Baliq skleti” metodida o‘rganilayotgan har bir so‘zni tavsiflashda va so‘z ma’nolarini farqlashda asqotadi.

## **2.2. Ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishda innovatsion usullarning o‘rni**

Ta’limning innovatsion shakllari yuqori kommunikativ qobiliyat va talabalarni o‘quv faoliyatiga faol jalb qilish, nutq va tinglash ko‘nikmalarining faollashtirish, kommunikativ kompetensiya ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish bilan tavsiflanadi. Bu zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga moslashishga yordam beradi, chunki jamiyat zamonaviy dunyoga yo‘naltirilgan, mustaqil va tashabbuskor, o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga erishadigan ustozlarga muhtoj. Har qanday innovatsion faoliyat ijodkorlikka asoslangan. Ijodiy faoliyat shaxsiyatning hissiy va intellektual sohalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Bu zamonaviy o‘quv jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Ta’lim faoliyati ushbu muammoni hal qilishni ta’minlaydigan aniq texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Bular ta’limning innovatsion shakllari: rol o‘ynash, loyiha usuli, AKT, tanqidiy fikrlash

texnologiyasi texnikasi, ko‘p o‘lchovli didaktik texnologiyalaridan iborat.

Jamiyat rivojlanishidagi zamonaviy tendentsiyalar shuni ko‘rsatadiki, yaqin kelajakda dunyo mehnat bozorida taklifning talabga nisbatan ortishi kuzatiladi. Rossiyalik tadqiqotchi V.S.Bezrukovaning fikriga ko‘ra, “mehnat bozorida yuqori kasbiy fazilatlarni taklif eta oladigan, ular uchun davlat va nodavlat korxonalariga real ehtiyoj mavjud bo‘lgan”<sup>7</sup> raqobat sharoitlari vujudga keladi. Hozirgi vaqtida raqobatbardosh mutaxassis bir qator talablarga javob berishi kerak, xususan, professional harakatchanlik, yangi bilim, ko‘nikmalarni tezkorlik bilan egallash qobiliyati, o‘zining kasbiy faoliyatini kasbiy funktsiyasining o‘zgarishiga muvofiq ravishda moslashtirish va hokazolar.

Etuk olimlar biror jarayon haqida fikr bildirishdan oldin uzoq tajriba va kuzatishlar olib borishadi. Pedagogika sohasi olimlari ham falsafaning tarkibida bo‘lgan davrlardan tortib to bugungacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida muntazam to‘ldirib, o‘ziga xos tarzda takomillashtirib kelishdi. O‘tmishdagi vaqlar oralig‘ida ro‘y bergen turli o‘zgarishlar va davrlarning ta’sirida bu soha yanada rivojlandi. Qaysi davrni olmaylik, ilm fanni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘sish uchun xizmat qilgan bu soha bugun ham har doimgidek asosiy o‘rin egallamoqda.

Ta’lim va tarbiya jarayoni o‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o‘zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to‘plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishida, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashida, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, avvalo, pedagogning o‘zida yangicha bilim berish, o‘zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug‘ullana olish ko‘nikmalarini tarkib topgan bo‘lishi lozim. Davr bilim berish, talabalarda muayyan ko‘nikma va malakalarni

---

<sup>7</sup> Безрукова В. С. Касбий педагогикага кириш. – Екатеринбург, 2019. – С. 51.

shakllantirishning o‘zgacharoq yo‘llarini topishni talab etmoqda. Ta’lim tizimi va uni yo‘lga qo‘yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtarda dunyo miqyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini taqozo etdi.<sup>8</sup>

Ta’lim jarayonida o‘qituvchining sifatga erishish yo‘llari asrlar davomida izlangan va bu jarayon davom etadi. SHuni ham ta’kidlash zarurki, mehnat bozorida, albatta, pedagoglarga bo‘lgan talab hamisha ortib boraveradi. Shu sababli pedagogik faoliyat o‘qituvchiga yuqori talablar qo‘yadi. Bo‘lajak o‘qituvchini barkamol mutaxassis qilib shakllantirish jarayoni professional pedagogikaning muammolaridan biridir. So‘nggi yillarda ijtimoiy tajriba doimiy ravishda o‘zgarib borayotganligi, ta’lim sohasi qayta qurilayotgani tufayli o‘qituvchining malakasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qituvchining kasbiy mahoratiga oid g‘oyalarni o‘rganish turli xil yondashuvlardagi jiddiy o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda: o‘qituvchining pedagogik yo‘nalishini shakllantirish asoslarini ishlab chiqishdan tortib, kasbiy va shaxsiy muhim fazilatlarni rivojlantirish va shaxs sifatida pedagogik ijod manbalarining mohiyatini tushuntirishgacha.

Kasbiy va pedagogik kompetensianing umumiyligi fenomenologiyasi va uning o‘ziga xos turlari Zeer Y.F., Pavlova A.M., Sshanyuk Y.E.<sup>9</sup>, Kuzmina N.V.<sup>10</sup>, Simonenko V.D.<sup>11</sup> va boshqalarning asarlarida izohlangan bo‘lsa, Keldiyorov R.<sup>12</sup> asarlarida kasbiy mahoratning individual jihatlari yoritilgan.

Insoniyat bilim olish va bilim berishning shunday bosqichiga yetdiki, endilikda necha ming yillardan buyon foydalanib kelinayotgan o‘qitish usullari yetarli bo‘lmay qoldi. Bugun o‘qitishning turli-tuman

<sup>8</sup> Собирова М. Замонавий ўқитувчининг ҳамкорлик технологияси. “Замонавий ўқитувчининг касбий фаолиятига инновацион ёндашувлар” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий конференция материаллари. – Наманган. 5.10.2020. – Б. 235.

<sup>9</sup> Зеер Е.Ф., Павлова А.М., Сшанюк Е.Е. Касбий таълимни модернизация қилиш: баркамолликка асосланган ёндашув. – М.: МПСИ, 2005. – Б. 48.

<sup>10</sup> Кузмина Н.В. Акмеология мавзуси. – Санкт-Петербург: Политехника, 2002. – Б. 102.

<sup>11</sup> Умумий ва касбий педагогика. Дарслик. Педагогика университетлари талabalari учун кўлланмана / Ед. В. Д. Симоненко. – Москва: Вентана-Граф, 2005. – Б. 114.

<sup>12</sup> Келдиёров Р. Тил ўргатишида ўқитувчиси фаолиятининг муҳим қирраси.// Тил ва адабиёт таълими, 1998, №1.– Б.41.

innovatsion ko‘rinishlari yuzaga kelmoqda<sup>13</sup>. O‘qituvchi yutuqqa erishishi uchun ko‘plab turli metodlarni qo‘llashi emas, balki tanlangan shu metod orqali o‘quv jarayoniga yangilik olib kirish va shu yangiliklar bilan yoshlarni “qurollantirishi” lozim. Pedagogga qo‘yilayotgan yagona, asosiy talab samarali ta’lim berish va qo‘yilgan talablarni hamda DTSni bajarishdir. Ta’lim tizimida mukammallik bugungi kun qarashlarida birinchi o‘ringa chiqib oldi. Sabab oddiy, kompetentlik darajasi yuqori, ta’lim sifatini oshiruvchi, bilimli va zukko o‘qituvchiga ta’lab katta. O‘qituvchi o‘z ustida ishlamasa, izlanmasa, jarayonlarga, tadbirlarga, darslarga ijodiy yondashmasa, yoshlar oldida hurmatsiz shaxsga aylanib qoladi. Bu esa uning pedagoglar oldida hurmati pasayib ketishiga olib keladi. O‘qituvchining bir maqsadi: bugun qanday dars o‘tsam, samarali bo‘ladi deb o‘ylashidadir. Dars jarayonida o‘qituvchi auditoriyaning ichki imkoniyatlarini hisobga olib, talabalarning nimaga qodirligidan kelib chiqib, bilim saviyasini o‘rganib, usul tanlaydi. Metodikamizda metod va texnologiyalar, usul va vositalar juda ko‘p. Lekin hammasi ham bir dars uchun to‘g‘ri kelavermaydi.

O‘qituvchi bu ildam davr muhitini hisobga olgan holda o‘zining ilmiy-pedagogik izlanishlarini talaba yoshlarga yetkazib berishi lozim bo‘lgan shaxsdir. Bunda hayotiy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. Izlanishlardan to‘plangan ma’lumotlar bazasini amaliyatga tadbiq qilish ham ta’lim va tarbiya samaradorligini kafolatlaydi. O‘qituvchi, avvalambor, o‘qitishni o‘rgatmog‘i, uning o‘qitish texnikasining boyligi, qiziqtira olish mahorati bilan bir qatorda so‘zlash san’ati, notiqlik madaniyati, ta’sir eta olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi maqsadlidir.

O‘qituvchining ish faoliyatini baholash kriteriyalarini aniqlashga doir turlicha fikrlar mavjud. Ba’zi olimlar o‘qituvchi faoliyatini baholash kriteriyasini jamiyatimizning umumiyligi maqsadidan kelib chiqqan holda uning «o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishiga» qarab baholash lozimligini ta’kidlaydi. Ikkinchi guruh olimlar “jamiyatning maqsadini ta’lim tizimida amalga oshirish lozim”

<sup>13</sup> Собирова М. Ҳамкорлик таълими технологияларининг дидактик моҳияти. Тил ва адабиёт масалалари. №7. Республика олий ўқув юртлари профессор ўқитувчиларининг илмий мақолалари тўплами. – Наманган. 2019. – Б. 335.

degan fikr bilan o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ya’ni ta’limning natijaliligi asosida o‘qituvchining kasbiy sifatlariga tavsif berishligini ta’kidlaydi. Bizningcha, kreativ o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini har tomonlama to‘g‘ri tashkil etishi bilan birga o‘zlarining imidjiga xam e’tibor berishi lozim. Pedagogik imidj orqali yoshlarning qiziqishlarini orttirgan holda o‘zini namoyon qila olish, o‘ziga og‘dira olish va e’tiborni qarata olish dars jarayonining samaradorligini oshiradi. Pedagoglarga faqatgina iste’dodining o‘zi yetarli emas, shu bilan birga, yoshlarga yoqa olishni ham bilishi kreativlikka kiradi.

O‘qituvchi shaxsining shakllanishi murakkab va turli xil ziddiyatlarga ega jarayon bo‘lib, bu o‘qituvchining o‘z fani yuzasidan bilimlarni egallashi va o‘zlashtirishlari emas, balki uning o‘zini har tomonlama, etik va axloqiy, kasbiy-pedagogik sifatlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishidir. Uning shakllanish jarayoni pedagogik jarayon barcha ishtirokchilarining turli xil ta’siri, ijtimoiy muhit, pedagogika fanining, amaliyotining, umuman, jamiyatning ijtimoiy talablariga bog‘liqdir.

Olib borgan tadqiqotlarimiz va tajribalarimiz o‘qituvchi shaxsining asosiy sifatlariga g‘oyaviy ishonchi, ijtimoiy-siyosiy faolligi, ma’naviy-axloqiy sifatlari va o‘z mehnatiga ijodiy yondoshish ekanligini ko‘rsatmoqda. Talabalar orasida o‘z nufuziga, avtoritetiga ega o‘qituvchi talaba-yoshlar jamoasiga etalon, namuna bo‘lib hisoblanadi. Talabalar unga o‘xshashga, uning fikrlari, qiziqishlari, qarashlari, xatti-harakatlari, o‘zini jamoa oldida tutishi, hatto kiyinish manerasigachaga unga tahlid qilishga, uning darajasiga yetishga harakat qiladi, u dars beradigan fanga ijobiy munosabati shakllanadi.

O‘qituvchining faoliyati asosan uchta ob’ektga yo‘naltirilgandir. Birinchisi – o‘qituvchining o‘z faoliyatiga yo‘naltirilganligi. Bunda o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyati jarayonida pedagogik jamoa orasida:

- o‘z ijtimoiy mavqeiga ega bo‘lishi;
- o‘z tarafdarlariga ega bo‘lishi;
- o‘z bilimi va tafakkurini oshirib borib, yangilik sari intilishi;

- samarali natijalarga erishishi;
- o‘z faoliyatini samarali tashkil etishi;
- tajriba orttirishi;
- o‘ziga qulay ish sharoitini yaratishi.

Ikkinchisi – o‘qituvchi faoliyatining boshqa shaxslarga, jumladan, talaba shaxsiga yo‘naltirilganligidir. Bunda o‘qituvchining:

- talabalarga insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lishi;
- ularning ishonchiga kirishi;
- talabalarga turli xil vaziyatlarda yordam berishi;
- ularni qo‘llab-quvvatlashi;
- bir-birini tushuna bilishi;
- talabaning o‘z fikrlarini to‘liq yoritishiga sharoit yaratishi;
- o‘z qobiliyatlari, imkoniyatlari va o‘zligini anglashiga yordam berishi;
- talabalarni boshqara olishi;
- ular bilan har qanday vaziyatda muloqotga kirisha olishi.

Uchinchisi – shaxs sifatida o‘qituvchi faoliyatining o‘z-o‘ziga yo‘naltirilganligi nazarda tutiladi. O‘qituvchi quyidagi jihatlarga ega bo‘lishi talab etiladi:

- psixologik va fiziologik jihatdan salomat bo‘lishi, o‘z-o‘zini himoya qila olishi; o‘qituvchining darsda his-hayajonlarini bartaraf eta olishi, har qanday sharoitda ham asab tolalarini saqlagan holda o‘zining komfort holatini buzmasligi;
- o‘z mahoratini doimiy ravišda oshirib borishi.
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lishi, mustaqil bo‘lishi;
- o‘z qadriga yetishi, bilimiga ishonishi va uni muntazam takomillashtirib borishi.

O‘qituvchining kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehn o‘tkirlikni ham belgilab beradi.

Demak, talaba faolligini oshirishda o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy figurasi ekan, uning shaxsini va kasbiy faoliyatini,

kreativligini baholash, qolaversa, o‘qituvchining o‘z faoliyatini o‘zi baholashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning qiziqishlarini rag‘batlantiradigan va o‘rganish istagini rivojlantiradigan texnologiya turli xil loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq. Ushbu texnologiyadan foydalanish guruhda ishlashning barchaga mumkin bo‘lgan shakllarini ta’minlashga imkon beradi: individual, guruhli, jamoaviy, bu talabaning mustaqilligi va ijodkorligini rag‘batlantiradi.

Ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlash texnologiyasining texnikasi talabalarga o‘z faoliyatini tashkil etishni, fikrlash qobiliyatini, malakali va mazmunli o‘qishni, hamkorlik qilish qobiliyatini va boshqalarni o‘rgatadi.

Dars davomida bitta dars yoki uning bir qismi uchun mo‘ljallangan mini loyihalardan ham, ularni bajarish uchun uzoq vaqt talab qiladigan yirik loyihalardan ham foydalanish mumkin. Loyihalar individual va guruhli bo‘lishi mumkin. 1-yilda quyidagi loyiha vazifalari ishlatilgan:

1-bo‘lim. "Odamlar tavsifi" mavzusidagi loyiha “Baliq skeleti” usuli asosida talabalarga taklif etiladi. Masalan, kursdoshlarining tashqi ko‘rinishi, xarakteri, kasblari va sevimli mashg‘ulotlari haqida og‘zaki tavsif (men o‘zim haqimda, mening ismim, ota-onam, opa-singillarim, aka-ukalarimning ismlari, manzil, mening yoshim, tug‘ilgan kun, mening tashqi ko‘rinishim, mening qiziqishlarim va h.).



2-bo‘lim. "Hududning tavsifi" mavzusidagi loyiha. Talabalar o‘z ona shahrining maketini yasashadi va tavsif berishadi (ism, geografik joylashuv, yodgorliklar, mening sevimli joylarim).

3-bo‘lim. "Buyuk Britaniyaning madaniy va milliy an’analari, o‘lkashunoslik, urf-odatlari va bayramlari" mavzusidagi loyiha.

"Londonga sayohat" mavzusidagi darsda vaziyat taklif qilindi: talabalar Londonga chipta yutib olishdi, ular poytaxtning diqqatga sazovor joylari haqida ko‘proq ma’lumot olishni xohlashadi.



Ba’zi talabalar ingliz oilasida yashaydilar. Ular Londonga samolyotda uchishadi.

Loyihaning turi aralash, chunki u tadqiqot, ijodiy va rolli loyihalar belgilariga ega. Loyiha bo‘yicha ishlar bir necha bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi darsda talabalarga vaziyat taklif qilindi va bo‘lajak loyihaning asosiy mazmuni muhokamasi tashkil etildi. Muhokama natijasida muammolar tanlandi, ish yo‘nalishlari ta’kidlandi va loyiha rejasi tuzildi. Loyiha uchun ishchi materiallar ishlab chiqarildi. Bular: London xaritasi maketi, Londonning diqqatga sazovor joylari fotosuratlari va "Slayd taqdimotlari", "Londonning diqqatga sazovor joylari" qo‘llanmasining loyihasi, vitrinalar va kafelarning maketlari, zarur rekvizitlar tayyorlandi. Dars dastlabki bosqichda, etiket bir tabiat

takrorlash va clichés tashkil etiladi ("do‘konda", "bir kafe ichida" yo‘nalishlari uchun so‘rash va hokazo.).

Nutq materialini tuzatgandan so‘ng har bir guruh o‘z xabarini taqdim etadi. 1-guruh talabalari samolyotga qo‘nishni uyushtirdilar.

Styuardessa qo‘nish, yo‘lovchilarni tabriklash, ulardan chipta taqdim etishni so‘rash, samolyot saloniga borishni so‘rash va hokazolarni bajarib, parvoz paytida ularga xizmat qiladi.

Yo‘lovchilar rolini olgan yigitlar suv, sharbat, choy ichishni, musiqa tinglashni, tushlik qilishni buyurdilar.

2-guruh talabalari mehmonxonaga kelganlaridan so‘ng ularni keyingi yashash uchun ingliz oilasiga yuboriladi. Ushbu guruh "Smit oilasiga tashrif buyurish" hikoya-rolli o‘yinini o‘tkazadi, odob–axloq xarakteridagi nutq klichlari, dialog - so‘roq, monolog bayonotlaridan foydalanishadi.

3-guruh a’zolari do‘konga, 4-guruh esa kafeda kechki ovqatga borishdi. Darsning ushbu bosqichlarining barcha ishtirokchilari vazifaga juda mas’uliyat bilan yondashadilar. Ayniqsa bu o‘rinda "zaif" talabalarga katta e’tibor qaratiladi va o‘qituvchi tomonidan vaqtি-vaqtি bilan yordam berib boriladi.

Kechqurun ishtirokchilarning aksariyati Londonning diqqatga sazovor joylarini ko‘rish uchun borishadi. "Yo‘lni so‘rab" guruhida birlashtirilganlar nutqda qo‘llash zarur bo‘lgan atamalardan foydalanib, ular mahalliy aholidan qanday qilib ma’lum bir diqqatga sazovor joyga borishni so‘rashadi. Mahalliy aholining tushuntirishlarini tinglab, xarita asosida yo‘lga otlanishadi. London markazi xaritasining tartibini kerakli ob’ektga kuzatib borishadi.

Vazifaning to‘g‘riligini tasdiqlashda interaktiv doskada kerakli tasvirlar bilan slaydning paydo bo‘lishi yordam beradi. Darsning barcha bosqichlarida talabalar va o‘qituvchining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan tayyorlangan taqdimot bilan birga o‘tadi.

Bunday darslarning asosiy vazifalari tinglash va nutq qobiliyatlarini faollashtiradigan amaliy, o'qituvchilar tomonidan modellashtirilgan vazifalardir. Dars oxirida natijalar sarhisob qilinadi. Ya'ni:

talabalar lingvistik jihatdan nimani o'rgandilar? (Ular do'konda biror narsa sotib olishni, kafeda buyurtma berishni, yo'nalish so'rashni bilishi.)

ularning muloqot faoliyati qanday o'zgardi? (ular bir-birlari bilan muloqotda bo'lib, birgalikda xushmuomalalik bilan minnatdorchilik bildirishlari, so'rashlari, taklif qilishlari, rad etishlari va hokazo.)

loyihaning talaba umumiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi qanday? (u rol o'ynashi, ifodali va hissiy gapira olishi.)

yigitlar qanday universal harakatlarni o'zlashtirdilar? (ular mustaqil ravishda kerakli ma'lumotlarni qidirishlari mumkin.)

Bunday darslarda quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi: "to'g'ri va noto'g'ri bayonotlar", "chalkash mantiqiy zanjirlar", "asosiy atamalar".

Muallif V.G.Timofeev "yuqoriga va yuqoriga" kattalar uchun shunga o'xshash vazifalar yetarli, shuning uchun men yangi narsadan foydalanishga harakat qilaman. Masalan: elementlarni (jumlaning boshi va oxiri) bir-biri bilan bog'lang va ularni juftlarga birlashtiring. Ushbu texnologiyaning texnikasi talabaga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'z nuqtai nazarini erkin, xato qilishdan va tuzatishdan qo'rmasdan, barcha bayonotlarni tuzatish imkoniyatini beradi, chunki ularning har biri keyingi ish uchun muhim bo'ladi.

O'qitishning interfaol usullari, ayniqsa, ingliz tilining grammatik tomonini o'rganishda samarali bo'ladi. Masalan, doimiy va aylanma (almashtiriladigan) juft yoki uchlikda ishlash texnologiyasi.

Guruh ishi ham yangi emas va hammaga yaxshi ma'lum. Masalan, 1-kurs mavzusi doirasida "Mamlakatshunoslik», «Buyuk Britaniya»,

«O‘zbekiston» mavzularida ishlash mumkin. Buning uchun quyidagi sxema bo‘yicha ishlash tavsiya etiladi:

1-bosqich. Birlashgan Qirollikning to‘rt qismidan biri haqida ma’lum bir rejaga muvofiq talabalar ishlashadi. Qismni tanlash qur’a tashlash orqali amalga oshiriladi.

2-bosqich. Shotlandiya, Uels, Shimoliy Irlandiya, Angliyadagi kichik guruhlarda ishlash. Talabalar topilgan ma’lumotlarni baham ko‘rishadi, tizimlashtiradilar.

3-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash. Birlashgan qirollik haqida har bir talaba guruhning butun jamoasiga o‘z qismi haqida ma’lumot olib keladi.

4-bosqich. Tugallangan jadvallarni solishtiradilar, materiallarni to‘ldiradilar, fikr almashadilar, Birlashgan qirollik haqida mini-hikoyalar tayyorlaydilar.

Chet tillarini o‘rganish jarayonini takomillashtirish maqsadida kompyuter yordamidagi darslar ham samarali hisoblanadi. Turli xil multimedia o‘yinlari talabaning so‘z boyligini kengaytirishga hissa qo‘sadi, ingliz tili grammatikasini tanishtiradi, nutqni qulq bilan eshitishga, tushunishga, to‘g‘ri yozishga o‘rgatadi. Kompyuter dasturlari rangli grafikalar, videolar va musiqlarni birlashtiradi.

Bu o‘rinda "Evro talk", "Ingliz tilida gapirishni o‘rganing" kabi dasturlar ham qo‘l keladi. Ushbu dasturlardan foydalanish talabalarning mavzuga bo‘lgan motivatsiyasi va qiziqishini oshirishga imkon beradi. Ushbu dasturlar, shuningdek, har bir mavzu bo‘yicha bilimlarni nazorat qilishni ta’minlaydi. Taqdimot bilan loyihalar deyarli har bir mavzu bo‘yicha amalga oshiriladi. Shuningdek, didaktik ko‘p o‘lchovli vositalar texnologiyasi ham samarali hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning ishchi vositalari mantiqiy va semantik modellardir. Modellar ko‘p funktsiyali bo‘lgani sababli ularni o‘qitishning turli bosqichlarida ishlatish mumkin, ya’ni yangi material bilan dastlabki

tanishish paytida, uni birlashtirish paytida, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, ularni tuzatish va boshqarish paytida.

Umumishtirok – kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi pedagogikada bir qancha muddat avval kirib kelgan. Dewey<sup>14</sup> falsafasida ushbu yo‘nalish ta’lim jarayonidagi pragmatik uslubiyatning muhim elementlaridan biri sifatida ko‘riladi. Umumishtirok texnologiyasining tub mohiyati amerikalik pedagoglarning 3 guruhi tomonidan kichik detallariga qadar ishlab chiqiladi. Ular Jon Hopkins universitetidan R.Slavin, Minesotta universitetidan Rojer Jonson va David Jonson hamda Koliforniyadan J.Arinson guruhi edi.

Keyingi bosqichlarda (umumishtirok texnikasining yangi) jahonning boshqa rivojlangan mamlakatlari pedagoglari tomonidan umumishtirokda ishlash texnologiyasi ta’lim jarayoniga tadbiq etilib, yangi fikrlar va tamoyillar bilan boyitiladi. Mashhur rus tilshunosi va psixologi Leontev ta’kidlaganidek, “Pedagogik muloqot – bu ko‘p qavatli konstruktsiyaning xuddi o‘zidir. Unda quyidagilar o‘zaro bir birining ustuniga aylanadi: faoliyat – o‘zaro muloqot – aloqa – kontakt.”<sup>15</sup>

Jahon ta’lim tizimi jarayonida so‘nggi 30 yil ichida kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi o‘ta faollashdi va keng foydalanila boshladi. Texnologiyaning bugungi kunga qadar uzlusiz o‘zgarib va sayqallanib borayotgan aspekti bu uni ta’lim jarayonidagi sub’ektlar (tarbiyachi, o‘qituvchi va talabalar) qanday tartibda foydalanilayotgani va qaysi yo‘nalishda ko‘proq uni amaliyotda joriy etayotgani bilan bog‘liqdir. Umumishtirokda ishlash jarayonidagi tizimlilik anglashga yo‘naltiriladi, uning asosida esa ob’ektni o‘zaro aloqador elementlarning bir butun yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish yotadi.

Tilshunos olimlar orasida umumishtirokda ishlash jarayonida talabalarni kichik guruhlarga ajratishda ko‘plab ziddiyatlar mavjud. Bu borada hozirgi kunga qadar bir tomonlama fikrga kelingani yo‘q. Ba’zi pedagoglar bilim jihatidan zaifroq talabalarni kuchliroq

<sup>14</sup> <http://altruism.ru/sengine.cgi/5/7/8/7/9>

<sup>15</sup> <https://www.marxists.org/archive/leontev/>

talabalar bilan (teng bilim darajasida bo‘lgan) alohida guruhlarga ajratish kerak deb hisoblasa, boshqalar aralash holda tadbiq etgan ma’qulroq deb hisoblashadi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida bir qator tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishining maqsadi olingan natijalarga ko‘ra ta’lim va tarbiya jarayonining aniq muammolari yechimiga oid pedagogik va metodik tavsiyalar, pedagogik innovatsiyalar, ta’lim sifatini oshirishga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdir. Bizning tajriba-sinov ishimiz dissertatsiyaning boshida ilgari surilgan g‘oyani real sharoitda sinovdan o‘tkazib, olib borayotgan ishimizda samarali ta’sir etuvchi omillar asosida yangi va ijobiy natijaga erishishga qaratilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishimizning maqsadi – ingliz tilini o‘qitishda talabalarning og‘zaki nutq, ko‘nikma va malakalarini baholash xususiyatlarini aniqlashtirishdan iborat.

Oliy o‘quv yurtlari talabalariga ingliz tilini o‘qitishda ularning og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirish maqsadida quyidagi metod va usullar tajribalarda sinab ko‘rildi hamda samarador hisoblandi.

**O‘yin texnologiyalari** – talabalarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy voqelik va hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladigan ta’lim turi bo‘lib, bu texnologiya ingliz tilini o‘rganishda qo‘l keladi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (masalan: talabalar, ota-onalar, pedagogik jamoa a’zolari, ta’lim muassasasining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlaming vakillari va b.) sifatida turli rollarni bajarish talabalarga inglizcha so‘zlar talaffuzida malaka hosil qilish imkoniyatini yaratса, til o‘rganuvchilarga ma’lum faoliyatni samarali tashkil etishga ham nazariy, ham amaliy, eng muhimi, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.

**O‘yin – 1)** kishilik faoliyatining muhim turi;

2) ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli. Faoliyatning bu turi muhim ahamiyatga ega. O‘yinlar idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni

ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar chidamlilik, qat’iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o‘rin egalladi. Zamonaviy sharoitda intellektual, sport va maishiy hordiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yinlar ham kattalar orasida keng ommalashgan. Faoliyatning bu turi orqali shaxs insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlarni o‘zlashtiradi, ma’lum sohalarning mutaxassisi sifatida ularning yanada rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. O‘qish faoliyatini tashkil eta olish uchun ham shaxs ma’naviy-axloqiy (to‘g‘ri munosabat, mas’uliyatni his qilish, o‘z xatti-harakatlarini baholay olish) va irodaviy (chidamlilik, tirishqoqlik, toqatlilik, o‘z kuchi va imkoniyatlarini baholay olish) sifatlarni o‘zlashtira olishi lozim.

O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi) – Ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biridir. **Didaktik o‘yinlar** – o‘rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o‘yinlar talabalar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o‘qish ko‘nikmalarini faol o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o‘yinlar talabalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo‘riqishlarni kamaytiradi. Didaktik o‘yinlar davomida o‘qituvchining inglizcha talaffuzga, diktsiyaga katta e’tiborli bo‘lishi talab qilinadi. Diksiya - so‘zlarning aniq talaffuz qilinishi. Pedagogik faoliyatda diksiyaga e’tibor qaratish muhim shartlardan biri sanaladi. Qolaversa, diksiyaning to‘g‘ri bo‘lishi o‘qituvchining pedagogik mahoratini ifodalovchi holat sifatida baholanadi. Shunga bog‘liq holdagi bir qator innovatsion ish usullari quyida tavsiya etiladi:

**“Adashmay toping!”** ta’limiy usuli. Talabalarning mavzuni to‘la va mukammal anglab olishlari uchun chalg‘ituvchi usullardan foydalanishda samara beradi. Bunda o‘qituvchi yozuv taxtasiga yoki elektron doskaga jadval rasmini qo‘yadi. Jadvalning 1-ustunida o‘zbekcha so‘zlar nomi yoki gaplar beriladi. 2-ustunda esa uning inglizcha tarjimasi o‘rni almashtirilgan holda beriladi. Talabalar 1-ustundagi gap turiga mos misollarni aniqlab belgilaydilar. Belgilangan vaqt ichida adashmay to‘g‘ri topgan talabalar rag‘batlantiriladi.

**“Aqliy hujum” metodi** – biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini ingliz tilida og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda ingliz tilida yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o‘rgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan, ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat ingliz tilida og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalari shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda, yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda, mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi. “Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

- Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
- Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
- Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

**Aralash dars** – o‘quv mashg‘ulotini tashkil etishda bir necha turdag‘i dars (m: yangi bilimlarni berish, bilimlarni nazorat qilish, tekshirish-umumlashtirish kabi darslarning) elementlari birgalikda qo‘llaniladigan dars. Bu turdag‘i dars quyidagi tarkibiy tuzilma asosida tashkil etiladi: tashkiliy masalalarni hal qilish; uy vazifalarini tekshirish, dars maqsadini belgilash; talabalarni yangi o‘quv materialini o‘zlashtirishga tayyorlash; yangi materialning o‘qituvchi tomonidan tushuntirilishi va talabalar tomonidan o‘rganilishi; o‘tilayotgan dars hamda avvalgi darsda o‘zlashtirilgan bilimlarni bir-biriga bog‘lash asosida o‘quv materialini mustahkamlash; avval o‘zlashtirilgan, shakllangan bilim, ko‘nikmalarini yangilari bilan bog‘lash asosida mavjud bilim, ko‘nikmalarini umumlashtirish, tizimlashtirish; darsni natijalarga tayangan holda yakunlash; uyga vazifa berish.

**“Assesment” metodi** – mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Bu texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyat mashqi, qiyosiy tahlil) orqali tashxis qilinadi va baholanadi. Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment”lardan ma’ruza mashgulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda,

seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘sishimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**“Bahs-munozara”** usuli. Ingliz tili darslarining samaradorligi ko‘p jihatdan talabalarning mustaqil ijodiy fikrlashi bilan bog‘liq. Ijodiy fikrlashga o‘rgatishda bahs-munozara muhim ahamiyatga ega. Bu narsalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘rganiladigan material talabalarga oldindan ma’lum qilinadi, muhokamaga tashlanayotgan masala xususida har bir talaba o‘zining shaxsiy fikr-mulohazasini bildiradi. Bahs-munozara uchun tanlanadigan savollar o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan bo‘lishi lozim. Masalan, “Olinma so‘zlar” mavzusi yuzasidan bahs- munozaraga quyidagi muammolar o‘rtaga tashlanishi mumkin:


1. Boshqa tillardan so‘z olish zarurmi?
2. Ayrim hollarda ingliz, rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan so‘zlarni o‘zbekchallashtirish borasida urinishlar bor.
3. Sizningcha, hamma so‘zlarni ham o‘zbekchallashtirib bo‘ladimi? Umuman, inglizcha so‘zlarni sharqonalashtirishga sizning munosabatingiz qanday?
4. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda boshqa tillardan so‘z olmaslikning iloji bormi?

Bu savollarning har biri talabalardan o‘z nuqtayi nazarini bayon qilishni talab etadi. Bahs-munozara talabalarga erkinlik berishni talab qiladi. Chunki o‘z fikr-mulohazalarining haqligini isbotlash ijodiy faoliyat mahsulidir.

**“Blum” taksonomiyasi** – bu o‘qituvchilarga talabalarga yanada aniqliq belgilangan o‘quv maqsadlarini belgilashga yordam beradigan hamda tanqidiy fikrlarni turkumlaydigan jarayon bo‘lib, ancha vaqt dan beri mavjud bo‘lgan bilim doirasi. Amerikalik ta’lim psixolog Benjamin Blum ushbu piramidani vazifa talab qiladigan tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash maqsadida ishlab chiqdi. 1950-yillarda tashkil topgan va 2001-yilda qayta ko‘rib chiqilganidan beri Blum

taksonomiyasi o‘qituvchilarga malaka oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus ko‘nikmalarini nomlash uchun keng tarqalgan so‘z boyligini berdi.

Taksonomiyada oltita sath mavjud bo‘lib, ularning har biri abstraktsianing alohida darajasini ifodalaydi. Pastki darajaga eng asosiy bilim, eng yuqori darajaga esa eng intellektual va murakkab fikrlar kiradi. Ushbu nazariya asosidagi g‘oya shundan iboratki, talabalar birinchi darajali vazifalar zinapoyasini o‘zlashtirmaguncha, yuqori darajadagi fikrlashni miazuga tatbiq etishda muvaffaqiyat qozona olmaydilar. Ta’limning maqsadi – fikrlovchi va ijodkorlarni yaratish. Blum taksonomiyasi mahoratni rivojlantiradi, talabalar mavzu haqida ijodiy fikr yuritadigan va o‘zlari uchun muammolarni hal qiladigan darajaga qadar yo‘lni beradi.



*Eslab qolish.* Ilgari bilim darajasi sifatida tanilgan taksonomiyaning eslash darajasida savollar faqat talaba o‘rgangan narsalarni eslab qolish-qolmasligini baholash uchun ishlatiladi. Bu taksonomiyaning pastki darajasi, chunki talabalar eslash paytida bajaradigan ishlari eng sodda. Odatda, bo‘s sh joyni to‘ldirish, to‘g‘ri noto‘g‘rini aniqlash yoki bir nechta tanlov uslubidagi savollar ko‘rinishida eslash. Bular yordamida talabalar ma’lum bir vaqt uchun muhim sanalarni yodlab olishganmi, darsning asosiy g‘oyalarini eslay oladimi yoki atamalarni aniqlay oladimi yo‘qligini aniqlashda foydalanish mumkin.

*Tushunish.* Blum taksonomiyasining tushunchasi talabalarni haqiqatni eslashdan tashqari, taqdim etilgan ma’lumotlarni tushunishga

undaydi. Ilgari bu tushunish edi. Tushunish doirasida talabalar savollar va vazifalarni oladilar, quruq aytib berish o‘rniga izohlaydilar.

*Qo‘llash.* Amaliy savollar talabalardan olgan bilimlari yoki ko‘nikmalarini qo‘llash yoki ulardan foydalanishni so‘raydi. Ulardan muammoning hayotiy yechimini yaratish uchun berilgan ma’lumotlardan foydalanishni so‘rashlari mumkin.

*Tahlil qilish.* Ushbu taksonomiyaning tahlil darajasida talabalar muammolarni hal qilish uchun o‘qilgan badiiy asarlardagi timsollarning fe’l-atvorlarini bilish-bilmasliklarini namoyish etadilar. Ular o‘zlarining eng yaxshi fikrlaridan foydalanib, tahlil qilish va xulosaga kelish uchun ijobjiy, salbiy, murakkab timsollarni ajratadilar.

Talabalarning tahlil qobiliyatini baholash maqsadidagi o‘qituvchi asarlardagi qahramonlarning harakatlari qanday sabablarga ko‘ra bo‘lganligini so‘rashi mumkin. Bu talabalardan o‘sha xarakterning xususiyatlarini tahlil qilishni, ushu tahlil va o‘zlarining fikrlari kombinatsiyasi asosida xulosa chiqarishni talab qiladi.

*Baholash.* Oldindan sintez deb nomlangan darajani baholashda talabalar yangi nazariyalar yaratish yoki bashorat qilish uchun berilgan dalillardan foydalanadilar. Buning uchun ular bir vaqtning o‘zida bir nechta mavzular bo‘yicha ko‘nikma va tushunchalarni qo‘llashlari va xulosaga kelishdan oldin ma’lumotlarni sintez qilishlari kerak.

*Yaratish.* Blum taksonomiyasining eng yuqori darajasi yaratilish deb nomlanadi. Ijodkorlik qobiliyatini namoyish etayotgan talabalar qanday xulosalar chiqarishni, savollar berishni va yangi narsalarni ixtiro qilishni bilishlari kerak. Ushbu toifadagi savollar va vazifalar talabalardan taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va fikrlarni shakllantirish orqali mualliflik fikrini yoki hatto o‘rganilayotgan asarning hayotiyligini, ta’sirchanligini baholashni talab qilishi mumkin. Ular har doim dalil bilan o‘z fikrlarini asoslashlari kerak. Ko‘pincha, vazifalarni yaratish talabalardan muammolarni aniqlashni va ular uchun yechimlarni (yangi jarayon, buyum va boshqalarni) kashf etishni so‘raydi.

**“Dovon osha”** usuli. Bu usul akademik litseyning 2-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, guruhdagi talabalar 5 ga bo‘linadi. Ma’lum

bir mavzu tanlab olinadi. Shu mavzu asosida guruhlarga oson – o‘rtacha – qiyin shaklida savollar beriladi.

1-dovonda talabalar guruhga ajratiladi, har bir guruh navbat bilan o‘ziga berilgan uslubga oid bo‘lgan bittadan malumot aytadi va aytgan malumoti to‘g‘ri bo‘lsa, 5 ball oladi.

2-dovonda barcha guruhlar uchun biron – bir uslubiy betaraf bo‘lgan leksika beriladi. Guruh talabalari shu leksika asosida o‘zining uslubiga xoslab bitta gap tuzadi. Birinchi bo‘lib gap tuzgan guruhga 5 ball, ikkinchi bo‘lgan guruhga 4 ball, keyingilariga ham 3 ball, 2 ball, 1 ball beriladi.

3-dovonda o‘qituvchi tomondan guruhlarga bittadan savol beriladi. Guruh savolga javob bersa, 5 ball oladi. Agar javob berolmasa, javobsiz qoladi.

4-dovonda o‘qituvchi biron – bir universitetning maketini yasab keladi. Ularni aralashtirgan holatda stol ustiga qo‘yadi. Universitetning har bir qismi orqasida savol bo‘ladi. Bunda universitet tomi, bino, universitet yozuvi, deraza va eshikdan tashkil topadi. Har bir guruh savolga javob berib qo‘lidagi universitet qismini olib borib doskaga joylashtiradi. Hamma guruh javob bergandan so‘ng doskada universitet binosi qad ko‘taradi. So‘ngra 4 shart bo‘yicha to‘plangan ballar hisoblanadi. Eng ko‘p ball to‘plagan guruhga o‘zлари barpo qilgan universitet binosi kaliti topshiriladi. Usuldan ko‘zlangan maqsad – talabalar tezkorligini oshirish, guruhda hamjihatlikni amalga oshirish, talabalarda o‘qishga bo‘lgan intilishni kuchaytirish.

**“Fikrimizni o‘rtoqlashamiz”** ta’limiy usuli. Bu usulini qo‘llash uchun sinf xonasi kompyuter texnologiyalari bilan mukammal jihozlashgan bo‘lishi lozim. Bunda o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo‘yilgan mavzuga doir savollar talabalarga tegishli bo‘lgan kompyuter xotirasiga saqlangan bo‘ladi. Har bir talaba o‘ziga tegishli kompyuter orqali berilgan vaqt ichida savollarning javoblarini o‘qituvchi kompyuteriga yuboradi. O‘qituvchi savollarga berilgan javoblarni tekshirib bo‘lgach, talabalarga bir-birlarining kompyuterlaridan savol va uning javoblarini ko‘rishga ruxsat beradi. Noto‘g‘ri berilgan javoblar bo‘lsa, bu muammo talabalar o‘rtasida

muhokama qilinadi. “Fikrimizni o‘rtoqlashamiz” usulining maqsadi talabalarga yangi ped texnologiyalaridan foydalangan holda dars o‘tish, ona tili fanini chuqur o‘rgatish bilan birga, bugungi kun talabi bo‘lgan kompyuter texnikasini ham o‘rgatish va undan unumli, to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishdir.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodi** – ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtayi nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

**Ko‘rgazmali (yoki ko‘rsatmali) metodlar** – muayyan voqeа, hodisa, jarayonlar mohiyatini tabiiy va sun’iy muhit, ko‘rsatmali qurollar, mulajlar, gerbariylar, stendlar, plakatlar hamda video tasvirlar yordamida yorituvchi metodlar. Bu kabi metodlarning namoyish, tasvirlash, ekskursiya kabi turlari mavjud. Ko‘rgazmali metodlardan foydalanishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim: ko‘rgazmalilikning talabalar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi; namoyish etilayotgan obyektlaming barcha talabalarga yaxshi ko‘rinib turishi; namoyishda boshlang‘ich bosqich va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi; tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko‘rsatish asosida tashkil etilishi; namoyish va illyustratsiya o‘quv materialining mazmuni bilan uyg‘un bo‘la olishi lozim.

**Matnga yaqinlashtirib bayon yozish.** Bunda muallifga xos so‘z va iboralardan foydalanish talab etiladi. Buning uchun badiiy til xususiyati bilan ajralib turadigan asarlar tavsiya etiladi. Bunday matn yuzasidan bayon yozishdan oldin talabalar muallifning har bir fikri,

iborasi va uslubini aniq tushunib olishi va uni o‘z bayonida qo‘llashi zarur. Matnga yaqinlashtirib yozilgan bayonda muallif fikrini talaba o‘z so‘zi bilan bayon etishi mumkin, biroq eng muhimi muallif qo‘llagan so‘z va iboralarning yozma nutqda keng foydalanishi zarur. Bu talaba lug‘at boyligini oshiradi va faollashtiradi, iboralardan ijodiy foydalanishni o‘rgatadi. Buning uchun matn hajmi uncha katta bo‘lmasligi kerak.

**Media-darslar** – kompyuter texnikasi va dastur vositalari yordamida tashkil etilgan darslar. Media darslarni tayyorlashda internet tarmog‘idan keng foydalanish mumkin. Media darslar orqali o`qituvchi bir paytning o‘zida ham nazariy, ham amaliy bilim berish, yangi darsni tushuntirish yoki o`tilgan mavzuni mustahkamlash chog‘ida yuqori darajali ko`rgazmali materiallardan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladi.

**“Men boshlayman, sen davom ettir”** usuli. Ma’lum bir qatordagi talabalar xalq maqolining boshlanish qismini aytadilar, ikkinchi qator esa uni davom ettiradi, masalan,

- 1- qator. Bulbul chamanni sevar,
- 2- qator. Odam Vatanni.
- 1- qator. Ona yurting omon bo‘lsa,
- 2- qator. Rangi-ro‘ying somon bo‘lmas

Xuddi shunday o‘yin – musobaqani o‘z va ko‘chma ma’nodagi so‘zlar, ma’nodosh, shakldosh, uyadosh va qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralar yuzasidan tashkil etish mumkin.

**“Muammoli vaziyat” metodi** – ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. “Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil

fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“**Muqobilini top**” usuli. O‘zbek tilining leksikasi boyish manbalari mavzusi bilan tanishtirib bo‘lgach, mavzuni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Talabalarda o‘zbek tili leksikasining ichki va tashqi manbalar asosida boyib borishi haqida bilim va ko‘nikmalarni hosil qiladi. Talabalarning lug‘at boyligi oshishiga yordam beradi. Bu usulda guruhni 3ga bo‘lib olinadi.

| 1-guruh arxaik so‘zlarga, 2-guruh talabasi 1-guruh talabasi aytgan so‘zning bugungi muqobilini topadi.

Keyingi bosqichda talabalar o‘zbek tilining leksikasi boyish yo‘llariga ta’rif berib, qanday yo‘llar bilan boyishiga misollar keltiradilar. 1-guruh tashqi manba asosida, ya’ni boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ishtirokida gap tuzadilar. M.:

*Hozirgi bank moliya tizimida aholiga imtiyozli kreditlar berilmoqda.*

2-guruh talabasi: *shevalardan so‘z olish hisobiga boyiydi. M.: Uchakka chiquvdim ayni go‘rmakka, ayning bahonasida yorni go‘rmakka.*

3-guruh talabasi: *ichki manba asosida, ya’ni ilgari qo‘lanilib, keyin iste’moldan chiqib ketgan so‘zlardan yangi tushunchalar ifodalash uchun xizmat qiladigan so‘zlardan. M.: Tumanimizda zamonaviy turar joy binolari barpo etilmoqda.*

| Qaysi guruh ishtirokchilari mantiqan mazmunli gap tuza olsa o‘sha guruh rag‘bat kartochkasiga ega bo‘lib g‘olib sanladi.

**Rolli o‘yinlar** – ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan o‘yinlar. “Rolli o‘yin” metodi – ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalaشتirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir. Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagи rollarni ijro etishadi. Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha

ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi. “Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

**Suhbat metodi** – savol va javob shaklidagi dialogik xarakterga ega ta’lim metodi. Mazkur metod pedagogik kuzatish chog‘ida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni boyitish, vaziyatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beradigan pedagogik shart-sharoitlami yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlarining imkoniyatlarini muammo yechimiga jalgan etishga xizmat qiladi. Suhbat individuall, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida talabalarning imkoniyatlari to‘la namoyon bilishga erishish muhim. Talaba shaxsini g‘oyaviy va ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o‘qituvchining jonli nutqi, talaba bilan o‘zaro munosabati ta’sirchan usullardan hisoblanadi. Suhbat jarayonida talaba shaxsini yaqindan anglash mumkin, u haqidagi tasawurlar yanada boyiydi. Ta’lim oluvchi bilan suhbatlashish jarayonida uning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradigan ma’lumotlar beriladi, ijtimoiy va tabiiy borliqqa nisbatan munosabat baholanadi, ijobiy sifatlar rag‘batlantirilib, salbiy holatlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatiladi. Quyidagi shartlarga amal qilish suhbat metodining samaradorligini ta’minlaydi:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollaming mazmuni aniqlash, savollar o‘rtasidagi mantiqiylik, izchillikni ta’minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining sonini aniqlashtirish;

- 4) suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- 5) suhbatdosh bilan munosabatning samimiy bo‘lishiga erishish;
- 6) suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin, batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa, ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish.

Ta’lim oluvchining ijtimoiy ongini shakllantirish uchun tashkil etiladigan suhbatlar uchun quyidagi mavzular yo‘nalish sifatida tanlanadi:

- 1) yetik mavzular (ijtimoiy ma’naviy-axloqiy me’yorlar, jamiyatda ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o‘zini tutish qoidalari va b.);
- 2) estetik mavzular (tabiat go‘zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go‘zalligi);
- 3) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va h.k.);
- 4) ta’lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o‘simgiliklar dunyosi, elektronika va b.).

Suhbatlaming mehnat, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigiuenik mavzularda tashkil etilishi ham ijobiy natijalarini beradi. Suhbat davomida talabalarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari, mustaqil fikrashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish foydali. Bu borada bahs-munoazaralarning ahamiyati katta. Pedagogik jarayonda suhbatning quyidagi turlari qo‘llaniladi:

- 1) kirish suhbati (o‘quv ishlarining boshida tashkil etiladi; uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad hal etilishi zarur bo‘lgan ishlar mohiyatining talabalar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko‘rishdan iborat);
- 2) yakuniy suhbat (talabalar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi);

3) qisqa bayonli suhbat; talabalarning boshlang‘ich bilim darajasi, ularning yangi mavzuni o‘zlashtirishga tayyorgarliklarini aniqlash uchun dars avvalida yoki so‘nggida qo‘llaniladi);

4) evristik suhbat (yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo‘naltiriladi; unga ko‘ra savollar ketma-ketlikda beriladi, buning natijasida talabalarda mustaqil fikrlash, bilish faolligi, tahlil qilish, dalillarni bay on etish laqyoati yuzaga keladi);

5) tushuntirish (o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish bo‘lib, u hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi; tushuntirish chog‘ida o‘quv materialining qiyin o‘rinlariga urg‘u berilib, mazmun ochiladi; tushuntirish samarasi o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan foydalanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq).

**“Talaffuzdan adashmang” usuli.** O‘qituvchi talabalarga talaffuzi qiyin bo‘lgan so‘zlardan aytishni topshiradi. Talabalar 2 guruhga bo‘linib, topshiriqni bajarishlari mumkin. Shunda kim so‘zni noto‘g‘ri aytsa, o‘yindan chiqadi. Mavzu asosida so‘zni aytgan talaba shu so‘zni doskaga yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtda eng ko‘p to‘g‘ri so‘z aytgantalaba o‘yinda g‘olib hisoblanadi.

**Taqdimot darsi.** Bunday darsning asosini yangi materialni sxema, animatsiya, videotasvir asosida so‘zlab berish tashkil etadi. Dars materiallari oldindan tayyorланади. Barcha tanlangan materiallar ko‘pincha Power Point dasturi yordamida yig‘iladi. Dars davomida bunday taqdimot proyektor yordamida yoki har bir kompyuterda namoyish etilishi mumkin.

**“Ta’riflab ber”** didaktik o‘yini. 1-guruhga talaba rasmi, 2-guruhga magistr-tadqiqotchi rasmi beriladi. Guruhlar bularni ta’riflashlari kerak hamda mavzuni boshqa fanlarga ham bog‘lashlari kerak. Ekspert guruhi ularning ishlarini kuzatib boradi va tanqidiy fikrini bildiradi.

**“Taqqoslash”** usuli. Bu usulda o‘qituvchi bir qancha sifatlarni doskaga yozadi va qiyoslash orqali ulardagi ma’no tushunchalarning farqlarini izohlashni topshiradi. Talabalar berilgan sifatlardan qiyosiy va

orttirma darajadagi so‘zlar hosil qiladilar. Topshiriqni o‘z vaqtida to‘g‘ri hal eta olgan talabalar o‘yin g‘olibi bo‘ladilar.

**“Videotopishmoq” metodi.** Video-topishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- talabalar o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriylar yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta video lavha namoyish etiladi;
- talabalar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlari qayd etadilar;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.

**Xayoliy sayohat**” usuli. Xayoliy sayohat darslari muayyan bir mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilingandan keyin o‘tkaziladi. Talabalar xayolan Amerikaga, Angliyaga, Germaniyaga yoki Turkiyaga sayohat qilib, turli holatlarga duch keladilar. Yo‘lda duch kelgan qiyinchiliklarni yenggan, ya’ni o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajargan talabalarga ballar qo‘yib boriladi. Topshiriqlarni tez va to‘g‘ri bajargan talabalar sayohatni davom ettiradilar. Topshiriqlar darsliklardan tanlanishi yoki o‘qituvchi tomonidan tuzilgan bo‘lishi mumkin. Masalan, sifatlarning ma’no guruhlari o‘rganilgach, shunday sayohat darsi rejorashtirilishi mumkin.

**Xotira xaritasi** metodi. Ton Buzan tomonidan XX asr 60-yillar so‘ngiga kelib qo‘llanildi. Ushbu metod talabalarda tasvirlar va kalit so‘zlarni eslab qolishga qaratilgan. Biroq Xotira xaritasi metodidan pedagoglar konseptni innovatsion yo‘l bilan tushuntirishda foydalandilar. Bu talabalarda biror hodisa/narsani tezroq va osonroq ko‘z oldilariga keltirishlariga va boshqa hodisa/narsa bilan bog‘liqligini ongda “tasvirini muhrlashga” yordam beradi. Bu metoddan foydalanish natijasida xotirada bosh-boshqa hodisa/narsa bo‘lib ko‘rinadigan tasvirlar o‘zaro bog‘lanadi va turli xarita elementlari sifatida xotira xaritasida “namoyon bo‘ladi”. Xotira xaritasi qayta ko‘rib chiqish juda tezlikda amalga oshadigan metod bo‘lib, “ongda xaritasida” biror narsa-hodisaga begona tasvir qo‘shilib qolganda, birinchi ko‘rishdayoq chiqarib tashlaydi. Qolaversa, xotira xaritasi metodi fikrlashda juda samarador bo‘lib, shakllarni eslab qolishda hamda tasvirsiz ham u haqida ma’lumot berilganda kerakli narsani eslab qolishda qo‘llaniladi.

Bu metodda odatiy qaydlardan ko‘ra, miyada bir qancha faoliyat assimilatsiyalari kuzatiladi va ma’lumotlar va faktlar o‘zaro bog‘lanadi. Bunda yadro tushuncha xarita markaziga joylashadi va uning ko‘rish va sezish orqali tasavvur qilingan elementlari miyada o‘zaro bog‘langan dastur ko‘rinishiga keladi, yadro tushuncha va uning elementlari miyada qolishi oson va samarasi yuqori bo‘ladi. Rasmlar, musiqa, hidlash va his qilish xotira xaritasidagi ma’lumotlarni qayta to‘plashga va xotirada uzoq muddat saqlashga yordam beradi. Ba’zan pedagoglar tomonidan yadro tushunchaning o‘zigina beriladi va talabalar o‘zlarining ijodkorliklaridan, narsa-hodisalarni bog‘lay olishi va fikrlashlari orqali xaritani o‘zлari hosil qilishlari talab etiladi.

So‘nggi tadqiqotlarda ushbu xaritani grafiklar orqali tushuntirishlar kuzatilmoqda va bu talabalar yodida uzoq muddatga qolishi va ularga ta’siri juda yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi.

**“Xotira mashqlari”** usuli. Dastlab auditoriya bir necha guruhlarga bo‘linishi lozim. Birinchi guruhdagi talabalar orasidan bitta talaba tanlab olinadi va ikkinchi guruh talabalar o‘zlarini turli xatti-harakatlari bilan uni chalg‘itishadi. 4-5 nafar ishtirokchilar turli xatti-harakat qilganlaridan keyin birinchi guruh ishtirokchisi ularni qaytarib berishi lozim. Masalan, ikkinchi guruh ishtirokchilaridan biri qo‘llarini ko‘tarib tushirishi, ikkinchisi boshini qimirlatib, yo‘talib olishi, uchinchi ishtirokchi esa kitoblarini bir-bir varaqlab olishi mumkin, to‘rtinchisi ishtirokchi doskaga chiqib, nimanidir yozib, keyin joyiga borib o‘tirishi lozim. Shundan so‘ng birinchi guruhdan tanlab olingan 1-a’zo ikkinchi guruhdagi yuqorida keltirilgan 4 nafar talabaning xatti-harakatini takrorlab beradi. Agar harakatlar to‘g‘ri topilsa va shu harakat ingliz tilida to‘g‘ri aytilsa, a’lo baho oladi. Bu mashq bilan talabalarning qiziqishlarini oshirish bilan bирgalikda ularning qon aylanishi yaxshilanadi, xotirasini ham mustahkamlaydi. Bu o‘yinni talabalar zerikib qolishganida darsga jalb qilish maqsadida o‘tkazish o‘rnlidir.

Oliy o‘quv yurtlari talabalariga ingliz tilini o‘qitishda ularning og‘zaki nutq malakalarining shakllanganlik darajasi o‘qituvchining bu yo‘nalishdagi faoliyatni tashkil etishi bilan bog‘liq. Yuqorida ta’kidlanganidek, tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun tadqiqotning

ob'ekti sifatida talabalarga ingliz tilini o'qitishda og'zaki nutq va fikrlash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Namangan davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Farg'ona davlat universiteti talabalaridan jami 462 nafari (respondentlar sifatida) jalg qilindi. Talabalarning og'zaki nutq malakalarini shakllantirish uchun ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quv rejaga asoslangan holda so'rovnomalar o'tkazildi va matematik statistika usullari yordamida tahlil qilindi. Ingliz tilini o'qitishda talabalarning og'zaki nutq malakalari rivojlanganligi quyidagi mezonlar asosida baholanishi samarador hisoblandi:

1.	Hozirgi kunda chet tillarini o'rganishni muhim deb bilasizmi?
2.	Ta'limdi og'zaki nutq – bu bizga kelayotgan ma'lumotni tahlil qilish, mustaqil baholab, mantiqiy xulosa va qaror chiqarishdir.
3.	Hozirgi amaldagi darslik va o'quv qo'llanmalar og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan.
4.	Siz og'zaki nutqni shakllantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj sezasizmi?
5.	Siz og'zaki nutqingizning rivojlanganlik darajasini qoniqarli baholaysizmi?
6.	Mashg'ulotlarda o'tilgan material yoki faoliyat yuzasidan shaxsiy bilim va tajribangizga asoslanib, o'z fikringizni ingliz tilida erkin bildira olasizmi?
7.	Ingliz tili darslarida o'qituvchi yordamida og'zaki nutqni rivojlantiruvchi Insert, Sluster, Sinkvain, Case study, Fishbone yoki aqliy hujum, aql xaritasi, esse yozish metodi, muammoli matnlar ustida ishlash kabi metod va texnologiyalardan foydalanasizmi?
8.	Siz o'z fikrlaringizni atrofdagilarga nisbatan yetarlicha ishonch bilan hamda to'g'ri (tanqidiy) ifoda etib bera olasizmi?
9.	Sizningcha, muvaffaqiyatingiz kaliti og'zaki nutqni shakllan- ganlik darajasiga bog'liqmi?
10.	Siz og'zaki nutqni rivojlantirishga oid ingliz tilidagi kitoblarni mutolaa qilish uchun sotib olasizmi?
11.	Chet tilini o'rganish uchun til o'rgatuvchi mobil ilovalardan (Quizlet, Kahoot, Wordwall, Canva, Padlet kabilar) foydalanasizmi?
12.	Til o'rgatuvchi mobil ilovalar sizda yozish, o'qish, tinglash va gapirish ko'nikmalari orqali og'zaki nutqingizni rivojlantirishga yordam bera oladimi?

## **MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

### **Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqili shi O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining "Talabalar mustaqil ishlarni tashkil etish to'g'risida"gi 2009 yil 14 avgustdagи 286-sonlibuyrug'i va "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnomा" asosida tashkil etiladi.

Talaba mustaqil ishi (tmi) – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- mavzuga oid karta-sxemalar va turli chizmalar tayyorlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari

Chet tilidagi kitob va lug'at bilan mustaqil ishslash, chet tilidagi so'zlashishni eshitish va grammatik shakllarni to'g'ri ishlatish, matnni tushunish va gapirishni o'z ichiga oladi. Talaba ko'proq mustaqil ishlashi kerak. Mamlakatimizning oliy o'quv yurtlari oldida talabaning nafaqat bilim doirasini kengaytirish, balki shu o'rganilayotgan tilda

fikrlash va barcha vazifalarni ham yechish rejalashtirilgan. Talabaning mustaqil ishi ikki ko‘rinishga ega.

1. Dars jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalar yordamida:

tekstlarni eshitish va ularni to‘g‘ri talaffuz qilish; tekstlarni pauza va pauzasiz eshitish va gapirib berish;

fonetik, leksik grammatik materialar asosida kartochkalar ishlatish.

2. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalar yordamisiz: tekstlarni mustaqil tarjima qilish;

o‘tilgan leksik va grammatik materiallar asosida o‘rganish

Talabaning mustaqil ishi ko‘rinishi esa darsdan tashqari talabalarning ilmiy konferensiyalari, olimpiada, eng yaxshi tarjimon va eng yaxshi talaba ko‘rigini o‘tkazish, turli mavzularda mikrodialoglar tuzish. CHet tilida sahnalar ko‘rsatish tadbirlari va boshqalar kiradi.

Bu tadbirlar dars jadvaliga kiritilmaydi va o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va kuzatiladi.

Chet tilidagi kitob va lug‘at bilan mustaqil ishlash, chet tilidagi so‘zlashishni eshitish va grammatik shakllarni to‘g‘ri ishlatish, matnni tushunish va gapirishni o‘z ichiga oladi.

Talaba chet tilini puxta o‘rganishi uchun ko‘proq mustaqil ishlashi kerak. Mamlakatimizning oily o‘quv yurtlari oldida talabaning nafaqat bilim doirasini oshirish, shu bilan birga shu o‘rganilayotgan tilida fikrlash va barcha masalalarni yechish vazifasi ham rejalashtirilgan.

Talabalarning ingliz tili fani bo‘yicha mustaqil ishi bu til o‘rganish jarayoniga bog‘liq bo‘lgan barcha faoliyat turlarini qamrab oladi, ya’ni bu:

- tinglab tushunish,
- o‘qib tushunish,
- og‘zaki nutq,
- yozma nutq,
- uy vazifasini yozma va og‘zaki bajarish,
- lug‘at yodlash,

- mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot topib kelish,
  - o‘z fikrini aytga olishi,
  - mavzu bo‘yicha ko‘rgazmali qurol tayyorlash,
  - mavzu bo‘yicha ko‘rgazmali referatlar tayyorlash
- kabi mustaqil ishlarni o‘z ichiga oladi. Bu vazifalar auditoriyada va auditoriyadan tashqari vaqtida o‘qituvchi tomonidan tekshirib boriladi. Talaba har bir dars davomida mustaqil ishlashi mumkin.

### **Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo‘yicha topshiriqlarni qabul qilish shakllari**

Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo‘yicha topshiriqlarni quyidagi shakllarda qabul qilish tavsiya etiladi:

- ◆ referat
- ◆ kartalar bilan ishslash
- ◆ plakat va chizmalar
- ◆ slaydlar
- ◆ tarqatma materiallar
- ◆ test savollari
- ◆ mavzuni tahlil qilish
- ◆ taqdimot-slaydlar

Talabalarni mustaqil ishlarini baholash har bir mustaqil ish mavzusini yakunlab topshirilgandan keyin amalga oshiriladi. Mustaqil ta’lim jarayonida ajratilgan topshiriqlarni talaba universitet, fakultet kutubxonalari yoki internet tarmog‘laridan topib tayyorlaydi va qisqacha mazmunini qayd etib boradi hamda ko‘rsatilgan shakllarda topshiradi. Bunda talaba har bir mavzu bo‘yicha ishni bajarib, o‘qituvchiga ko‘rsatgan mustaqil ishi uchun ball oladi. To‘planadigan ballar reyting nazorati turlariga (oraliq va joriy nazorat) qo‘siladi.

### **Talabaning har bir mustaqil ishini baholashda quyidagi mezonlarga amal qilish mumkin:**

- ◆ mavzuning yoritilishi
- ◆ kutubxona va internet ma’lumotlaridan foydalanganligi
- ◆ ishni tushuntirishda talabaning nutqi

- ◆ ishga ilmiy jihatdan yondashganligi
- ◆ imloviy va uslubiy xatolar
- ◆ savollarga og‘zaki javob
- ◆ berilgan barcha savollarga javob berish
- ◆ qisman xatoga yo‘l qo‘yish
- ◆ qisman to‘g‘ri javob berish

## **TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING SHAKLI VA HAJMINI BELGILASHDA QUYIDAGI JIHATLAR E`TIBORGA OLINISHI LOZIM:**

- o‘qish bosqichi;
- muayyan fanning o‘ziga xos xususiyati va o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta`minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

## **TALABA MUSTAQIL ISHINING VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:**

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- kerakli ma`lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an`anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me`yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o‘quv adabiyotlari va ma`lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog`idan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- ma`lumotlar bazasini belgilash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan loyiha yoki g`oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;

- darslik va o‘quv qo‘llanmalarining (ularning to‘la ta`minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma`ruza qismlarini o‘zlashtirish;
- o‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizmlari bilan ishslash;
- fanning boblari va mavzulari ustida ishslash;
- fandan nazariy va amaliy mashg`ulotlarini o‘tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo‘naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishslashga o‘rgatish, mashqlar bajarish;
- fanga oid masalalarni, materiallarni tahlil qilish, mantiqiy mulohazalar ustida ishslash;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o‘rganish.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr dan-semestr ga ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga muvofiq ravishda o‘zgarib, oshib boradi.

### **MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARINI MUVAFFAQIYATLI YAKUNLASHLARI UCHUN QO‘YILADIGAN TALABLAR:**

- maqsadning (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish) aniq asoslanishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo‘lishi;
- maslahat va boshqa yordam turlarining to‘g`ri belgilanishi;
- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqtin, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

Talabalar bilimini baholashda reyting tizimini qo‘llash maqsadlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ish soatlari, ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar bo‘yicha taqsimlanadi va mos ravishda baholanadi. Talabalar mustaqil ishlarini baholashga ajratilgan soatlarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Ma`ruza soatlari uchun ajratilgan mustaqil ta`lim soatlarida ma`ruzada berilgan o`quv materiallarini chuqurlashtirilgan tarzda mustaqil o`rganish va konspekt yozish nazarda tutiladi.

Laboratoriya mashg`ulot soatlari uchun ajratilgan mustaqil ta`lim soatlarida uy vazifasi sifatida berilgan masala va savollarning bajarilishi hamda chizmalar tayyorlash, tayanch iboralariga javoblar tayyorlanishi nazarda tutiladi.

### **Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>
1	My university
2	Students' life in the countries whose language is being learned
3	Inventions in my profession
4	Famous universities
5	Education in Britain
6	Education in the USA
7	Political System in Uzbekistan
8	Tourism
9	Leisure activities
10	Hobby
11	Global problems
12	Independence Day of Uzbekistan
13	Internet and IT
14	Sport in my life
15	Uzbek celebrities
16	Uzbek writers
17	Uzbek poets
18	History of literature

19	English writers
20	English poets
21	American writers
22	American poets
23	XXI century literature
24	Famous libraries
25	Rubbish recycling
26	Critical thinking skill
27	Best-seller books
28	Harry Potters
29	Setting goals
30	Child upbringing in the world
31	Achievements in my profession
32	Education in Uzbekistan
33	International organizations
34	Culture
35	Famous people in my profession
36	Nobel Laureate
37	English traditions
38	American holidays
39	International food
40	Hotels
41	Film Awards
42	Famous entrepreneurs
43	Fast food

44	The life in 2050
45	Planets
46	My future plans
47	Uzbek national dishes
48	My ideal person
49	Nobel Prize
50	Nanotechnology
51	New professions in the future
52	Endangered species
53	Famous companies
54	Advertising
55	Healthy life styles
56	NASA
57	Approaches in language learning
58	Libraries
59	Traditions in Uzbekistan
60	Environmental problems

## GLOSSARIY

**Amaliy ishlar metodi** – ta’lim metodlaridan biri. U o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalarni yechish jarayonida qo‘llashni taqozo etadi, bunda o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi, malakasini samarali o‘zlashtiradi.

**Amaliy mashg‘ulotlar** – maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, o‘quvchilarda mavjud nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikma-malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim shakli.

**Aralash dars** – o‘quv mashg‘ulotini tashkil etishda bir necha turdag‘i dars (m: yangi bilimlarni berish, bilimlarni nazorat qilish, tekshirish-umumlashtirish kabi darslarning) elementlari bиргаликда qo‘llaniladigan dars.

**Axborot** – **kommunikatsion texnologiyalar (AKT)** ma’lumotlarni o‘zida to‘plash, saqlash, qayta ishlash, ulardan foydalanish vositalari orqali barcha sohalarda keskin rivojlanishga imkon yaratib beruvchi texnologiyalardir.

**Axborot** – obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, o‘zini saqlash, qayta ishlash va ta’sir natijalari (izlari)dan foydalanish uchun mo‘ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo‘ladi.

**Axborotli loyihalar** – o‘quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta’limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig‘ishga yo‘naltirilgan loyihalar.

**Axborot savodxonligi** – mavjud axborotlardan xabardor bo‘lish, ulardan foydalanish, muhim va zarur axborotlarni ajrata olish, ulardan foydalanish borasidagi dastlabki ko‘nikmalariga egalik.

**Axborot tarmog‘i** – ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun mo‘ljallangan tarmoq. U abonent va ma’muriy tizim; ularni kommunikatsion tarmoqlar bilan bog‘lovchi tarmoqlardan tarkib topadi. Abonent tizimlari o‘rtasidagi masofaga ko‘ra axborot tarmoqlari global, mintaqaviy va mahalliy kabi guruhlarga ajratiladi. Shuningdek, universal hamda maxsus axborot tarmoqlari farqlanadi.

**Axborot texnologiyalari** (fan sifatida) – axborot resurslari, amaliy dasturlar, axborot texnologiyalari (kompyuter va telekommunikatsiya), aloqa vositalari (telefon, faks, modem, onlayn tizimi) yordamida axborotni izlash, yig‘ish, saqlash, uni qayta ishlash hamda tarqatishni ta’minlovchi tizim, uning tarkibiy qismlari, ishlash tamoyillari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni beruvchi o‘quv fani. Fanning maqsadi: talabalarni axborot resurslari, amaliy dasturlar, axborot texnologiyalari (kompyuter va telekommunikatsiya), aloqa vositalari (telefon, faks, modem, onlayn tizimi) yordamida axborotni izlash, yig‘ish, saqlash, uni qayta ishlash hamda tarqatishni ta’minlovchi tizim, uning tarkibiy

qismlari, ishslash tamoyillari to‘g‘risidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish va ularda axborot texnologiyalari bilan ishlay olish ko‘nikma, malakalarini shakllantirishdn iborat.

**Axborot tizimi** – tashkiliy jihatdan tartibga solinib, axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarining axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan majmua.

**Axborot xavfi (axborotning shaxsga nisbatan salbiy ta’siri)** – axborot tomonidan shaxs ongi, jamiyat hayoti, ijtimoiy munosabatlар, voqeа-hodisalar yoki jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatish orqali ularning dialektik, dinamik rivojlanishiga to‘siq qo‘yilishi, mavjud maromning buzilishi, berqarorlikning keltirilib chiqarilishi.

**Axborot xavfsizligi** ma’lumotlarni yo‘qotish va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan tabiiy yoki sun’iy xossalni tasodifiy va qasddan ta’sirlardan har qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligidir. Axborot xavfsizligining dolzarblashib borishi, axborotning strategik resursga aylanib borishi bilan izohlash mumkin.

**Axborot-kommunikatsion texnologiyalar** – ijtimoiy subyektlarning qiziqishlari asosida axborotlarni to‘plash, qayta ishslash, saqlash, tarqatish, aks ettirish va foydalanishni yaxlit holga keltiruvchi metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari, dasturiy-texnik va lingvistik vositalar majmui. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda: ta’lim oluvchilar tafakkurini boyitish va rivojlantirish; bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikma-malakalarni rivojlantirish, mustahkamlashda bilish faoliyatining barcha turlarini takomillashtirish; yaxlitligini saqlab qolgan holda o‘quv jarayonini individuallashtirish tamoyilini amaliyotga tatbiq etish vazifalari hal qilinadi.

**Axborotning shaxsga ta’siri** – axborot vositasida shaxs ongi, ijtimoiy voqeа- hodisalar, turli jarayonlar va ijtimoiy munosabatlarga ijobiy yoki salbiy ta’sir etish orqali ularni kuchaytirish, mavjud holatni o‘zgartirish.

**Baholash** – pedagogikada nazorat ishlarini tashkil etish, o‘quvchilar faoliyatini bevosita yoki bilvosita (m: kompyuter

texnologiyasi yordamida) tekshirish orqali ularning xulq-atvori, axloqi, bilim, ko‘nikma, malakalari, shuningdek, muayyan sohalarda erishgan yutuqlari darajasiga qo‘yiladigan ball.

**BKM** – bilim, ko‘nikma, malaka.

**Bo‘lim** – Idora va turli ishxonalarning ma’lum ish bilan shug‘ullanadigan bir qismi, muayyan idoraga qarashli quyi idora. Bo‘lim mudiri.

**Dars loyihasi** – o‘qituvchi tomonidan yaratilgan dars o‘tish rejasi bo‘lib, ma’lum darsning aniq rejasi ishlanmasi, didaktik materiallarini qamrab oladi.

**Darsning texnologik xaritasi** – bir soatlik dars ishlanmasining o‘qituvchi foydalanishi uchun qulay sxemasi bulib, darsni tashkil etishda tushuncha va bilimlarning muayyan izchilligi va axborotli modellarni o‘rganish usullari yo‘llari, ko‘rsatmalari hamda ko‘rgazmali- texnologik topshiriqlar yig‘indisidan iborat.

**Davlat ta’lim standarti** – ta’lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi.

**Davlat ta’lim standartlari (DTS** ingl. “standart” – me’yor, namuna) – uzlusiz ta’lim bosqichlarining asosiy ta’lim dasturlari mazmunining zaruriy minimumini, o‘quvchilarga yuklanadigan o‘quv yuklanmalarning maksimal hajmini, ta’lim muassasasi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini, ta’lim jarayonini ta’minlash (uning moddiy- texnik, o‘quv-laboratoriya, axborot-metodik, kadrlar ta’minoti)ning asosiy talablarini aniqlab beradigan me’yor va talablar.

**Didaktik o‘yinlar** – o‘rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish assosida talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi

**Elektron o‘quv adabiyotlar** (Elektron darslik, Pover Point taqdimoti, Internet tarmog‘i) – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interfaol usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan manba hisoblanadi. Elektron o‘quv adabiyotlar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirish, dastlabki bilimlarini

rivojlantirish va chuqurlashtirish, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan.

**Fan to'garaklari** – o'quvchi (talaba)larning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladigan to'garaklar.

**Forum** – internet imkoniyatlaridan biri bo'lib, saytda muloqot yuritish shakli.

**Hamkorlik ta'limi** - o'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birlgilikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, "pedagog-talaba(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim

**Ijodiy loyihalar** – Indivial yoki hamkorlik asosidaijodiy xarakterga ega yangi ta'lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko'rgazma, dizayn, videofil'm, nashr ishlari – kitob, al'manax, buklet, al'bom, bosma va elektron jurnal, komp'yuter dasturlari kabilalar)ni yaratishga yo'naltirilgan loyihalar

**Ijodiy qobiliyat** – insonlarga kerakli bo'lgan qandaydir yangilikni ochish yoki yaratish.

**Ijodiy topshiriqlar** – o'quvchilarning fanga qiziqishlarini, mavzu doirasida chuqurroq fikr yuritish, mantiqiy mushohada yetish kabilarni ta'min yetadi.

**Ijodiy yozma ish** – matn tushunchasi: rasm asosida, hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa-buyum, voqeа-hodisa tasviri.

**Imitatsion o'yinlar** – ishlab chiqarish korxonalari, ish o'rirlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko'chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan o'yinlar

**Individual o'quv dasturi** – muayyan o'quv fani yoki bilim sohasi bo'yicha ta'lim oluvchilarning qobiliyati, iqtidorini inobatga olgan holda uni yakka tartibda yanada rivojlantirish maqsadida ishlab chiqiladigan o'quv dasturi. U ta'lim muassasasining Pedagogik kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

**Individual ta’lim** – shaxs tomonidan uning uchun qulay bo‘lgan vaqt, makon va muddatda muayyan dastur asosida bilim olinishini ta’minlaydigan ta’lim; pedagogik texnologiyalardan biri. Ta’lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta’lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’lim

**Innovatsiya** – ingliz tilidan kelib chiqqan, yangilanish, o‘zgartirish, yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi. Jamiyat tomonidan muayyan darajada tan olingan har qanday kashfiyotdir.

**Interaktiv elektron doska** – bu kompyuter va proyektorning birgalikda harakati orqali ishlaydigan sensorli panel. Interaktiv doskada turli ranglar bilan yozish, turli chizmalarni, rasmlarni, jadvallarni o‘quvchilar bilan birga yaratish, uni to‘ldirish, xatolarini birgalikda to‘g‘rilash mumkin.

**Interfaol metodlar** – ta’lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o‘zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar.

**Interfaol ta’lim** – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.

**Interfaol yozuv taxtasi** – vizual va ovozli o‘quv materialini ko‘pchilikka namoyish qiluvchi zamonaviy texnik vosita.

**Interfaollik** (g. “interaktiv”, ing. “interact”; “inter” – o‘zaro, ikki taraflama, “act” – harakat qilmoq, ish ko‘rmoq) – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaligi.

**Internet tarmog‘ida o‘qitish** – hozirgi kunda axborot texnologiyalari tizimining ajralmas qismi bo‘lib, undagi asosiy bo‘g‘in bu o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan komp’yuterlardir. Foydalanuvchiga ma’lumotni ko‘rish, o‘qish va eshitish asosida ma’lumotdan unumli

foydalishiga imkon yaratadi. Unda ma'lumotni uzatish, qabul qilish tezligi o'ta yuqori bo'ladi.

**Keys metodi** – ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq yechim izlashga yo'naltiruvchi, bir guruh insonlar yoki alohida shaxslarni hayotiy tashkillashishidan olingan ma'lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishidan iborat.

**Keys-stadi texnologiyasi** – muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya

**Keys-texnologiya** – masofaviy ta'limda matnli, audiovizual va multimediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishga asoslanadi.

**Ko'nikma** – batafsil ongli muvofiqlashtirish va nazorat qilishning yo'qligi bilan tavsiflanuvchi, ko'plab qaytarish orqali shakllangan xattiharakat.

**Ko'rgazmali (yoki ko'rsatmali) metodlar** – muayyan voqeа, hodisa, jarayonlar mohiyatini tabiiy va sun'iy muhit, ko'rsatmali qurollar, mulajlar, gerbariyalar, stendlar, plakatlar hamda video tasvirlar yordamida yorituvchi metodlar.

**Kompyuterli o'qitish texnologiyalari** – o'qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga unga o'quvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birgalikda tadqiqot qilish, o'qitishning yangi shakllariga, bir so'z bilan aytganda ko'proq ijodiy ishga o'tishga imkon beradi.

**Kompyuter ta'limi** – talabalarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni toplash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'lim.

**Kompyuter ta'limi texnologiyalari** – talabalarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni toplash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi,

telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'limning shakl, metod va vositalari majmui.

**Kreativ ta'lim** – (lotincha so‘z – yaratuvchanlik, ijodkorlik) o‘quvchi ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim.

**Kreativ** – tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib, o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

**Loyihalar** – bu o‘quvchilar tomonidan uzoq vaqt davomida turli mavzularni mustaqil ravishda o‘rganish.

**Loyihaviy o‘qitish texnologiyalari.** Zamonaviy ta’limdagi innovatsion jarayonlar an’anaviy o‘qitishni produktiv o‘qitishga aylantirish yo‘llarini izlashdan iborat. U ishlab chiqarish va insonlarning hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan natija, mahsulot olish uchun o‘quvchilarning faol ijodiy, tadqiqiy faoliyatini tashkil qilishga asoslangan.

**Mahorat darslari** – ochiq tashkil etilib, ilg‘or pedagogik tajribalarni targ‘ib etishga yo‘naltirilan samarali o‘qitish shakli

**Masofaviy o‘qitish** – o‘zaro ma’lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o‘quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o‘qitish usullariga asoslangan talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat.

**Masofaviy o‘qitish tizimi** – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

**Masofaviy o‘qitishning pedagogik texnologiyalari** – tanlangan o‘qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta’limning o‘quvtarbiyaviy jarayonini ta’minlovchi o‘qitish metodi va uslublar majmuasi.

**Masofaviy ta’lim** (lot. “distantia” – masofadan foydalanish) – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shaxsiy aloqasiz “masofadan o‘qitish” imkonini yaratib beruvchi zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga asoslangan o‘qitish jarayonining o‘ziga xos yangi shakli. Unga ko‘ra ta’lim jarayoni yangi axborot texnologiyalar, multimedya tizimi yordamida tashkil etiladi.

**Masofaviy ta’lim texnologiyalari** – ta’limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan shakl, metod va vositalar majmuasidir

**Master classes** – ochiq tashkil etilib, ilg‘or pedagogik tajribalarni targ‘ib etishga yo‘naltirilan samarali o‘qitish shakli

**Media-darslar** – kompyuter texnikasi va dastur vositalari yordamida tashkil etilgan darslar. Media darslarni tayyorlashda internet tarmog‘idan keng foydalanish mumkin. Media darslar orqali o‘qituvchi bir paytning o‘zida ham nazariy, ham amaliy bilim berish, yangi darsni tushuntirish yoki o‘tilgan mavzuni mustahkamlash chog‘ida yuqori darajali ko‘rgazmali materiallardan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Metod (yunon. metods – usul)** – keng ma’noda yo‘l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma’nolarni anglatadi. Metod u yoki bu shaklda ma’lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig‘indisi hamdir. Yunoncha “Yo‘l, usul” ma`nolarini bildiradi.

**Metodika** – biror ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi.

**Model** – real, haqiqatda mavjud bo‘lgan ob’ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o‘xshagan nusxasi.

**Modellashtirish** – hodisa, jarayon yoki tizimning umumiyligi mohiyatini to‘la yorituvchi modelni yaratish.

**Moderator** – masofaviy ta’lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbatи va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog.

**Muammoli ta’lim texnologiyalari** – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarini asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta’lim texnologiyalari

**Multimedia darslik** – o‘zida ko‘pgina ma’lumotlarni mujassamlashtirishi bilan birga, bu ma’lumotlarni ekran da namoyish etadi va ovoz yordamida izohlaydi. Voqeа va ma’lumotlarni hayotiylashtiradi. Matn, videotasvir, multiplikatsiya, ovoz va musiqa yordamida amalga oshiradi.

**Mustaqil ta’lim** – OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o‘quv hamda mutaxassislik fanlari bo‘yicha ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘u- lotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o‘zlashtirilishini ta’minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim

**Nazorat ishlari** (pedagogik jarayonda) – o‘quvchi (talaba)lar tomonidan bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilganligi, ma’naviy-axloqiy sifatlar, dunyoqarashning shakllanganlik darajasini aniqlash, tahlil qilish imkonini beruvchi didaktik va ijtimoiy topshiriqlar.

**Noan’anaviy dars** – an’anaviy sanalgan sinf-dars tizimidan farqli ravishda o‘qituvchining ijodiy yondashuvi asosida, nostandard shaklda tashkil etilib, o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faol ishtiroki ta’minlanadigan, turli ko‘rinishdagi o‘yin holatlariga asoslanuvchi dars.

**Noan’anaviy usullar** – odatdagi dars usullaridan o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi ta’lim turi.

**O‘qitishning deduktiv metodi** – xulosalarni umumlashtirishga qaratilgan ta’lim metodi

**O‘qitishning induktiv metodi** – o‘quv jarayonida xulosa qilish, yagona fikrga kelish, yakunlovchi xulosa chiqarishga asoslangan o‘qitish metodi

**O‘qituvchining innovatsion faoliyati.** O‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish.

**O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi)** – Ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri

**Pedagogik innovatsiya** (lotincha – innovates) – yangilanishni, o‘zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati ( isloh modernizatsiyasi, takomillashtirish, zamonaviylashtirish).

**Pedagogik jarayon** – ajdodlarning jamiyatda hayot kechirish va mehnat qilishi uchun zarur bo‘ladigan ijtimoiy tajribalarini avlodlarga

yetkazib berish maqsadida o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi (talaba) o‘rtasida tashkil etiladigan o‘zaro harakat.

**Pedagogik kreativlik** – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, mavjud pedagogik muammolami ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

**Pedagogik mahorat** – 1) o‘qituvchining pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o‘ta mohirlik, ustalik bilan tashkil eta olish, boshqarish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashishi, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati, amaliy pedagogik faoliyat ko‘nikma, malakalariga egaligi; 2) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmui; yuksak pedagogik tafakkur.

**Pedagogik novatorlik** – pedagogik faoliyatda ilg‘or tamoyil yoki g‘oyani asoslash, yangi yo‘l, usul yoki vositalami tavsiya qilish, ularning amaliyotga tatbiqini ta’minlashga qaratilgan ijodiy yondashuv.

**Pedagogik qobiliyat** – pedagogik faoliyatning oqilona tashkil etilishi, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlashda ahamiyatlbo‘lgan xususiyatlar; pedagogga xos kasbiy sifat.

**Pedagogik tahlil** – tanlangan muammoning falsafiy, psixologik, pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlash usuli. Utadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi. Pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud: kundalik tahlil; tizimli tahlil; yakuniy tahlil.

**Pedagogik tajriba** – kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalar majmui.

**Pedagogik texnologiya** – o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat natijasida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni.

**Pedagogik texnologiya** (fan sifatida) – ta’lim, tarbiya jarayonlarini texnologik yondashuv asosida takomillashtirish, ilg‘or pedagogik

texnologiyalarni yaratish va ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish yo'llarini tadtiq qiladigan fan.

**Rejalashtirish** – o'qituvchilar va o'quvchilar loyiha ustidagi ishlar qachon boshlanishi, qancha vaqt yegallashi, qanday resurslar qo'llanilishi, ular qayerdan olinishi.

**Rivojlantiruvchi ta'lim** – talabalarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim.

**Rolli o'yinlar** – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini olib berishga yo'naltirilgan o'yinlar.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim

**Shaxsni rivojlantirish** – Individda vaqt nuqtayi nazaridan jismoniy va ruhiy o'zgarishlarning sodir bo'lish jarayoni.

**Shaxsning rivojlanganlik darjasи** – shaxsning fiziologik, ruhiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi faoliyati, xatti-harakatlarining miqdor va sifat jihatdan o'zgarishlar bilan belgilanadigan holat.

**Shaxsning rivojlanishi** – individning fiziologik, ruhiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi faoliyat, xatti-harakatlarning miqdor va sifat jihatdan o'zgarishini ifodalovchi jarayon.

**Shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar** – shaxsning kamol topishi, ruhiy, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi ta'sir (omil)lar.

**Standart** – sifat, kvalifikatsiya, namuna.

**Ta'lim jarayoni** – aniq maqsad asosida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etilib, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiriladigan pedagogik jarayon.

**Ta'lim jarayonidagi nazorat** – o'quvchining bilim, ko'nikma, malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat turi. Ko'p holatlarda aniqlash va o'lchash tekshirish ham deb ataladi.

**Ta'lim jarayonidagi tekshirish** – didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida teskari aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan

o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishlari haqidagi obyektiv axborotni olish, bilimlarni samarali o‘zlashtirishdagi kamchilik, nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashdan iborat bo‘lgan nazorat turi.

**Ta’lim jarayonini loyihalashtirish** – alohida olingan ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillami inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish. Ta’lim jarayonini loyihalash muayyan tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ular: 1. Markazlashtirish tamoyili. 2. Refleksivlik tamoyili. 3. Natijaviylik tamoyili. 4. Ko‘p omillilik tamoyili. 5. O‘quvchi shaxsini ta’lim jarayoniga moslashtirish tamoyili. 6. Ta’limda tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili.

**Ta’lim konsepsiyalari** (lot. “conception” – to‘plash, birlashtirish, tizim, ibora) – uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim muassasalari faoliyatining yo‘nalishi, maqsadi, vazifalari, mazmuni va istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi.

**Ta’lim maqsadi** – muayyan o‘quv materiali bo‘yicha o‘qituvchi (pedagog) tomonidan o‘quvchi (talaba)ga bilimlarni berish, ta’limning aniq yo‘nalishini belgilab beruvchi yetakchi g‘oya, muddao.

**Ta’lim metodi** – o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyat usuli.

**Ta’lim metodikasi** – ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan ta’limiy harakatlarni amalga oshirish chora-tadbiri; ta’lim jarayonida real qo‘llaniladigan usul va vositalar mohiyati, ahamiyati, amaliy qiymati, texnik jihatlarini ochib berish algoritmi.

**Ta’lim sifati** – ta’lim xizmatlarining yaroqlilik darajasi, DTSga to‘la javob berishi.

**Ta’lim texnologiyasi** – ta’lim modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir.

**Ta’lim tizimi** – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo‘lida davlat boshqaruvi tamoyili asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdag'i o‘quv-tarbiya muassasalari majmui.

**Ta’lim turlari** (yun. – alohida, o‘ziga xos xususiyatga ega) – ta’lim mazmuni, ta’limni tashkil etish o‘rni, bosqichi, qo‘llaniladigan vositalari va ta’lim oluvchilarning yoshiga ko‘ra farqlanuvchi ta’lim ko‘rinishlari; o‘quv jarayonini tashkil etish, amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuv. Qadimda ta’limning suqrotcha suhbat (ta’lim oluvchini muammoli savollarga javob topishga undash asosida tashkil etilgan ta’lim) va dogmatik o‘qitish (bilimlarni yodlash va takrorlash) kabi turlaridan foydalanilgan. Dogmatik o‘qitishga ko‘ra ta’lim oluvchilarning faoliyatları tinglash, o‘qish, yod olish, eslab qolish, matnni so‘zma-so‘z takrorlashdan iborat bo‘lgan.

**Ta’lim vositalari** – o‘qitish samaradorligini ta’minlovchi obektiv (garslik, o‘quv qo‘llanmalari va qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, diaproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va b.) va subektiv (o‘qituvchi nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti, faoliyatiga oid misollar va sh.k.) omillar.

**Ta’limning individual-guruqli shakli** – ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan bir vaqtning o‘zida ham o‘quvchi bilan individual ishlash, ham o‘quvchilar guruhi yoki guruhlarini boshqarishni tashkiliy jihatdan uyshtirilishi.

**Ta’limning loyihali shakli** – o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda loyiha ishlari mavzusining tanlab olinishi. U XX asr 20-yillarda paydo bo‘lgan.

**Ta’limning tabaqalashtirilgan guruqli shakli** – ta’lim jarayonining o‘quv ko‘nikma, malakalari bir xil darajada shakllangan o‘quvchilar bilan ishslashni ifodalaydi. Bunda o‘quvchilar juft bo‘lib ishslashlari ham mumkin.

**Taqdimot darsi** – bunday darsning asosini yangi materialni sxema, animatsiya, videotasvir asosida so‘zlab berish tashkil etadi. Dars materiallari oldindan tayyorlanadi. Barcha tanlangan materiallar ko‘pincha Pover Point dasturi yordamida yig‘iladi. Dars davomida bunday taqdimot proektor yordamida yoki har bir kompyuterda namoyish etilishi mumkin.

**Texnologik xarita** – bu qaysi vaqtida nima qilish kerak kabi savollarga aniq javob beradigan jarayon. Texnologik hujjat turi, bunda ishlanmaning butun jarayoni ixcham tarzda, ko‘pincha chizmalar va grafika shaklida ko‘rsatiladi.

**Texnologiya** (lot.– san’at, mahorat, logos – fan, ta’limot) – bu qaysi vaqtida nima qilish kerak kabi savollarga aniq javob beradigan jarayon.

**Vebinar texnologiya** – Web texnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta’lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferentsiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqealoyok hodisalar bo‘yicha Internet tarmog‘i orqali tashkil etiladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri uzatiladigan lavha (translyatsiya)lar

**Veb-kamera** orqali mashhur kishilarni – olim, shoir-u yozuvchilarni taklif qilib, ularni o‘quvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kiritish mumkin.

**Videokonferensiya** – u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtida ko‘radi, eshitadi va ma’lumotlar bilan almashadi.

**Virtual namoyish** – bunda yozuvchi va shoirlar bilan virtual uchrashuvlar o‘tkazish mumkin. O‘qilgan asarlarning kinovariantlaridan parchalar ko‘rsatish, mashhur suhandonlar o‘qigan she’r va dostonlarni eshittirish mumkin.

**Web-hujjat** – bu elektron ko‘rinishdagi hujjat. Undan darsning mazmunini, rasm, video va animatsiyalarni, bir vaqtning o‘zida boshqa mavzularga murojatini, o‘z – o‘zini baholash uchun test savollarini va Internet tizimida ma’lumotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatlarini beradi.

**Web-saytlar** internet serverlarida joylashguncha va nashr qilinguncha Web–texnologiya va dizayn asoslaridan yuqori va chuqr bilim talab qiluvchi, ko‘pqirrali va professional–intellektual ishdir. Bu muammolar zamonaviy Web–texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar yetarlicha bo‘lgandagina yechiladi. Shuning uchun Web–sahifa yaratish va uni o‘rganish jarayoni, shu berilgan yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun uchun juda muhim va faol hisoblanadi.

## XULOSALAR

Talabalarning ingliz tilidagi og‘zaki nutqini tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini uzviy rivojlantirishga qaratilgan mazkur 3 bosqichli mashq va vazifalar tizimi nutq faoliyati ko‘nikmalarining psixologik-lingvodidaktik tahlili natijalariga asoslangan holda ishlab chiqildi.

Og‘zaki nutq faoliyati turlari sifatida tinglab tushunish hamda gapirish jarayontning tahlili natijasida ular o‘rtasidagi spetsifik, balki umumiy psixolingvistik jihatlar mavjudligini ko‘rib chiqdik. Gapirish va tinglab tushunish nutq faoliyatlarining har ikkisiga ham xos bo‘lgan tashkil etilishdagi struktur birlik va uning 3 bosqichda – motivatsiya uyg‘otuvchi; analitik-sintetik va bajaruvchi etaplarda namoyon bo‘lishi; faoliyat predmetining umumiyligi; fikrlash mexanizmlarining funksial boshqarilishi (shuningdek, xotira va taxmin qilish mexanizmlarining ham); nutqni tinglab tushunish va uni hosil qilish jarayonida ham ichki nutq funksionalligi hamda eshitish va motorik analizatorlarning o‘zaro mutanosiblikda amalga oshirilishi shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan umumiy xususiyatlar gapirish va tinglab tushunish faoliyatining o‘zaro uzviy bog‘liqligining hamda rivojlantirishda (og‘zaki nutqni) mazkur jihatlarni nazarda tutishni taqozo etadi. SHu bilan bir qatorda gapirish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda lingvistik komponentlarning ahamiyatini ham alohida ta’kidlash zarurdir. Bunda grammatik, lingvistik va fonetik nazarda xususiyatlarni tutish, mazkur yo‘nalishlarda yuzaga keluvchi to‘siq va qiyinchiliklarni muammolarni bartaraf etish ustida ishlash har ikki nutq faoliyatini rivojlantirishning asos poydevori bo‘lib xizmat qildi.

Aytib o‘tilgan jihatlar gapirish va tinglab tushunish nutk faoliyatliga xos bo‘lgan spetsifik ko‘nikma va shuningdek malakalar kategoriyasini tuzishga yordam beradi. Mazkur xususiyatlar orasida psicho-fiziologik mexanizmlarning umumiyligiga e’tiborni qaratgan holda aynan fikrlash-anglash mexanizmi gapirish hamda tinglab tushunish jarayonida faol ishtirok etishi, uni rivojlantirish orqali og‘zaki nutq

ko‘nikmalarini jadal harakatga keltirish mumkinligini ta’kidlab o‘tamiz. Tinglab tushunish ko‘nikmalari gapirish ko‘nikmalari bilan o‘zaro tutashgan nuqtasini, shuningdek, ma’lumotni tahlil qilishdagi fikrlash-anglash darajasida ham ko‘rish mumkin. Bu turdagи ko‘nikmalar o‘zida umumiylig elementini saqlagan holda bir nutq faoliyatи turidan boshqasiga ko‘chish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalari nofilologik yo‘nalish talabalarida og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi kommunikativ maqsadlarni nazarda tutgan holda ularda tinglab tushunish asnosida gapirish faoliyatining xar ikki shakli-monologik va dialogik nutq ustida ishslash maqsadga muvofiqdir. Bunda og‘zaki nutq ko‘nikmalari boshqa faoliyat turlari kabi ta’lim jarayonidagi o‘quv materialini metodik tahlil qilishning struktur birligi bo‘lgan – mashq va vazifalar tizimi orqali rivojlantiriladi. Ular yordamida til materiali bilan ishslash hamda ushbu asosida aqliy faoliyat jarayoni ta’milanadi. Shuningdek, diskurs tushunchasining xorijiy tildagi og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati shundan iboratki, diskursning asosiy funktsiyasi talabalarni o‘z kasbiy mutaxassisligi doirasidagi kommunikativ vaziyatlar bilan yaqindan tanishtiradi va ularda nutq faoliyatini amalga oshirishda namunalardan foydalangan holda ko‘nikma hosil qiladi. Diskurs til o‘rganuvchilarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ularni ajratilgan holda emas, o‘zaro mutanosiblikda, uyg‘unlikda kontekst asosida rivojlantirish talab etiladi. Chunki faqat diskurs orqali nutq hodisalari va ko‘nikmalaridan u yoki bu turdagи muayyan nutq vaziyatlarida qay tarzda foydalanish kerakligi talabalarga yetkazib beriladi. Diskursning og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi yana bir ahamiyati talabalarning nutq ko‘nikmalari va muloqot qilish malakalarini muayyan sohadagi bo‘lajak mutaxassis sifatida takomillashtirishni taqozo etadi.

Gapirish va tinglab tushunish nutq faoliyatidagi nafaqat o‘ziga xos spetsifik, shu bilan birga muayyan o‘xshash xususiyatlarini ham aniqlashda yordam berdi. Bunda nutqni qabul qilish (nutqiy-retseptiv) va nutqni bayon qilish (nutqiy produktiv) jarayonlarini taqqoslash orqali farqlanuvchi va o‘xshash ko‘nikmalar hamda malakalar kategoriyasini tuzish imkoniyati yaratildi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish tilga boy muhitni ta’minlovchi, so‘z boyligini rivojlantirishga urg‘u beradigan, talaffuz va intonatsiyaga e’tibor beradigan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Auditoriyada qo‘llab-quvvatlovchi atmosferani yaratish va o‘rganuvchilarga nutqni mashq qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish orqali o‘qituvchilar talabalarning og‘zaki muloqot qobiliyatlari o‘sishiga yordam beradi.

Interfaol tadbirlar, o‘yinlar va hayotiy materiallar asosida ishslash talabalarning faolligini va motivatsiyasini yanada oshiradi. Ushbu interfaol usullarni izchil amalga oshirish orqali talabalar asta-sekin o‘zlarining ingliz tilida so‘zlash qobiliyatiga ishonch, ravonlik va aniqlikni oshirishadi. Bu holat ularning kelajakdagi tilni keng va atroflicha o‘rganishlarining rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Eksperimental tadqiqotimizda olingan ushbu natija tinglab tushunish va gapirish, nutq faoliyatini uzviy kompleks ravishda rivojlantirish va xorijiy til ta’limi jarayonini intensifikatsiya qilish uchun (rezerv) zahira vositasi sifatida ishlatilishi mumkin.

Biz tomonimizdan taklif etilgan o‘ziga x os metodika orqali og‘zaki muloqotni qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim texnologiyasi – umumishtirok yordamida bugungi kunda talabalar uchun asosiy axborotlashish quroli bo‘lgan OAV, internet va televidenie hosilalari bo‘lgan auditoriya va audiovizual vositalardan foydalangan holda autentik muhit hamda sharoitlarda til o‘rganuvchilarning tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini bir paytning o‘zida kompleks tizimda rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

# **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## **I. Prezident asarlari**

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.– 488 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: "O‘zbekiston", 2017. - 592 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 102 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash – ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti. – T.: O‘zbekiston. 2017. – B. 32.
5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2018. 80 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O‘zbekiston, 2020. – 400 b.

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagи “Chet tillar bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” gi 124-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagи “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 610-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘grisida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997.11-12-son. 295-modda.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlарini tashkil etish

to‘g‘risida”gi 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son Qarori. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 15-may.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob maxsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot kilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi //“Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar.

12.O‘zbekistonda test tizimi va uni rivojlantirish istiqbollari. // Axborotnama. DTM, 2019. – № 7. – B. 3.

13.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-yanvardagi "Oliy ta’limning Davlat ta’lim standart- larini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 2001-yil 16-avgustdagi "343-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish haqida"gi 3-sonli qarori.

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi 4947-sonli Farmoni.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgust "Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

17.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdan qabul qilingan "Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘RQ-637-sonli qonuni.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

18. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. Ped.fan.dok.dis. – T., 2006. – B. 264.

19. Abdullayeva Q. A., Safarova R.F. va boshq. Boshlang‘ich ta’lim konseptsiyasi. Boshlang‘ich ta’lim. – T., 1998. – № 6. – B. 12-18.

20. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – B. 178

21. Abdullayeva X. A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish. – Farg‘ona. 2008.
22. Abduraxmonov S, Akramov A. Mobil internet tarmoqlari. – T. 2017. –B. 131.
23. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. dok. dis. – T., 2002. – B. 276.
24. Akramova G.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped. fan. nomz. diss. –Toshkent, 2007. – B. 139
25. Archer G. et al. (2017). Mindset for IELTS. Student’s book 1.Cambridge University Press.
26. Archer G. et al. (2017). Mindset for IELTS. Student’s book 2.Cambridge University Press.
27. Archer G. et al. (2017). Mindset for IELTS. Student’s book 3.Cambridge University Press.
28. Archer G. et al. (2017). Mindset for IELTS. Teacher’s book 1.Cambridge University Press.
29. Asadov Y.M. O‘qituvchi kompetensiyasi boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish omili //Boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish istiqbollari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T., 2014. – B. 3-5.
30. Aslonova O. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. Qarshi, 2020.
31. Atakulov A, Aminov M. Mobil telekommunikatsiya tizimi. – Toshkent. 2018. – B.79.
32. Avliyoqulov N.X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2009.
33. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Toshkent, 2001.
34. Avliyoqulov N.X., Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2008.
35. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. – T.: TDPU, 2016. – B. 84.
36. Ayupov R.X. Internet tizimida ishlash. – T.:, 2018. – B. 237.

37. Azizzodjayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003. – B.192.
38. Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dokt... diss. – Toshkent, 2007. 305 b.
39. Bezrukova V. S. Kasbiy pedagogikaga kirish. – Yekaterinburg, 2019. – S.51.
40. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1999. – B. 29.
41. Dilova N.G‘. Boshlang‘ich ta’limda o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...diss. – Nukus, 2018. – B.152
42. Egamberdiyeva N.M. Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi. Monografiya – T.: Fan va texnologiya, 2013. – B. 46
43. ESP material
44. ESP material
45. ESP material
46. Farberman. B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan. 2000.
47. Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. – Toshkent: Lesson press. 2020. – B.112.
48. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – B.180.
49. Ishmuxamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T., 2009.
50. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., 2017 – B. 68
51. Ishmuxamedov. R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyoti. – Toshkent, 2008.
52. Ivanova A. O‘zbekiston – Germaniya ta’lim sohasidagi hamkorlik. Xalq so‘zi. 2002-yil 13-mart.
53. Kabilova Z. O‘zbek tilining fonosemantik vositalari. Filol.fan.nom. diss.avtoref. – T. 2008.

54. Liz and John Soars . Headway. Pre-intermediate. The third edition, 2012.
55. Mahmudov M.H. Ta’limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T.: 2004. -42 b.
56. Masharipov M., Ibragimov E. Internetning salbiy va ijobiy ta’sirlari. – Toshkent, TDIU, 2018.–B.194.
57. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T.: Voris-nashriyot, – 2013. – B. 10-35.
58. Mavlonova R.A., Raxmankulova N.. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya: Metodik qo’llanma. – T.: 2007. – B.176.
59. Musayeva M. E., Boymurodova G. T., Otaboyev A. K., Po‘latova D. T., Abdullayeva M. J. Ta’lim jarayonida qo’llaniladigan interfaol metodlar. – Toshkent. 2016.
60. Muslimov A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. 120 b.
61. Najmiddinova G.N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv-biluv faoliyatining shakllanishida didaktik asoslar: ped.f.n. diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – 216 b.
62. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya. 2011. 275 bet.
63. Otaxanova D. Chet tilini o‘qitishda aktiv o‘qitish metodlarining o‘rni. NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchnyy vestnik. 2022-yil maxsus son. – B.431-436.
64. Otaxanova D. Game Educational Technologies in Teaching Foreign Languages. Eurasian Research Bulletin (ERB) Journal Impact Factor: 7.995
65. Otaxanova D. Improving students’ activity through interactive games. NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchnyy vestnik. 2021-yil maxsus son. – B.312-316.
66. Otaxanova D. The importance of teaching foreign language to aduit learners. “Integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida

chet tillarni o‘qitishning muammo va yechimlari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Namangan, 2022-yil 8-9 aprel

67. Oymatova N. Ta`lim jarayonida elektron o`quv vositalaridan foydalanish. // Til va adabiyot ta`limi. 2019-y. 5-son, –B.8.

68. Qahhorova Sh.B. Global ma`naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 362 b.

69. Raymond Murphy. English grammar in use.

70. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. Monografiya. – T.: RTM, 2000. – 46b.

71. Salimova N. Buyuk Britaniya, Finlyandiya: Xorijda ta’lim. Ma’rifat. 2001.

72. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar: tahlil, ta`rif, mulohazalar. Metodik tavsiya. – Toshkent. 2000.

73. Sayidazimova D. “Ingliz tili”. Matematika o‘qitish metodikasi talabalri uchun ingliz tilidan metodik qo‘llanma. Toshkent, 2011.

74. Sobirova M. AKT-yozma nutqni rivojlantiruvchi vosita. “Yangi O‘zbekistonni qurish va rivojlanishida yoshlarning faolligi” mavzusidagi IY respublika onlayn konferensiya. – Namangan. 2020. – B.374-378.

75. Sobirova M. Fikrlash malakalarini rivojlantirishda oiladagi kitobxonlikning o‘rni. “Fan va jamiyatning o‘zaro ta’siri — modernizatsiya va innovatsion rivojlanish sari yo‘l” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami. 1-tom. 10.06.2020. Namangan. – B.300-303.

76. Sobirova M. Hamkorlik ta’limi texnologiyalarining didaktik mohiyati. Til va adabiyot masalalari. №7. Respublika oliy o‘quv yurtlari professor o‘qituvchilarining ilmiy maqolalari to‘plami. – Namangan. 2019. – B. 335.

77. Sobirova M. Zamonaviy o‘qituvchining hamkorlik texnologiyasi. “Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Namangan. 5.10.2020. – B.250-254.

78. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. TDPU bosmaxonasi. 2015.–B.107.
79. Umumiy va kasbiy pedagogika. Darslik. Pedagogika universitetlari talabalari uchun qo'llanma / Yed.V.D.Simonenko. M.: Ventana-Graf, 2005. – B. 114.
80. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.
81. Usmonov N. Germaniyada kasb-hunar ta'limi. Xorijda ta'lim. Ma'rifat. 2002 yil 13 fevral
82. Usmonov S. Boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari. Ped.fan.nomz.dis. – T., 2009. – B.136.
83. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash.(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) – Toshkent: Sharq. 2019.
84. Xolmatova Z.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogga asoslangan munosabatlar madaniyatini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlari. Ped.fan.nomz.dis. – T., 2009. – B.116.
85. Xolmirzaev E.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat an'analariga qiziqishni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped.fan.nomz.dis. – T., 2002. – B.149.
86. Yulbarsova X.A., Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. ped.fan.bo'yicha fals. dok. (PhD) diss. – Arzamas, 2020.
87. Zamonaviy raqamli axborot telekomunikatsiya va komp'yuter texnologiyalarini joriy etish vazifalari// O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. Mas'ul muharir Nazarov Q. –T.: Akademiya. 2015. –B.59 .
88. Zamonaviy raqamli axborot telekomunikatsiya va kompyuter texnologiyalarini joriy etish vazifalari //O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. Mas'ul muharrir Nazarov Q. – : Akademiya, 2015. – B.59 .

89. Zeer Y.F., Pavlova A.M., Sshanyuk Y.E. Kasbiy ta'limni modernizatsiya qilish: barkamollikka asoslangan yondashuv. – M.: MPSI, 2005. – B. 48.

90. Ziyomuxamadov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino. 2003.

### **Xorijiy adabiyotlar:**

91. Biryukov B.V. Kibernetika i metodologiya nauki. – M.: Nauka, 1994. – S.315.

92. Burbo L. Emotsii, chuvstvo i proshenie. – M.: ID «Sofiya», 2016. – 144 s.

93. European Commission ECTS Guide of 2004. Available at [https://www.uc.pt/ge3s/pasta\\_docs/ects-users-guide170804.pdf](https://www.uc.pt/ge3s/pasta_docs/ects-users-guide170804.pdf)

94. European Commission ECTS Guide of 2015. Available at [https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/ects-users-guide\\_en.pdf](https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/ects-users-guide_en.pdf)

95. European Cuommision ECTS Guide of 2009. Available at [https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/year-2009/ects-users-guide- 2009\\_en.pdf](https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/year-2009/ects-users-guide- 2009_en.pdf)

96. Findlay C.S., Lumsden Ch.J. The Creative Mind. Towards an Evolutionary Theory of Discovery and Innovation // J. of Social and Biological Structures. 1988.Vol. 11. P. 10.

97. Garry G. Azgaldov Alexander V. Kostin Alvaro E. Padilla Omiste The ABC of Qualimetry Fonts kindly provided by ParaType Inc Redero 2015.

98. Grishunin S.I. Vozmojna li sovremennaya nauka bez intuitsii. Modeli tvorcheskoy intuitsii v kontekste nauki, filosofii i prognozirovaniya Izd.3 LKI 2010. - 162 s.

99. Jack Snowman and Rick McCown. Psychology Applied to Teaching. Stamford: Cengage Learning, 2015.

100. Jessica Shedd (2003), "The History of the Student Credit Hour". New Directions for Higher Education. 122 (Summer) (122): 5–12.

101. Kudryavsev V.N. Svoboda nauchnogo tvorchestva // Gosudarstvo i pravo. -Moskva, 2005. -№5. – S.22-28.
102. Maydanov A.S. Metodologiya nauchnogo tvorchestva. Izd.2. M. Knijnii dom `LIBROKOM` 2012. - 512 s.
103. Robert Wagenaar, A History of ECTS, 1989-2019. Developing a World Standard for Credit Transfer and Accumulation in Higher Education. International Tuning Academy, 2020. Available at [https://www.rug.nl/research/portal/files/111591811/A\\_History\\_of\\_ECTS\\_1989\\_2019\\_PDF.pdf](https://www.rug.nl/research/portal/files/111591811/A_History_of_ECTS_1989_2019_PDF.pdf)
104. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.
105. Altbach P.G. (January – February 2004)/ The Costs and Benefits of World – Class Universities. Academe. Retrieved April 10, 2006, from [www.aaup.org.](http://www.aaup.org/)
106. Khoon K.A. (2005). Haimark of a Worid – Class Universitey// College Jornal. Retrieved April 10, 2007, from <http://findarticles.com/p/>
107. McNeill D. (2007). Japan`s New Science Adviser Wants to Shake Up Higher Education // The Chronicle of Education. 25 May 2007. [http://chronicle.com/daily/2007/05/2007052508n.htm/](http://chronicle.com/daily/2007/05/2007052508n.htm).
108. Bestujev-Lada I. V. Prognoznoe obosnovanie sotsialnykh novovvedeniy. – M.: 1993 – S. 18.
109. Viner N. Kibernetika i obЩestvo. –M.: Nauka, 1991. -S.620
110. Mol S. Informatsionnoe vozdeystvie v sovremennom mire. – M.: Krimskiy most, 2004. –S. 484.
111. Popov L. Informatsiologiya i informatsionnaya politika. – M.: Luch, 1999. -S .27
112. Prenzel M., Sälzer C., Klieme E., Köller O. PISA 2012 Fortschritte und Herausforderungen in Deutschland// Waxmann 2013.- 366p.
113. Prigojin A. I. Sovremennaya sotsiologiya organizatsiy – M., 1995 – S. 185.

114. Reiss K., Weis M., Klieme E., Köller O. PISA 2018 Grundbil dungim internatsionalen Vergleich//Waxmann Verlag 2019, p.26

115. Santo B. Innovatsii kak sredstvo ekonomiceskogo razvitiya: Per. s veng. – M.: 1990 – S.100.

116. Sacher W.. Jenseits von PISA: Wege einer neuen Prüfungskultur (Schule und Unterricht)// Auer Verlag in der AAP Lehrerwelt GmbH, 2005.- 140 p.<https://www.bmbf.de/de/pisa-programme-for-international-student-assesment-81.html>

117. Svitich L.P. Sotsialnaya informatsiologiya. – M.: Algoritm, 2000. – S.250

#### **IV. Internet saytlar**

118. <http://www.disser.h10.ru/pedagog.html>

119. <http://edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

120. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

121. <http://natlib.uz> - Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

122. <http://www.istedod.uz/>

123. <http://www.pedagog.uz/>

124. <http://ziyonet.uz> - Ta’lim portalı ZiyoNET

125. Ijtimoiy axborot ta’lim portalı: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

126. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).

127. Respublika bolalar kutubxonasi: [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz).

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. Talabalarining og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik-lingvodidaktik asoslari</b>	
1.1. Nofilologik yo'naliш talabalarining xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	6
1.2. Ingliz tilidagi og'zaki nutqni rivojlantirishda gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarining uzviyligi va psixolingvistik jihatlari.....	24
1.3. Talabalarining xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda "diskurs" tushunchasining o'rni va ahamiyati.....	35
<b>II BOB. Ingliz tilini o'qitishda talabalarining og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi</b>	
2.1 Xorijiy og'zaki nutqni rivojlantirishda monologik va dialogik nutq shakllari, ularning lingvistik-psixologik-ekstraliningvistik xususiyatlari..	45
2.2. Ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion usullarning o'rni.....	61
<b>MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR.....</b>	<b>90</b>
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>97</b>
<b>XULOSALAR.....</b>	<b>112</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>115</b>